

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

O'quv qo'llanma



H.D.ABDULLAYEV

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ
DAVLAT UNIVERSITETI**

H.D.ABDULLAYEV

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

*5120100-filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
bakalavr ta'lif yo'nalishi sirtqi bo'lim talabalari uchun*

O'QUV QO'LLANMA

**«O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi»
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2020**

UO'K: 821.512.133.09(091)

KBK: 83.3g(5O')ya73

A 15

Abdullayev, H.

O'zbek adabiyoti tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / H.Abdullayev. – Toshkent : «O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. – 152 b.

UO'K: 821.512.133.09(091)

KBK: 83.3g(5O')ya73

Abdullayev Hamro Dauletbaevich

Mas'ul muharrir:

M.Qurbaniyazov

filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Taqrizchilar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Matyakubov

filologiya fanlari nomzodi, dotsent I.Qurbanbaev

Mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashda oliy o'quv yurtlari filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavr ta'lif yo'nalishi o'zbek adabiyoti tarixi fani dasturiga tayanilgan. Ushbu o'quv qo'llanma o'zbek adabiyoti tarixi fani bo'yicha nashr etilgan darslik va qo'llanmalar asosida yozilgan. Qo'llanmada mumtoz adabiyot namunalari umumlashtirilgan holda, muayyan tizimga solinib, uslubiy innovatsion tavsiyalar berilgan. Sirtqi bo'lim talabalarining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, nazorat savollari tuzilgan. O'quv qo'llanma sirtqi ta'lif talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-sonli buyrug'iiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-6529-1-0

© «O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020.
© H.Abdullayev, 2020.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarorida belgilangan maqsad hamda aniq vazifalar oliv ta’lim sohasini isloh qilish, yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashga, mustaqil davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarining yuksak taraqqiyotida samarali xizmat qiladi. Qarorda ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarador integratsiyalashuvini ta’minlash hamda yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish zarur ekanligi ta’kidlangan.

Ma’naviy barkamol, g‘oyaviy sog‘lom, har tomonlama komillikka intiluvchi ijtimoiy faol, kasbiy mahorat sirlarini egallagan mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish – oliv o‘quv yurtlarining bosh vazifasi qilib qo‘yildi.

Demak, bugungi milliy mustaqillik davrida o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilarini yangi innovatsion texnologiyalar bilan qurollantirish va bu orqali xalqimizning yangi va mumtoz adabiy-badiiy tafakkurini yoshlarga o‘rgatish eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Yosh avlodni hayot darsligi – adabiyot bilan chuqur tanishtirish, qalblari-dagi ezgu-niyatlarning amalga oshirishlariga ko‘maklashish, estetikaning go‘zal namunalari bo‘lgan mukammal badiiy asarlardagi ibratli hayotiy saboqlar bilan tarbiyalash adabiyot fani o‘qituvchilari oldiga qo‘yilgan bosh vazifadir. Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim tizimining har bir adabiyot o‘qituvchisi o‘qitish huquqini o‘zida saqlab qolishi uchun bilimdon, yangi innovatsion texnologiyalar bilan qurollangan, odil, mulohazali, yosh avlodga ilm-u irfon sirlarini o‘rgata oladigan, mukammal shaxs bo‘lishi lozim.

Yosh avlodni milliy an’ana va qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda, mumtoz adabiyotimizning o‘rni va amaliy ahamiyati katta. Shu ma’noda uni zamonaviy talablar asosida mukammal tarzda o‘qitish, oliv o‘quv yurtlariga alohida mas’uliyat yuklaydi. Uslubiy qo‘llanmada masalaning aynan shu qirralariga e’tibor qaratilgan.

MUMTOZ ADABIYOTGA KIRISH KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

- 1. Mumtoz adabiyotga kirish kursining maqsad va vazifalari.*
- 2. Mumtoz adabiyotdagi davriy o'zgarishlar va bularning sabab-lari.*
- 4. Mumtoz adabiyotdagi davrlashtirish haqida.*
- 3. Mumtoz adabiyotni o'rghanishning metodologik asoslari va uni tadqiq etish metodlari.*

Tayanch so'z va atamalar: *mumtoz adabiyot, maqsad va vazifa, davriy o'zgarishlar, davrlashtirish, tasnif, metod, metodologiya.*

Ma'lumki, adabiyot atamasi arabcha «odob» ko'pligi «adab» so'zidan olingan bo'lib, adablar tizimi, ya'ni odob-axloq haqidagi so'z san'ati, «adablar hazinasi» degan ma'noni anglatadi. Adabiyot so'ziga «shunos» qo'shimchasi qo'shilib, shu soha bilan shug'ullanuvchi shaxs oti hosil bo'lsa, «lik» qo'shimchasi qo'shilishi bilan so'z san'atini tizim shaklida o'rganuvchi fan nomi hosil bo'ladi. Mumtoz adabiyot tarixi adabiyotshunoslikning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

«**Adab**» so'zi aslida arabcha **«Ma'daba»** o'zagidan olingan. «Ma'daba» esa odamlar da'vat qilingan ziyofatni anglatadi. Odob ham odamlar doimo da'vat qilinadigan, ma'naviy «ma'daba», ya'ni ziyofat bo'lgani uchun shu nomni olgan.

Abu Muhammad «Kitobul Voiy» nomli asarida: «Odob odamlarni maqtalgan narsalarga chaqirgani uchun odob deb nomlangan» deydilar.

Abu Zayid rahmatullohi alayhi: «Odob fazilatlardan biriga eltuvchi yaxshi urinishga ishlatalidigan ism» deganlar.

Islom madaniyati tarixida «Kitobul adab» nomli ichki kitoblar bor. Ularda odobga oid hadisi shariflar keltiriladi. Bunga misol tariqasida, **Imom Ismoil Buxoriyning «Al-Adab Al-Mufrad»** kitobini keltirish mumkin.

Imom Buxoriy «Al-Jome' as-Sahih»da «Kitob al-adab»ga o‘rin berganligiga qaramay, uni alohida kitob qilishni maqsad qilganlar. Imom Buxoriy «Al-Adab Al-Mufrad» kitobida, turli odoblarga oid 1322 ta hadisi sharifni 644 ta bobda keltirgan.

Hozirgi kunda g‘arb madaniyati ta’sirida odobni **madaniyat** deyish ham joriy bo‘lgan. Masalan: ovqatlanish odobi deyish o‘rniga, ovqatlanish madaniyati deyiladi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi fanini o‘rganishdan maqsad talabalarga milliy tafakkurimizning asosiy o‘zagi bo‘lgan adabiy tafakkur, ya’ni mumtoz adabiyotimiz taraqqiyoti bosqichlarini, tamoyillarini, adabiy-estetik tafakkur tadrijiga katta hissa qo‘sghan adiblar hayoti va meroslari, yozma adabiyotda adabiy hodisalarning paydo bo‘lish asoslari, mumtoz adabiy tur va janrlarning o‘ziga xosligi, mumtoz poetikaning muayyan sistema (tizim) ekanligi haqidagi ma’lumotlarni berishdan iborat.

Fanni o‘rganish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo‘ladi:

- Mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganishda dastlab matn ustida ishlay bilish.
- Adabiyotshunoslikdagi mavjud metod hamda tushunchalarning paydo bo‘lish va shakllanish tarixini o‘rgatish.
- Mumtoz adabiyot vakillarining meroslari bilan mukammal tanishtirish.
- Mumtoz adabiyot poetikasi sirlarini o‘rgatish.
- Mumtoz adabiyotda tasavvuf yaqinligining asoslarini o‘rgatish.
- Mumtoz adabiyot namunalarini tahlilga tortish va talabalarda mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilish.

Adabiyot tarixi insoniyat tarixining bir qismi sifatida tushuniladi. Insoniyat tarixi esa bir necha turlarga: fuqarolik tarixi, davlatchilik tarixi, madaniy tarix va boshqalarga ajraladi. So'nggisi, ya'ni madaniyat tarixi: san'at tarixi, shaharsozlik tarixi kabi qismlarga bo'linadi. Madaniyat tarixining eng unumli sohalaridan biri – san'at tarixidir. Bu tarix, o'z navbatida, san'atning turlaridan kelib chiqib: musiqa tarixi, rassomchilik tarixi, haykaltaroshlik tarixi, raqs tarixi va b. qatorida badiiy adabiyot (san'atning turi sifatida), ya'ni adabiyot tarixiga alohida e'tibor beriladi. Demak, u xalq madaniy tarixining harakatdagi muayyan bir qismi sifatida anglashiladi. Adabiyot tarixi ilk badiiy asarlar (dastlabki og'zaki shaklda mifik tafakkur asosida yaratilgan) dan tortib, hozirga qadar o'tgan adabiy-badiiy asarlarga, ya'ni adabiy (kengroq ma'noda) ma'naviy merosga nisbatan qo'llaniladi.

Adabiy asarlar yakka shaxslar tomonidan yaratilgan bo'lsa ham yozuv hali shakllanmagan dastlabki davrda jamoaviy xarakterga ega bo'lган. Ya'ni, bir iste'dod tomonidan yaratilgan badiiyat namunalari og'izdan-og'izga o'tishi bilan boyigan, sayqallangan va anonimlashgan, natijada jamoaviy xarakter kasb etgan. Shunday ekan, adabiy asarning yaratuvchisi bir shaxs bo'lishi mumkin, lekin badiiy adabiyotning yaratuvchisi bir kishi bo'lmaydi. Adabiyot – xalq tomonidan yaratiladi. Qaysi xalq vakillari iste'dodliroq bo'lsa, ular o'z iste'dodiga yarasha kuchliroq (badiiy jihatdan) asarlarni ertaroq yaratganlar. Adabiyot tarixi, demak, jamiyat tarixi tarkibida tushuniladi. Adabiyot tarixini o'rganishni yengillashtirish, har bir tarixiy davrning mohiyatiга chuqurroq kirib borish va o'sha zamonda yashagan adiblar ijodini to'laroq anglash maqsadida davrlashtirish tushunchasiga murojaat etiladi, uning istilohlari va tamoyillari ishlab chiqiladi.

«Davrlashtirish» tushunchasi yoki bu tushunchani tashigan istiloh umumiylar tarixning boshqa sohalariga nisbatan qo'llanilgani kabi adabiyot tarixiga nisbatan ham ko'proq qo'llaniladi. Shuning uchun «davrlashtirish» deyilganda, uning predikati sifatida (nimani?) milliy adabiyot tarixini (umuman, badiiy adabiyotni emas) davrlashtirish deb

ishlatiladi. Adabiyot tarixini davrlashtirish uchun dastlab adabiy istilohlarni belgilab olish, so‘ngra esa davrlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqroqdir.

Ma’lumki, «davrlashtirish» tushunchasi asosida «davr» istilohi yotadi. Biz «davr» deb atagan so‘z «zamon», «vaqt», «muddat», «fursat», «davomlilik» kabi ma’nolarni anglatadi. Biroq adabiyotshunoslar davrlashtirishga munosabatda «davr» atamasini faol qo’llaymiz, go‘yoki boshqa so‘zlar atama darajasida ilmiy taomilga kirib kelmag’an. Xorijdan o‘zlashgan so‘zlar asosida rus tilida davr tushunchasi «period», «epoxa», «stadiya» so‘zлari orqali ifodalanibgina qolmay, bu har bir so‘z muayyan ma’no qamrovidan kelib chiqib, alohida atamaga aylangan. Masalan, «period» «kichikroq davrlar»ga nisbatan qo’llanilib, u ko‘proq yillar, o‘n yilliklar va asrlarga nisbatan ishlatiladi. «Epoxa» undan kengroq tushuncha bo‘lib, o‘z tarkibiga bir necha asrlarni (masalan, epoxa srednix vekov – o‘rta asrlar (ya’ni, bir necha asr ma’nosida) birlashtirgan. O‘zbek tilida esa bu tushunchani, ya’ni bir necha asrlarni qamrab oluvchi «epoxa»ni ham «davr» so‘zi orqali anglatamiz. Adabiyotshunoslikda «stadiya» (ayrim ilmiy asarlarda «stadialnaya obshnost») tushunchasi bor. Umumjahon adabiyoti tarixining muayyan «davri»ga nisbatan qo’llanilib, uning doirasiga antichnost (qadimgi davr), srednevekove (o‘rta asrlar), Renessans – Vozrojdenie – Uyg‘onish (ayrim tarixiy manbalarda Intiboh) va boshqa tushunchalarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Biz o‘zbek tilida uni ham «davr» deb ataymiz: antik davr, o‘rta asrlar, Uyg‘onish (yoki intiboh) davri kabi. Demak, biz o‘zbek tilidagi adabiyotshunoslik masalalariga munosabatda har uch tushunchani bir so‘z, ya’ni «davr» so‘zi orqali anglatamiz va yuqoridaagi kabi yillarga nisbatan ham (20-yillar adabiyoti), asrlarga nisbatan ham (XX asr davri adabiyoti) hamda «davriy umumlashma»ga nisbatan ham birgina «davr» so‘zidan foydalananamiz.

Adabiyot tarixi davrlashtirilayotganda «davr» so‘zi zimmasidagi ana shu istilohiy «yuk»larning ayirmasini belgilab olmay turib, davrlashtirish tamoyillarini izlaganda xatoliklarga yoki kamida chalkash-

liklarga duch kelaveramiz. Shunday ekan, umumjahon adabiyoti tarixini davrlashtirishdagi so‘nggi tamoyillarga suyanib ish tutsak, har holda jahon adabiyotshunosligidan chetda qolmaymiz. Demak, davrlashtirish tamoyillariga o‘tishdan avval «davr» tushunchasi zimmasidagi bir necha ma’nolar (epoxa, stadiya)ni ham o‘zbek adabiyoti tarixiga nisbatan faol qo‘llash mumkin bo‘lishiga ishonch hosil qilishimiz kerak. Chunki adabiyotimiz tarixi qadimiyligi jihatidan ham, boyligi va istiqboli jihatidan ham boshqa xalqlar adabiyotidan qolishmaydi.

Davr (vaqt jihatidan) chegaralanish. O‘zbek adabiyoti tarixinning davriy chegaralarini aniqlashda biror siyosiy voqeа yoki mashhur hukmdorning davlat tepasiga kelishi, inqilobiy hodisalar asos qilib olinadi. O‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish borasida Fuod Ko‘prulu, Abdurauf Fitrat, Miyonbuzruk Solihov, Vohid Zohidov, Natan Mallaev, Xoliq Ko‘ro‘g‘li, Aziz Qayumov, Begali Qosimov va boshqa ustozlarning bu boradagi tasniflarini inobatga olgan holda, badiiy adabiyot tarixiy davrlarining chegaralari ham adabiy hodisalar asosiga quriladi. Adabiy hodisani yuzaga chiqaruvchi ob’ekt adabiy asar bo‘lsa, uning yaratuvchisi adabiy siymo hisoblanadi. Shuning uchun ham har qanday adabiy davr mana shu ikki tushuncha bilan bog‘liq holda istifoda etilishini nazarda turib, ayrim adabiy asar (masalan, «Avesto» yoki «Qutadg‘u bilig») yoki adabiy siymo (masalan, Alisher Navoiy davri) davr tushunchasini belgilashda muayyan rol o‘ynaydi.

Shularni inobatga olgan holda, adabiyotimiz tarixining dastlabki katta davri yumumlashmasi mumtoz adabiyot shakllangunga qadar (F.Ko‘pruluga ko‘ra, islomga qadar) kechgan adabiy hodisalar alohi-da o‘rganilishi kerak. Bunda eng qadimgi davrlardan tortib, Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asariga kirgan ulug‘ turkshunos olimga zamondosh bo‘lgan adiblarning asarlarigacha qamrab olinish lozim.

Ikkinci davriy umumlashma sifatida mumtoz adabiyotning shakllanishi va taraqqiyoti olinadi, bu «Qutadg‘u bilig»ning yaratilishdavridan XX asr boshlarigacha, to‘g‘rirog‘i, «Padarkush» dramasining sahnaga chiqishiga qadar davom etadi.

Uchinchi davriy umumlashma jadid (yangi) adabiyoti bilan boshlanib (boslangich asar nomi yuqorida tilga olindi) XX asr adabiyotini to‘la qamrab olgan holda, Istiqlol davri adabiyotini ham o‘z tarkibiga olib, hozirgi kunga qadar davom etadi. Bu yangi adabiyot umumiylis tilohi bilan o‘rganiladi. Bu o‘rinda har bir davriy umumlashma adabiytarixiy davrlarga bo‘linishi mumkin va lozimligini unutmaslik kerak.

Barcha turkiy tildagi manbalar va jahon tillaridagi ilmiy adabiyotlarning tan olishicha, o‘zbek (turkiy) mumtoz adabiyotining nisbatanshakllangan, e’tirof etilgan mashhur namunasi – «Qutadg‘u bilig»dir. Shunga ko‘ra mumtoz yozma adabiyotning bevosita shakllanish davrini Yusuf Xos Hojib Bolosog‘uniy asarining tug‘ilishidan belgilash lozim bo‘ladi. Uning taraqqiyot davri esa yangi adabiyotning boshlanishi hisoblangan «Padarkush» (Behbudiy) dramasigacha kechgan davra to‘g‘ri keladi. Chunki «Qutadg‘u bilig»dan «Padarkush»gacha yaratilgan barcha adabiy-badiiy asarlarda yuqorida tilga olingan belgi-xususiyatlar mujassam etilgan. Ular mumtoz adabiy qonuniyatlar va kategoriyalar asosida yaratilgan. Bu oraliqdagi asarlarda til birligi, yozuv birligi, adabiy shakllar (nasr va nazm) va janrlar birligi, hatto, she’riy asarlarda vazn birligi (aruz) va yagona qofiya tizimi (arab yozuvidagi harflar va harakatlar asosiga qurilgan) mavjud. Shuning uchun davrlashtirish uchun muhim omillar izlaganda, til birligi (davlat tili masalasi), yozuv birligi, e’tiqod birligi, ifoda shakllari (nasr, nazm) birligi, yozma adabiyotda (aruz – nazm, nahv – nasr) mavjud janrlar birligi, qofiya tizimi birligi, poetik vositalar birligi kabi jihatlarni alohida o‘rganish asosida davrlashtirish xususida qat’iy bir fikrga kelish mumkin.

Hudud birligi (milliy adabiyotning tarqalish geografiyasi). Milodning V – VI asrlariga kelib, turkiy xalqlar yashaydigan hudud yagona

Turk xoqonligi sifatida birlashdi. Bu hudud janubda O'rxun daryosidan (Mo'g'uliston) to shimoliy dengizlargacha, g'arbda Itil daryosi bo'yłari va Yoyiq tog'i etaklaridan tortib Uzoq Sharqdagi Saxalinga qadar cho'zilgan makon ekani e'tirof etilgan. Mana shu yagona makonning tub aholisi sifatida turkiylar tan olingen va ularning tili o'zaro muomalada tushunilishi mumkin bo'lgan, bir oilaga mansub bo'lgan turkiy til ekanligi allomalar tomonidan aytib o'tilgani (garchi uni Mahmud Qoshg'ariyga ko'ra, xoqoniy turkchasi, g'arbliklarga ko'ra chig'atoy tili, XVI asrdan keyin davlat tepasiga o'zbek qabilalarining kelishi bilan o'zbek tili deb yuritilgan bo'lsa-da) ayniyatdir. To'g'ri, tashqi urushlar, ichki nizolar, migratsiya va boshqalar ta'sirida uning chegaralari o'zgarib turishi mumkin. Lekin milodiy VIII asrdan boshlab turkiy xalqlarning ota yurti sifatida Markaziy Osiyoning e'tirof etilishi va mana shu hudud tub aholisining turkiylar ekanligi uning til birligini ham e'tirof etishga olib keladi.

Yuqorida aytilgan fikrlar asosida adabiyotshunos olim, professor Nasimxon Rahmonovning o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish variantini tavsiya etamiz:

1. Islomgacha bo'lgan turkiy adabiyot:
 - a) Buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyot
 - b) Moniylik oqimidagi turkiy adabiyot
 - c) Shomonlik oqimidagi turkiy adabiyot
2. G'aznaviyilar davri adabiyoti.
3. Qoraxoniylar davri turkiy adabiyoti.
4. Oltin O'rda davri o'zbek adabiyoti.
5. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti.

Uslubiy tavsiyalar:

Iloji boricha ma'ruza oxirida 10–15 daqiqa vaqt qoldirib, talabalarning ko'nikmalarini mustahkamlash mumkin. Talabalar belgilangan vaqt davomida «adabiyot», «adabiyotni davrlashtirish» tushunchalarining klasterini yaratishi lozim bo'ladi.

Klaster haqida ma'lumot: Klaster atamasi «g'uncha, bog'lam» degan ma'noni anglatib, talabalarning muayyan mavzu yuzasidan erkin fikrlashiga, o'z munosabatlarini ochiq-oydin ifodalashiga imkon yaratuvchi, ta'limdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri.

Klaster tuzishga qo'yiladigan talablar:

– Talabalar «Adabiyot», «davrlashtirish» tushunchalariga oid barcha bilganlarini qog'ozga yozishlari talab etiladi (saviyasini hisobga olmagan holda).

– Mavzuga oid tushunchalar va g'oyalar o'rtasida o'zaro bog'lanish bo'lishi ta'kidlanadi.

– O'tilgan mavzu yuzasidan asosiy atama va tushunchalar ajratib olinadi, ular orasidagi ketma-ketlik va o'zaro bog'liqlik sistemashtiriladi. (Qarabsizki, ko'z oldingizda «g'uncha», «bog'lam» hosil bo'ladi).

Oxirgi bosqichni barcha talabalar ishtirokida doskada bajarish ham mumkin.

Nazorat savollari:

1. *Adabiyot: og'zaki va yozma adabiyot.*
2. *Mumtoz adabiyot tarixini davrlashtirishdagi xilma-xilliklar.*
3. *Adabiyot tarixi – adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi.*
4. *Mumtoz adabiyot – Men sevgan fan.*

MUMTOZ ADABIYOTNING GENEZISI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

REJA:

- 1. Mifologiya, xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot munosabati. Tarjima adabiyoti va mumtoz adabiyot.*
- 2. Islomgacha bo‘lgan diniy oqimlar va yozma adabiyot.*
- 3. Mumtoz adabiyotning falsafiy-nazariy manbalarri.*
- 4. Diniy manbalar, irfon va falsafa, tarix va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Qur’oni karim va hadisi sharif badiiy ijodning bosh manbasi sifatida.*

Tayanch so‘z va atamalar: *paydo bo‘lish va shakllanish, omil, mifologiya, og‘zaki ijod, mumtoz adabiyot, diniy-falsafiy manbalar, didaktik adabiyot.*

Movarounnahrning jug‘rofiy jihatdan qadimiy sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgani bu o‘lkada qadimgi Hind, Eron, Iroq va Xitoy xalqlari falsafiy qarashlarining bir makonda umumiylashuvi va uyg‘unlashuviga yaxshi zamin yaratgan. Shuning natijasi bo‘lsa kerak, bu yerda islom kirib kelishidan ilgari aholi o‘rtasida mistik-ilohiyot ilmi sezilarli ta’sir kuchiga ega bo‘lgan. IX asrning ikkinchi yarmi X asrning birinchi yarmida Samarqandda yashab o‘tgan buyuk mutakallim olim Abu Mansur Moturidiy asarlarida moniyalar va zardushtiylar bilan olib borgan kalom bahslari shundan darak beradi. Demak, Movarounnahrda islom yagona va mutlaq hukmron mafkuraga aylanigan bir davrda ham aholi o‘rtasida islomgacha bo‘lgan mistik qarashlar kuchli bo‘lgan. Shubhasiz, islomda falsafa atalmish fan sohasining shakllanishida nafaqat yunon faylasuflarining asarlari ta’siri bo‘lganligi, balki mahalliy mistik-ilohiyot g‘oyalarining muayyan o‘rni borligi

haqida ham gapirish mumkin. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari ni tahlil qilar ekanmiz, badiiyatnnig murakkab qobiqlariga o‘ralgan falsafiy g‘oyalar, borliq muammosining o‘ziga xos yechimlari, Olam va Odam munosabatlari mavzusi o‘zbek xalqining tafakkur ko‘amlari butun Sharq falsafasidan oziqlanganini his etamiz.

Al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va ularning izdoshlari ilmiy faoliyati yunon falsafasini islomlashtirish va mahalliy mistik qarashlar bilan uyg‘unlashtirishda hal qiluvchi bo‘g‘in bo‘ldi. Ushbu bo‘g‘in vakillari mashshoiy (peripatetik) faylasuflar deb ataldi. G‘arba ularni yunon faylasuflaridan ajratib turish uchun «al-falsafa ahli» deb atadilar. Islom olamida «al-falsafa ahli» metafizik hodisalarни o‘rganadigan yagona oqim bo‘lib qolmadidi. Islom Yaqin Sharq, Xuronson va Movarounnahrga kirib kelgandan so‘ng ham mahalliy aholi ongida o‘z yashovchanligini saqlab qolgan mistik tafakkur uchqunlari IX – X asrlarga kelib shiddat bilan rivojlana boshladi. Iroqning Basra, Shom o‘lkasining Damashq va Halab, Xurosonda Nishapur va Balx, Movarounnahrda Termiz va Samarqand kabi qadimiy tsivilizatsiya beshiklarida mistik ta‘limot markazlari vujudga keldi.

IX – XIII asrlar badiiy adabiyot taraqqiyoti uchun ham muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrda mashhur qomusiy olimlarimizning ilmiy ijodlari, asosan, arab tilida yozilgan. Ammo, badiiy ijod uch tilda: turkiy, forsiy va arab tilida davom etdi. Arab tilida ijod qilgan adiblar haqidagi to‘liq ma’lumot Abu Mansur Saolibiy (961–1038)ning «Yatimat ad-dahr fi maqosin ahl al-asr» («Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi») asari orqali etib kelgan.

Sharqda o‘n ikki qismdan, jumladan lug‘at, sarf, nahv, maoni, bayon, aruz, qofiya, sanoe’ kabi ilmlar turkumini «ilmi adab» deb ataganlar. O‘rta asr adiblari asarlarida bu ilmlar ko‘pincha sinkretik tarzda ko‘ringan, ya’ni muallif o‘zining asarlarida ilmi adabning turli sohalari bo‘yicha mulohaza yuritgan, ularni bir-biri bilan bog‘liq tarzda tavsif qilgan va sharhlagan. Shuning natijasida she’r va shoirlik haqidagi fikrlar turli ilmlar haqida bahs yuritilganda ham bayon qilningan. Bunday tarzda mulohaza yuritishni IX–X asrda yashab ijod etgan, muallimi as-soniy-ikkinchi muallim nomi bilan shuhrat qozongan

Abu nasr Muhammad al Forobiy (873 – 950)ning «Ehs o ul-ulum», («Shoirlar san’ati qonunlari haqida risola») asarlarida; XI asrda faoliyat ko’rsatgan Abu Rayhon Beruniyning «Al-osor ul-boqiya an al-qorun ul-holiya» («O’tmish davrdan qolgan yodgorliklar») asarida, Abu Ali ibn Sinoning «Shifo» kitobida uchratish mumkin. Shuningdek «ilm adab» haqida Abulqosim Mahmud Zamahshariy, Yusuf Sakkociy, Sayid Sharif Jurjoniy kabi o’z zamonasining yetakchi allomalari asarlarida ham ajoyib tarzda bayon etilgan.

Turkiy xalqlar badiiy ijodiyoti asosida ilmi adab doirasidagi asarlar XI asrdanoq maydonga keldi. Bunga Mahmud Qoshg’ariyning «Devoni lug’otit turk» asarini misol sifatida eslatish mumkinki, unda she’riyatga doir ba’zi atamalarning sharhi keltirilgan. XI asr sharoitida Yusuf Hos Hojib shoirlarni «so’z teruvchilar» deb ta’riflaydi. Sayfi Saroyi (XIV asr) shoirlarni «so’z bulbuli» deydi. Navoiy shoirlarni «ruh chamanining hushxon bulbullari» deya ta’riflaydi. XI asrda Yusuf Hos Hojib boshlab bergen dostonchilik an’anasi keyinchalik Ahmad Yugnakiy, Sayfi Saroyi, Qutb, Haydar Xorazmiy kabi shoirlar ijodida davom ettirildi. Shu davrdan boshlab adabiyotda pand-nasihat, didaktik usul etakchilik qiladi.

Iraq va Shom mistika markazlari tasavvuf markazlari sifatida mashhur bo’ldilar. Nishapur va Balx maktablari malomatiylik markazi sifatida tanildi. Movarounnahrda mistik qarashlar tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, bu o’lkada XIII asrgacha Iraq va Nishapur so’fiylarining ta’siri sezilmaydi. Har holda hozircha qo’limizda buni tasdiqlaydigan manbalar yo’q. Balki keyingi tadqiqotlar bu masalaga oydinlik kiritar. Biroq, bu Movarounnahrda mistik maktablar bo’limgan degan fikrni anglatmaydi. Termizda yashab faoliyat ko’rsatgan olim Hakim Termiziy ilmiy merosi bu davrda Movarounnahrda mistik ilmlar taraqqiyoti ravon kechganligini ko’rsatadi. Hakim Termiziy Nishapur malomatiylari asarlarida so’fiy deb e’tirof etilmagan. Buning sababi so’fiylikning Iraq bilan bog’langanligidadir. Hakim Termiziyning islom dini, mistik-ilohiy mazmunga ega 50 dan ortiq asari fanga ma’lumdir. Uning ilmiy merosi xorijiy sharqshunoslar,

jumladan, Annimari Shimmel, Anton Heynen, Berndi Radtke, Hasan Murod kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan.


Berndi Radtke Hakim Termiziyni Balx mistika maktabining obro'li vakillaridan bo'lgan Ahmad bin Xizruya (X asr) shogirdlari-dan deb hisoblaydi. Balx maktabi malomatiylik harakatining markazi bo'lgan Nishapur maktabi bilan juda yaqin aloqalarga ega bo'lgan. Hakim Termiziyning kosmologik qarashlari o'ziga xos. Anton Heynen ularni islom kosmologiyasi sifatida taqdim etgan bo'lsa-da, bu yerda ko'proq ungacha saqlanib qolgan an'anaviy mahalliy mistik qarashlar ta'siri seziladi.

Unga ko'ra, Yaratilgan olam Arshi a'lodan tortib yetti osmon va yetti samoviy jismdan quyida joylashgan dunyo balig'i ustidagi zaminni qamrab olgandir. Olam tuzilishining ushbu modeli mash-hur «Tabariy tarixi» kitobida ham berilgan. Borliq tuzilishiga bunday yondashuvni Berndi Radtke mantiqiy-fantastik, deb ta'riflaydi. Radtke to'g'ri ko'rsatganidek, metafizika hissiy kuzatuvlarni bayon etadi, ular orasida mantiqiy munosabat o'rnatadi. Mistika esa ruh tajribasini bayon etadi, uning kechinmalariga, mushohadalariga mantiqiy javob berishga harakat qiladi. Mistik ham faylasuf-tabiiyatshunos kabi o'zi yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan muhit madaniy an'analari doirasidan chiqa olmaydi. Shuning uchun ham, Hakim Termiziy koinot tuzilishi bayonida yunon antik koinot modelidan emas, Markaziy Osiyo xalqlari mistik tafakkurida saqlanib qolgan va majozda ifodalangan baliq timsolidan foydalangan. Mistiklarning X asrda mavjud bo'lgan Samarqand maktabi haqida hozircha bir nima deyish qiyin, chunki bu mintaqadagi mistika maktablari endi o'rganilmoqda. Ammo ba'zi manbalarda Balx mistika maktabining oxirgi vakili Muhammad bal - Fazl Balxiy o'z vatanidan quvg'in qilinganda to'g'ri Samarqingga ko'chib kelgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Ushbu fakt bu yerda Balx va Termiz mistika maktablari bilan yaqin aloqada bo'lgan markaz mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi. Mavarounnahrda mistik ma'rifat masalalari tasavvuf rivoji bilan bog'liq bosqichda yanada yorqinroq ko'rinadi. Ma'lumki, Alloh borligi, borliq tuzilishi, Alloh va inson o'rtasidagi munosabatlar tizimi haqidagi bilimlar so'fizmda ikki yo'1

orqali egallanishi qayd etiladi. Birinchisi «Jazba», ikkinchisi «Suluk» deb ataladi. Jazba yo‘nalishi o‘z ixtiyorini qo‘ldan bergen oshiqlik qismati hisoblanadi. Bu yo‘lga inson o‘z istagi bilan kira olmaydi. U muayyan bir komil pir tomonidan muroqaba orqali rom etilishi yoxud to‘g‘ridan-to‘g‘ri Alloh jazbasiga nishon bo‘lishi mumkin. Keyingi holatni boshdan kechirganga majzub, deyiladi. Bunday odamlar bir sabab tufayli Alloh ishqiga mutbal bo‘ladilar va butun inon-ixtiyorlarini qo‘ldan beradilar. Majzublar atrofdagilarga butunlay beparvo, dunyo ishlariga befarq bo‘lib qoladilar. Ular Allohnini ko‘rish va u bilan birga bo‘lish istagida ilohiy haqiqatni anglashga, o‘z ma‘rifatini os-hirishga jiddiy harakat qila boshlaydi. Ular kamolot kasb etish yo‘li-da bir pirga bog‘lanib qolmaydilar. Ular turli mashhur pirlarga murid tushib, ularning bor ilmlarini egallashga harakat qiladilar, so‘ng yana-da kuchliroq pirlar tomon oshiqadilar. Kamolot maqomlarining ba‘zi pillapoyalarida ularga ustoz pirlarning hojati qolmaydi. Majzublar o‘z holatlarining dastlabki bosqichlarida qattiq ibodat va meditatsiya bilan mashg‘ul bo‘ladilar, so‘ng ularning holati og‘irlashgan sari ibodat va shariatni tark etadilar. Tasavvuf tarixida Mansur Halloj kabi siymolar jazba yo‘nalishida mashhur bo‘lgan buyuk shaxslar hisoblanadilar. Movarounnahrda yashab o‘tgan majzublarning eng mashhuri Boborahim Mashrabdir (XVII asr). Bu yo‘nalish nazariyasi mashhur so‘fiy Boyazid Bistomiy nomi bilan bog‘liq. U yunon falsafasidagi «ishq» hamda «vahdat» tushunchalarini mistik platformada sharhlab, «sukr» (mastlik) konsepsiyasini ishlab chiqqan ilk mutafakkirdir. Tasavvufda «tavhid harakatini Boyazid ekkan», degan gap shundan qolgan. Unga ko‘ra, so‘fiy o‘z takomilida shunday darajaga erishadiki, mistik ekstaz holatida ruhan afsonaviy g‘ayb olamiga sayohat qilishi mumkin. O‘sanda u o‘zining ilohiy mohiyatini ko‘radi va Alloh vujudiga daxldor ekanligini biladi. Butun borliq Alloh vujudida mavjudligini kuzatadi. Ushbu voqelik tasavvufda «haqiqat», deb ataladi. Shunda inson haqiqatni anglashdan olgan zavq va shavqdan chunonam mast bo‘ladiki, transdan chiqqandan keyin ham o‘zining moddiy olamdagি vazifalariga qayta olmaydi. U jisman moddiy olamda yursa ham, fikran g‘ayb olamida sayr qiladi. Allohga talpinib yashaydi. Vahdat kon-

septsiyasi XII asrda ispaniyalik mutafakkir so‘fiy Ibn Arabiy tomonidan «Fusus al-hikam» asarida tugal ta’limot darajasiga yetkazildi. Bu ilohiy tajalliyot nazariyasidir. Alloh tajalliyotda o‘zini ko‘rsatadi. Inson sezgilari «ilohiy nur» bo‘lgan ilohiy tajalliyotni his etishi mumkin. Ilohiy mohiyat, Alloh inson qalbida yashirin. Insonning johilligi shundaki, u Alloh o‘z qalbidaligini unutib qo‘ydi. Shariat qonun-qoidalariga zohiran rioya qilish bilan, islom farzlarini bajarish bilan Alloh ma’rifatiga erishib bo‘lmaydi. E’tiqod qalbda bo‘lishi lozim. Qalb bir vaqtning o‘zida ham ilohiy bilimlar xazinasi, ham mistik bilish organi hisoblanadi. Qalb xuddi ko‘zgu kabi ilohiy nurni aks ettiradi, unda Alloh qiyofasini ko‘rish uchun yaxshilab tozalash kerak. Allohga bo‘lgan ishq va ezzulik inson qalbining musaffoligini ta’minlaydi.

Suluk – bu muayyan pir rahnamoligida qat’iy intizomga asoslangan tarbiya yo‘lidir. Unda mistik bilish, riyozat chekish, nafsni o‘ldirish, tun-kun bedorlikda ibodat bilan mashg‘ul bo‘lish, faqat zikr va murokaba natijasida yuzaga chiqariladi. Solih pir tarbiyasiga kirar ekan, mashoyixlar qayd etganidek, o‘zini «g‘assol qo‘lidagi murda» singari tasavvur qilishi va pir o‘gitlarini so‘zsiz bajarishi lozim bo‘ladi. Bu yo‘nalishga Junayd Bag‘dodiy (X asr) qarashlari asos bo‘lgan. Uning intilishlari mistik bilimga erishish jarayonini nazoratga olish, bu harakatlarni shariat qobig‘idan chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan. Uning ta’limoti saxv ta’limoti, deb ham ataladi. U turli ruhoniy-psixologik mashqlar va meditatsiyani pir-ustoz boshchiligidagi o‘tkazilishini qat’iy qoidaga aylantirdi. Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, inson ruhiy hol-maqomlardan yuksalib, Alloh ma’rifatiga erishgan paytda o‘zligini unutib yubormasligi, balki hushyorlikni qo‘ldan bermasdan, yana o‘zining holatiga qaytmog‘i lozim. Aks holda, u ko‘rgan g‘ayb haqiqati ma’nosiga yaxshi tushunmaydigan avom xalq unga erishib shariat qonun-qoidalarini tan olmay qo‘yishi mumkin. Junayd Bag‘dodiy Alloh ma’rifatiga da’vogarlar oddiy hayot kechirishi, uylanmaslik, faqirlik, siyosatga bee’tibor bo‘lish, barcha qiyinchiliklarga sabr va sukut bilan javob qaytarish orqali nafsni yengishni targ‘ib etadi. Bu ikki yo‘nalish X asrgacha bir-biri bilan raqobatda bo‘lgan. Ammo tariqatlar shakllanib bo‘lgachchi keyingi



asrlarda kelishmovchilikka asos bo‘ladigan tamoyillar qayta ko‘rib chiqilib, tasavvuf ta’limoti asoschilarining nomlarini kamsitish tabu qilingan. Jumladan, Xoja Baxruddin Naqshband Boyazid Bistomiy ta’limotini qoralamagan, jazba suluk orqali tarbiya etilishi lozim deb hisoblagan. Movarounnahr tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, XV asrdan e’tiboran mintaqada har ikki yo‘nalish muntazam rivojlanib borganligini ko‘ramiz. Shuni alohida eslatib o‘tish lozimki, bugungi kungacha tasavvuf irdoni va tariqatga doir ko‘plab manoqib adabiyotlarida aks etgan so‘fiylar va shariat ahli o‘rtasidagi raqobat va muholifat syujettlari ko‘pchilik o‘quvchilarda tushunmovchilik uyg‘otishi tabiiy. Tadqiqotlarda mavhum berilgan va bizning tasavvurimizda noaniqlik kasb etgan so‘fiylar bilan shariat ahli o‘rtasidagi ixtilof muayyan tarixiy bosqichlarga xosdir hamda ilohiyotga oid qarashlardagi farqlardan kelib chiqqan. Movarounnahrdagi diniy-mistik qarashlar taraqqiyotida bir necha bosqichlar bo‘lgan. Masalan, keyinchalik shariat ulamolari ulug‘lagan kalom ilmi X asrgacha shariat tomonidan bid’at ta’limot sifatida qoralangan edi. Peripatetik deb atalmish yunonlashgan falsafaning kuchayishi shariat ahlining kalom bilan qurollanishiga olib keldi va shu tariqa kalom shariat ilmlaridan biriga aylandi. O‘z davrining yirik mutakallim olimi Imom Razzoliyning hamlalaridan so‘ng peripatetik falsafa taraqqiyoti tanazzulga yuz tutdi. Biroq, falsafa yo‘qolib ketmadi. Faylasuflarning qarashlarida ustuvor bo‘lgan mistik-metafizik qarashlar XIII asrdan e’tiboran so‘fiylar orasida tobora ommalashib borayotgan Ibn al-Arabiyning (1165 – 1240) «Vahdat ul-vujud» (Yagona Borliq) mistik-ilohiy ta’limoti mag‘ziga singdi. Tobora chuqurlashib borayotgan va keng qatlamlarga ta’siri kundan-kunga ziyoda bo‘layotgan ushbu ta’limot shu davrgacha umumiy qarashlar, harakatlar va an’analar asosida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan so‘fiylar dunyosini alg‘ov-dalg‘ov qilib tashlash bilan birga ularni ikki lagerga bo‘lib tashladi. Tasavvuf nazariyasi bir-biriga jiddiy muholif bo‘lgan ikki yo‘nalishda rivojlnana boshladi. Biri falsafani omuxtalashirgan bo‘lsa, ikkinchisi kalomni. Birini «Vahdat ul-vujud», ikkinchisini «Vahdat ul-shuhud» deb nomladilar. Birinchisi «Ishq» orqali kamolotga erishish va Alloh ma’rifatini kashf orqali an-

glash yo‘llarini, ikkinchisi shariatga rioya qilish, pir-ustozning qat’iy nazorati ostida islam ahkomlaridan og‘ishmay, Allohni tanish va bilish yo‘lidan borishni targ‘ib etdi. Vahdati shuhud so‘fiylari bir taraf, «Vahdat ul-vujud» tarafдорлари ikkinchi taraf, o‘zaro raqobatda bo‘ldilar. Chunonchi, Aloud davla as-Simmoniy (1261–1336) Ibn al-Arabiyya limotini xalqni adashtiruvchi va o‘ta zararli deb e‘lon qildi. Unga binoan, Olam Haqning tajalliyasi emas, balki in’ikosidir. Ma’rifat faqat shariatga muvofiq harakat qilingandagina hosil bo‘lishi mumkin. Inson ilohiy mohiyatni o‘qib-o‘rganish orqali emas, balki ruhoniy mashqlar, muroqaba va mujoqada, riyozat vositasida takomillashib, ruhoniy maqomlardan ko‘tarilish natijasida anglashi lozimdir. Shunisi yanada ahamiyatlici, nazariy farqlar tasavvuf tariqatlari orasida ham mafkuraviy murosasizlikni vujudga keltirdi. «Vujudiylar» g‘oyalarini maslak qilgan tariqatlar paydo bo‘ldi. «Shuhudiylar» ichida bir-biri bilan yuzko‘rmas bo‘lgan tariqatlar paydo bo‘ldi. Ularning bir-birlari ga munosabatlari manoqib adabiyotlarida to‘la aks etgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida XV asrgacha Ibn al-Arabiyning ta’limoti keng tarqalganini tasdiqlovchi ma’lumotlar hozircha yo‘q. Zotan, mintaqada shakllangan yassaviya va xojagon tariqatlari harakatida mistiklarning g‘ayb olami sir-sinoatlarini erkin sharhlash tendensiyasini jilovlashga qaratilgan ortodoksal islomiy qarashlarining ustuvorligi, ularning mintaqqa mafkuraviy makonida tobora kuchayib borayotgan ta’siri «Vahdat ul-vujud» ta’limotining targ‘ibotiga yo‘l bermagan bo‘lishi mumkin. Tariqatlarning Olam tuzilishi, Allah yaratilmalari va haqiqatni anglash (ma’rifat) yo‘li haqida o‘z ta’limoti bor edi. Xususan, XIV asrda Xoja Bahouddin Muhammad Naqshband ma’rifatga Muhammad Payg‘ambar sunnatlariga qat’iy rioya qilish, halol mehnat va qattiq ibodat orqali erishishga da‘vat etdi. U Xojagon tariqatidagi mistik ma’rifatga erishish garovi bo‘lgan meditatsiyaning to‘rt mashhur tamoyilini o‘n bittaga yetkazdi. So‘fiylarga uylanish va tirikchilik maqsadida dehqonchilik, hunarmandchilik kabi halol kasblar bilan shug‘ullanishga ruxsat berdi. Xoja Bahouddin Naqshband Movarounnahrda mafkuraviy yetakchilikka erishish maqsadida yassaviya silsilasini naqshbandiya bilan birlashtirishga uringani ayrim

manoqiblardagi ma'lumotlardan seziladi. Uning diniy xurfikrlilikka asoslangan jazba yo'nalishini inkor etmaganligi ham barcha so'fiylarni naqshbandiya tariqati nomi bilan bog'lashdan manfaatdorligidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Buni Xoja Bahouddinning o'z xalifasi, iqtidorli olim Xoja Muhammad Porso suluk va jazba yo'llarida ta'lim bergani haqidagi e'tirofi tasdiqlaydi. Bu davrlarda naqshbandiyalar o'zlarining fundamental g'oyalariga asos bo'Igan Junayd Bag'dodiy qarashlariga bir muncha o'zgartirish kiritdilar. Vujudiylarning ta'limoti Xoja Porso tomonidan naqshbandiya g'oyalariga uyg'unlashtirildi. Xoja Axror (XV asr) tomonidan so'fiylarning siyosatga aralashuvi va xayriya maqsadlarida mol-mulk yig'ishi qonuniylashtirildi. Keyinchalik Mahdumi A'zam Ahmad Kosoniy (XVI asr) so'fiy hukmdorlar g'oyasini ilgari surdi. Amir Temur va uning merosxo'rлari diniy mutaassiblikdan yiroq shaxslar bo'lib, ilohiyot ilmlariga katta qiziqish bilan qaraganliklari tufayli XV asrdan boshlab ilohiy ishq, Alloh va Olam, Inson va Koinot munosabati haqidagi ta'limotlar Movarounnahr va Xuroson o'lkalariga shiddat bilan kirib kela boshladи. Bu avvalo, she'riyat maydonida yuz berdi. Ziyolilar toifasi she'riy satrlar haqida pinhon bo'Igan falsafiy mulohazalar, g'ayb olami sir-sinoatlari talqinida o'zaro musobaqaga tushib ketdilar. Natijada, she'riyat «Vahdat ul-vujud» ta'limotini targ'ib etish vositasiga aylanib qoldi. Mavlaviyalar va xurufiyalar g'oyalarining ziyolilar o'rtasida tarqalishi shu davrlarda ilk marta ko'zga tashlandi. Hatto ayrim temuriy hukmdorlar ham ularga hayrixohlik bilan qaraganlar.

Xoja Porso ham o'z navbatida, Movarounnahrdagi so'fiy qarashlarini aks ettirgan bir necha ilmiy asarlar yozdi. Jumladan, uning «Fasl ul-xitob» asari Movarounnahr so'fizmining temuriylar sulolasi davridagi yetakchi g'oyalarini o'zida aks ettirgan nodir manbadir. Ayni shu asar XVI asrdan boshlab, Jaloliddin Rumiy qarashlarining naqshbandiya tariqati yig'inlarida o'rganilishiga imkon berdi. Temuriylardan keyingi davrlarda Movarounnahrda adabiyotning g'oyaviy yo'nalishlari uch asosiy manbara suyanganligini ko'rish mumkin. Bular diniy-aqidaviy masalalarni o'z ichiga olgan kalom ilmi, tariqat

odobi va tamoyillarini belgilab beruvchi so‘fiy adabiyotlari va nihoyat, Vahdat nazariyasini ochib beruvchi ishqiy-falsafiy adabiyotlardir.

XVI–XIX asrlar O‘zbekiston hududidagi adabiy doiralarda Abdul-qodir Bedil she’riyatining sevib o‘qilishi «Vahdat ul-vujud» ta’limotining shahar joylarida keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Naqshbandiya tariqati ta’siri ostida bo‘lgan qishloq hududlarida esa, «masnaviyi ma’naviy»ning naqshbandiyona talqini va tafsirini hisobga olmagan-da, kalom g‘oyalari adabiyot yo‘nalishini belgilab kelgan.

Uslubiy tavsiyalar:

1. O‘qituvchi savol va topshiriq beradi: o‘quvchilar oldin o‘zlarini o‘ylab chiqadilar, so‘ng qisqa javoblar yozadilar.
2. O‘quvchilar juftliklarga bo‘linib, bir - biri bilan fikr almashadilar va har ikkala javobni umumlashtiradilar.
3. O‘qituvchi har qaysi juftliklarga o‘z javoblarini ifodalab berishni taklif qiladi, ularning javoblarini izohlaydi.

Nazorat savollari:

1. *O‘zbek mumtoz adabiyotining shakllanish manbalarini ayting?*
2. *Qur‘on g‘oyalaring badiiy ijodga ta’siri qanday bo‘lgan?*
3. *Hadisi sharifda bayon etilgan fikrlar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?*
4. *Payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan kitoblardan qaysilarni bilasiz?*
5. *Mumtoz adabiyotning falsafasiy sarchashmalari nimalarda ko‘rinadi?*
6. *Mumtoz adabiyotda irfoniy ishq falsafasi deganda nimani tushunasiz?*
7. *Arab va Turkiy adabiyotning sintezi nimalarda ko‘rinadi?*
8. *Islom-turk adabiyotining namoyondalari kimlar?*
9. *IX–X asrlarda ilm-fan rivojlanishining ob‘ektiv sabablari nimada?*

MUMTOZ SHE'R. MUMTOZ ADABIYOTDAGI AN'ANAVIY MAVZU VA OBRAZLAR

REJA:

- 1. Mumtoz she'rning mumtoz nasrdan farqli jihatlari.*
- 2. O'zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari. Lirik tur. Lirik turga mansub janrlar.*
- 3. Devon, bayoz va tazkiralar – mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manbalar. Devon, bayoz tuzish va tazkirachilik tarixidan.*
- 4. O'zbek mumtoz adabiyotida obrazlar sistemasi. An'anaviy obrazlar genezisi va tadrijiy takomili.*

Tayanch so'z va atamalar: *mumtoz she'r, adabiy tur, lirik va epik tur, janrlar, devon, bayoz, tazkirachilik.*

Adabiyotshunoslik ilmiga oid teran qarashlar Forobiyning «She'r san'ati...» kitobida mufassal bayon qilingan. Unda she'riy asarning yaralish tabiatи, ijodkor shaxsi va mahorat muammolari, so'z qadri xususida fikr yuritiladi. XI asrda yashagan adabiyotshunos olim Abdulqodir Jurjoniyning «Asror ul-balogs'a fi-ilmi bayon» (Bayon ilmida balog'sat sirlari) asarida so'z san'atidagi shakl va mazmun masalasiga alohida urg'u berilsa, XIII asrda yashagan qomusiy olim Qays Roziyning «Kitob ul-mo'jam fi-maoyiri ash'or il-ajam» (Ajam she'riyati me'yorlari qomusi) kitobida nazariy masalalar — aruz tizimi, poetik san'atlar, she'riy janrlar tahlil etilgan. Kaykovusning «Qobusnomma»sida esa, she'r jamiyatning turli qatlamlari estetik talablaridan kelib chiqib yaratilishi, badiiy asar, albatta, ta'sirchan bo'lishi lozimligi haqidagi mulohazalar o'rinn olgan.

Adabiyot tarixi yo'nalishida muayyan xalq (xalqlar, mintaqqa, jahon) badiiy adabiyotining tarixiy taraqqiyoti hamda yozuv-

chi-shoirlarning hayot va ijod yo‘li chuqur o‘rganiladi. Jumladan, o‘zbek milliy adabiyoti bosib o‘tgan uzoq tarixiy yo‘l, zamon, siyosat va adabiy jarayon munosabatlарining o‘ziga xosliklari, u yoxud bu ijodkorning ushbu jarayonga ko‘rsatgan ta’siri yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Tarixida shoir va adabiyotshunos Nizomiy Aruziy ibn Umar Samarqandiy, adabiyotshunos olim Atoulloh Husayniy, Zamaxshariy, Xondamir, Vosify asarlari muhim ahamiyatga egadir. O‘zbek adabiyotshunosligening takomili Navoiy ijodiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek tilidagi tazkira janriga asos solgan «Majolis un-nafois» (Go‘zal majlislar) ilk o‘zbek adabiy qomusi hisoblanadi. Ushbu asarda Navoiy deyarli yarim asr mobaynidagi o‘ziga zamondosh bo‘lgan 469 shoir, olim, bastakor, xattot, she’riyat homiylari haqida ma’lumot beradi, badiiy mahorat, san’atkorning ijtimoiy burchi, poetik janr masalalarini yoritadi. Navoiyning «Holoti Pahlavon Muhammad», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», Jomiya bag‘ishlangan «Xamsat ul-mutahayyirin» (Besh hayrat) singari asarlari adabiy portretning dastlabki namunalaridir. Uning «Mezon ul-avzon» (Vaznlar o‘lchovi) asarlarda aruzning nazariy, amaliy masalalari tadqiq etilgan. Husayn Boyqaro esa, o‘z navbatida, Navoiyning betakror mahorati, u yaratgan adabiy muhit, davr adabiy jarayoni haqida ma’lumot beruvchi risola yaratgan. Zahiriddin Muhammad Bobur «Muxtasar» kitobi bilan Navoiydan so‘ng aruz ilmi tadqiqini yangi bosqichga ko‘tardi. Bu kitobda aruzning 20 dan ortiq bahri, 530 dan ortiq vazni haqida ma’lumot beriladi. O‘zbek adabiyotshunosligening keyinagi davrlardagi yo‘nalishini, asosan, tazkiralar belgilaydi. Jumladan, Fazliy rahbarligida she’riy shaklda yaratilgan «Majmuai shoiron» (Shoirlar guruhi) tazkirasi Qo‘qon xoni saroyiga to‘plangan ijodkorlar haqida nisbatan to‘liq ma’lumot beradi. Ahmad Tabibiyning she’riy shakldagi «Majmuat ash-shuaroi Feruzshohiy» (Shoh Feruz shoirlari guruhi) hamda «Muhammasoti majmuat ush-shuaroi Feruzshohiy» (Shoh Feruzshoirlari guruhining muxammaslari) tazkiralarida ijodkorlarning asarlari janrlarga bo‘lib o‘rganiladi (XX asr boshi). Birinchisida g‘azallar, ikkinchisida muxammas va musaddaslar tahlil etiladi. Matbuot va noshirlik ishlaring rivoji XIX asr oxiri – XX

asr boshlarida o‘zbek tanqidchiligi, adabiyotshunosligi uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Ayniqsa, adabiy tanqidda uyg‘onish ro‘y berdi – harakatdagi adabiy jarayonni, yozuvchi ijodini, adabiy muammolarni davrning ma’naviy va estetik talablari, ommaning ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqib o‘rganish, adabiyot taraqqiyotidagi, ijodkor mahoratidagi yangiliklarni kashf etish, kamchiliklarni baholi qudrat ko‘rsatish boshlandi. Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhamedov, Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Vadud Mahmudlarning maqolalarida so‘z san’ati oldida turgan muhim ijtimoiy vazifalarga urg‘u berildi, adabiyot rivojini millat, Vatan, is-tiqbol, mustaqil yurt uchun kurashuvchi yangi insonni tarbiyalash masalalari bilan bog‘lashga harakat qilindi. Cho‘lponning «Adabiyot nadur?» (1914) maqolasida o‘rtaga tashlangan «Adabiyot yashasa – millat yashar» degan g‘oya milliy uyg‘onish uchun ham da’vat bo‘ldi. 20-yillar o‘rtalarigacha adabiyotshunoslik, asosan, adabiy tanqid doirasida faoliyat ko‘rsatdi. Shu paytlardan e’tiboran sho‘ro hukumati uni o‘z yo‘rig‘iga sola boshladи. Ijod mahsulini baholashda mafkura, o‘tkinchi siyosat bosh mezonga aylandi. Adabiyotda bir yoqlama (markscha) dunyoqarash bilan qurollanish, voqelik va uning badiiy in‘ikosi bo‘lmish san’atga faqat sinfiy kurash, sho‘rolar mafkurasi nuqtai nazaridan turib yondashish talab qilindi. Bularga qo‘srimcha, mumtoz adabiy merosdan voz kechish tamoyili hukm surdi. Yassaviy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Hofiz, Rumiy, Huvaydo singari shoirlar yaratgan ma’naviy mulk o‘quvchiga keraksiz, hatto, ziyonli deb e’lon qilindi. Abdurauf Fitrat, Otajon Hoshim kabi adabiyotshunoslар bunday qarashlarga qarshi chiqib, madaniy merosni himoya qilishga urindilar. Shu yillari, muayyan kamchiliklardan holi bo‘lmasada, dastlabki nazariy qo’llanma – adabiyotshunos Abdurahmon Sa’diyning «Amaliy, ham nazariy adabiyot darslari» (1924) yaratildi. Fitratning «Adabiyot qoidalari» (1926) darsligida esa o‘z davri Sharq va G‘arb adabiyoti nazariyasi muammolari yoritildi. Shu muallifning «O‘zbek adabiyoti namunalari» kitobida O‘rxun-Enasoy bitiklari, «Alpomish», «Kitobi Dada Qo‘rquq», «Devonu lug‘otit turk»dan parchalar berildi, Yassaviy, Boqirg‘oniy, Lutfiy, Atoiy, Navoiy, Bobur asarlaridan misol-

lar keltirildi. 20-yillar oxiri – 30-yillar boshlarida sho‘ro adabiy siyosatida partiyaviy tazyiq ostida sinfiy dushman axtarish ruhi kuchaydi, ijod erkinligi bo‘g‘ildi, vulgar sotsiologizm ko‘rinishlari avj oldi. Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari zararli asar sifatida, muallifning o‘zi esa burjua adibi deb qoralandi. 30-yillar o‘rtasidan markaz Yozuvchilar uyushmasi qurultoyining qarori bilan rasmiy kuchga kirgan sotsialistik realizm metodi haqidagi aqidaning keng joriy etilishi oqibatida o‘zbek adabiyotshunosligida partiyaviylik, sinfiylik, g‘oyaviylik, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik, degan tushunchalar chuqur singib bordi. Mumtoz adabiyotga munosabatda uni saroy adabiyoti, diniy adabiyot, reaksiyon yoxud progressiv, deya bir xalq adabiyotini ikkiga ajratib talqin etish, ijodkorlar va ularning merosini sinfiy qarshilantirish tamoyili ursiga kirdi. O‘ziga xos yondashuv va tahvilni talab etadigan Yassaviy, Boqirg‘oni, Boyqaro, Mashrab, Huvaydo, Amiri, Feruz (Muhammad Rahimxon) kabi shoirlar merosi batamom qoralandi, ular ijodini o‘rganish deyarli man qilindi. Sho‘ro masfurasingning zug‘umi, tanqid va adabiyotshunoslikning jiddiy xatolari tufayli Abdulla Qodiri, Cho‘lon, Fitrat, So‘fizoda, Elbek, Botu, Usmon Nosir singari shoir va yozuvchilar, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud kabi adabiyotshunoslardan jisman yoxud ma’nana mahv etildilar. O‘sha yillardagi nisbatan ijobiy faktlar sifatida So‘fizoda, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon haqida adabiy portretlar yozilganini, Izzat Sultonning «Adabiyot nazariysi» darsligi va boshqa monografiyalar nashr etilganini qayd etish mumkin. Biroq 40-yillar oxiri – 50-yillar boshlarida adabiyotshunoslik fani kosmopolitizmga qarshi kurash, yagona oqim, konfliksizlik nazariyasi deb nomlangan xato yo‘llarni bosib o‘tishiga ham to‘g‘ri keldi. Ayni shu yillari Oybek, Maqsud Shayxzoda va b. mualliflarning tarixiy yo‘nalishdagi asalari yaratildi.

Tasavvufning Sharqda keng tarqalishiga bois, uning arab, fors va turkiy tillarda buyuk bir she’riyatni vujudga keltirganidir. VIII – XI asrlarda Robia Adaviya, Mansur Halloj singari ulug‘ so‘fiylar ijodi bilan boshlangan so‘fiyona ash‘or X–XII asrlarga kelib, ulkan bir adabiyotga aylandi, o‘ziga xos obrazlar, timsollar olami, alohida ramzlar,

uslub va usullar shakllandi. Tasavvufning pok ilohiy ishq haqidagi, haq va haqiqat, najib insoniy hislatlar, kamolot kasb etish haqidagi g‘oyalari she’riyat g‘oyalariiga aylandi, shoirlar qizg‘in bir ruh, ko‘ngil amri bilan irfoniy g‘oyalarni kuyladilar, hisobsiz lirik she’rlar, jahonga mashhur dostonlar, qissalar yaratildi. Tasavvufning behudlik va ishq konsepsiyasi, soflik, adəlat va haqiqat timsoli – mutloq ilohga muhabbat zavqi ijod ahliga qattiq ta’sir etdi, insoniyat g‘ami bilan qalbi dardga to‘lgan isyonkor ruhdagi shoirlarni bir ohangraboday o‘ziga tortib, o‘rtanishli, his-hayajonga serob ajoyib she’riyatni vujudga keltirdi. Bu she’riyatning markaziy qahramoni – rindi bebok, Mansur Halloj e’tiqodiga imon keltirgan, o‘zini barkamollik cho‘q-qisida ko‘rgan, ruhan ozod kishi edi. Uning zavqi, iztirob-kechinmalar, xayoliy romantik olamga intilishi maxsus ifodalar va ko‘p ma’no-li ramziy iboralar bilan tasvirlanadigan bo‘ldi. Xo‘s, ramz o‘zi nima? Ramz (arabcha so‘z bo‘lib, imo, ishora, imlash degan ma’noni anglatadi) – simvol; ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Ramzning ma’nosini kontekst doirasida va shartdan xabar-dorlik bo‘lganda reallashadi. O‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyondasi hisoblangan Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» va «Lison ut-tayr» asarlari so‘fiyona-falsafiy ma’nolar she’riy satrlar, badiiy ifodali til bilan talqin etilishdan tashqari, yana juda ko‘p masal va hikoyatlar, ramziy tashbehtar keltirilib, kitobxonga sharhlab berilgan. «Mantiq ut-tayr» va «Lison ut-tayr» kabi dostonlarda ishtirok etuvchi personajlar ham ramziy: Hudhud – pir timsoli bo‘lsa, o‘ttiz qush solik muridlar timsolidir. Attor va Navoiy tasvirlagan yetti vodiy esa solik ruhining yetti xil tovlanuvchi manzarasi – Ilohga vosil bo‘lish bosqichlari, ma’rifat zinalarini bildirib keladi. Dostondagi Shayx San’on qissasi va o‘nlab hikoyalardan chiqadigan xulosa ham bit-ta: olam – borliq Allohnинг zuhuridan iboratdir. Qushlar (odamlar) Simurg‘ni izlab (ya’ni Xudoga yetishish uchun) yo‘lga chiqadilar. Xudoni izlashga umr sarflaydigan darveshlar yetti riyoza bosqichidan

(Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano) o'tadilar va ruhga aylangach, Xudo bilan qovishadilar. Go'yo Olloh – quyoshdir, olamdag'i barcha narsalar va odamlar – uning nur zarralaridirlar. Tug'ilish – zarraning quyoshdan uzilib, nurga aylanib ketishi; o'lim esa – zarraning asliga qaytib quyosh bag'riga yetishidir.

Shoirlar adabiyotning ramzlar ifodasi uchun qulayligidan foydalanib, o'z asarlarida uch xil ishq haqida ham so'z yurita beradilar. Lirik qahramon xudo ishqida yonyaptimi, majoziy muhabbatga giriftormi yoki pok muhabbatda o'rtanmoqdami o'quvchi ana shularni o'zi farq eta olmog'i kerak. Boy, rang – barang mumtoz she'riyatimizning asl tarovat – u purma'nolarini to'g'ri idrok qilmoq uchun tasavvuf ta'limotidan xabardorlik, tasavvuf istilohlarini ya'ni ma'shuqa, ishq, may, sharob, boda, soqiy, piri mayxona, piri ishq, jom, qadah, lab, bo'sa, vasl ahli, darvesh, butxona, xarobat, mayxona, kofir, ko'ngil, lomakon, tajalli, nafs, dunyo, jonon, vahdat mayidan mast bo'lish, oshiq, aysh – ishrat, xarobat ahli, faqirlik, gulzor kabi ramz va timsollarni biliш zarur. Sharq xalqlari tafakkuri tarixida chuqur ildiz otgan tasavvuf ta'limotini yaxshi bilmay turib, tasavvuf adiblarining dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranligi bilan to'liq holda, haqqoni yoritib berish mushkul. Ularning ijodiy merosi – yaxlit bir adabiy voqelik, bebaho ma'naviy xazina. Shunday ekan, shoир asarlarida uchraydigan ishq, may, mayxona, xarobot, soqiy, sog'ar, qadah, xum, mahbub singari ko'pdan-ko'p kinoya – timsollar, ramziy ma'noli so'zlar va ular orqasida yotgan yashirin ma'nolar asrori ham shoир ijodi yaxlit bir butunlikda olib tekshirilib, olam va odam haqidagi mushohada ichida sharhlansagina, mazmuni kerakli darajada aniq oydinlashishi mumkin. Tasavvuf adabiyotining ulug'verligi shundaki, unda zohiriy va botiniy ma'nolar, ya'ni ishq haqiqiy va ishq majoziy tasvirlar bir-biriga halaqit bermaydi, balki bir-birini to'ldirib, quvvatlab turadi. Boshqacha aytganda, ishq haqiqiy tasviridan ishq majoziy tasviriga yoki aksinchalik holatga oson o'tiladi, kitobxon goh u ma'nodan, goh bu ma'nodan, goh har ikkisidan zavqlana oladi.

Tasavvuf she'riyatida tadbiq etilgan ifoda vositalari – tashbih, istiora, ramz va ta'birlar she'rning g'oyaviy – badiiy tarkibini ochishga

xizmat qiladigan yoki yordam beradigan «belgi» – «ko‘rsatgich» vazi-fasini bajaradi. Shunga ko‘ra, ular asl ma’nosida she’rxonga deyarli yangilik bermaydi. Buning bir sababi, tasavvufiy she’rlarda yangilik, zohiriymas, botiniy ekanligi bilan izohlansa, ikkinchi sababi, ularda majozning hal qiluvchi vazifani bajarishidir. Majozning mohiyatini to‘g‘ri ochish va aniq tushuntirish oson ish emas. Majoz – ko‘rinmay-digan narsalarni ko‘rsata bilish, belgi va timsolkar vositasida mavhum yohud sirli tuyilgan haqiqatlarni suvratlantirish san’ati. Shuning uchun ham I.Kant majozni «Yaratuvchi xayol kuchi « ning mahsuli deb ta’riflagan.

Majoziy obrazlar ustunlik qilgan she’rlarda, hatto shoirning o‘zi ko‘zlagan yoki o‘ylaganidan ham ancha ko‘p va keng mazmun aksini topadi. Bu xususiyat, ayniqsa, tasavvufiy she’rlar uchun juda xarak-terli. Ammo mo‘jizalar mo‘jizasi – badiiy so‘z lazzatini tuyib, ruhiy halovat olish uchun uni chuqur idrok etmoq, asar ma’nolarining butun nozik jihatlarini qat-qatigacha tushunib yetmoq lozim. Ayniqsa, so‘z san’atini g‘oyat baland qadrlagan va til, uslub tomonidan biz-dan ancha uzoqlashib qolgan klassik shoirlarimizning majoz va is-tioralari, o‘ziga xos yo‘sinda pardalangan ma’nolarga boy asarlarini tushunish, o‘qib-uqish xiyla qiyinchiliklar tug‘dirayotganligi sir emas. Olimlarning tadqiqotlari, «Xamsa» dostonlarining nasriy bayonlari, alohida nashrlar uchun tuzilgan izohlar, «Alisher Navoiy asarları tili-ning izohli lug‘ati» mushkulimizni bir qadar osonlashtirgan bo‘lsa ham, tasavvuf she’riyatining «ma’nolar xazinasini»ni kashf etish, uning bemisl san’ati sirlarini ohib, she’riyat ixlosmandlarini undan bahramand qilish ehtiyoji batamom qondirilgan emas. Shuning uchun ham tasavvufiy she’rlarning ma’nosini anglashda turli xil g‘alizliklar kelib chiqmoqda. Ahmad Yassaviy bir misrasida: Tufroq bo‘lg‘il, olam seni bosib o‘tsin, – deydi. Bu satr Yassaviy mafkurasini keskin tah-qirlash va muallifiga ko‘p malomatlar yog‘dirilishiga sabab bo‘lgan. Yuzaki qaralganda, yassaviyshunoslarning tanqid va ta’nalariga asos borga o‘xshaydi. Darhaqiqat, inson nega «Tufroq» bo‘lmog‘i, bu ham yetmaganidek, «olam»ning oyog‘i ostida nega bosilib yotishi kerak?

Hozirgi zamon o‘quvchisi, xususan, tasavvuf haqiqatlaridan bexabar she’rxonda shunday e’tiroz tug‘ilishi tabiiy. Negaki, u «tufroq» so‘zini o‘z mazmunida yoki o‘lib yerga qorishish ma’nosida qabul qiladi.

«Avesto»da yer – tuproqni qizni sevganday sevish kerakligi naql qilinadi. Ahmad Yassaviyning «Tuproq bo‘lg‘il» degan da’vatida ham ishq bor. Lekin u tasavvufiy bir haqiqatni bag‘riga olgan ilohiy ishqdir. Bu yerdagi «Tuproq» so‘zi Odam Atoning yaratilishiga ham ishora qilmoqda. Tuproq obrazining tasavvuf adabiyotidan o‘rin topishiga, hech shubhasiz, mana shunday (ya’ni odamning tuproqdan yaratilishi) haqiqatlarning u yoki bu darajada roli bo‘lgandir.

Uslubiy tavsiyalar:

Klaster (Klaster-tutam, bog‘lam) – axborot xaritasini tuzish yo‘libarsha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. *Mumtoz she’r shakllariga nimalar kiradi?*
2. *Mumtoz poetika haqida ma’lumot beruvchi manbalar qaysilar?*
3. *An’anaviy mavzular ko‘lamini aniqlang.*
4. *O‘zbek adabiyotidagi an’anaviy obrazlarni aniqlang.*

MUMTOZ O'ZBEK ADABIY TILIDAGI FILOLOGIK ASARLAR VA ULARNING BADIY ADABIYOTNI O'RGANISHDA MUHIM MANBALAR EKANLIGI

REJA:

1. *Markaziy Osiyoda yaratilgan filologik asarlar.*
2. *Adabiyotshunoslik fani – o'zbek mumtoz adabiyoti tarixini o'rganuvchi muhim manba.*
3. *Adabiy ilmlar tasnifi. She'r ilmi mohiyati.*
4. *Tarixiy manbalarda adabiy hayot tasviri.*

Tayanch so'z va atamalar: *filologik asarlar, she'r ilmi, ilmi bade', ilmi aruz, ilmi qofiya, lug'atlar, tarixiy asarlar, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asarlar, adabiy hayot tasviri.*

Ilmi adab – Sharq adabiyotshunosligining asosi. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotni, uning mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy funksiysi, ijodiy jarayon qonuniyatlarini o'rganadigan fan. U bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan 3 bo'limni: adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqidni o'z ichiga oladi. Adabiyotshunoslikning ildizi maqol, qo'shiq, doston singari xalq og'zaki ijodi namunalari yuzasidan bildirilgan ilk mulohazalarga borib taqaladi. Masalan, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridan joy olgan matallarga, badiiy so'z unsurlariga ilmiy-tekstologik munosabat, o'sha davr adabiy janrlari haqidagi fikrlar adabiyotshunoslikning olis tarixidagi ko'rinishidir. Adabiyotshunoslik ilmiga oid teran qarashlar Forobiyingning «She'r san'ati...» kitobida mufassal bayon qilingan. Unda she'riy asarning yaralish tabiatini, ijodkor shaxsi va mahorat muammolari, so'z qadri xususida fikr yuritiladi. Adabiyotshunos olim Abdulqodir Jur-

joniyning «Asror ul-balogs‘a fi-ilmi bayon» (Bayon ilmida balogs‘at sirlari) asarida so‘z san‘atidagi shakl va mazmun masalasiga alohi-da urg‘u berilsa, qomusiy olim Qays Roziyning «Kitob ul-mo‘jam fi-maoyiri ash‘or il-ajam» (Ajam she’riyati me’yorlari qomusi) kitobida nazariy masalalar – aruz tizimi, poetik san‘atlar, she’riy janrlar tahlil etilgan. Kaykovusning «Qobusnama»sida esa, she’r jamiyatning turli qatlamlari estetik talablaridan kelib chiqib yaratilishi, badiiy asar, albatta, ta’sirchan bo‘lishi lozimligi haqidagi mulohazalar o‘rin olgan.

Adabiyot tarixi yo‘nalishida muayyan xalq (xalqlar, mintaqqa, jahon) badiiy adabiyotining tarixiy taraqqiyoti hamda yozuv-chi-shoirlarning hayot va ijod yo‘li chuqur o‘rganiladi. Jumladan, o‘zbek milliy adabiyoti bosib o‘tgan uzoq tarixiy yo‘l, zamon, siyosat va adabiy jarayon munosabatlarining o‘ziga xosliklari, u yoxud bu ijodkorning ushbu jarayonga ko‘rsatgan ta’siri yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Adabiyotshunoslik tarixida yashagan shoir va adabiyotshunos Nizomiy Aruziy ibn Umar Samarqandiy, adabiyotshunos olim Atoulloh Husayniy, Zamaxshariy, Xondamir, Vosify asarlari muhim ahamiyatga egadir. O‘zbek adabiyotshunosliginining takomili Navoiy ijodiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek tilidagi tazkira janriga asos solgan «Majolis un-nafois» (Go‘zal majlislar) ilk o‘zbek adabiy qomusi hisoblanadi. Ushbu asarda Navoiy deyarli yarim asr mobaynida o‘ziga zamondosh bo‘lgan 469 shoir, olim, bastakor, xattot, she’riyat homiylari haqida ma’lumot beradi, badiiy mahorat, san‘atkoring ijtimoiy burchi, poetik janr masalalarini yoritadi. Navoiyning «Holoti Pahlavon Muhammad», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», Jomiyga bag‘ishlangan «Xamsat ul-mutahayyirin» (Besh hayrat) singari asarlari adabiy portretning dastlabki namunalaridir. Uning «Mezon ul-avzon» (Vaznlar o‘lchovi) asarlarida aruzning nazariy, amaliy masalalari tadqiq etilgan. Husayn Boyqaro esa, o‘z navbatida, Navoiyning betakror mahorati, u yaratgan adabiy muhit, davr adabiy jarayoni haqida ma’lumot beruvchi risola yaratgan. Zahiriddin Muhammad Bobur «Muxtasar» kitobi bilan Navoiydan so‘ng aruz ilmi tadqiqini yangi bosqichga ko‘tardi. Bu kitobda aruzning 20 dan ortiq bahri, 530 dan ortiq vazni haqida ma’lumot beriladi. O‘zbek

adabiyotshunosligining keyingi davrlardagi yo‘nalishini, asosan, tazkiralar belgilaydi. Jumladan, Fazliy rahbarligida she’riy shaklda yaratilgan «Majmuai shoiron» (Shoirlar guruhi) tazkirasi Qo‘qon xoni saroyiga to‘plangan ijodkorlar haqida nisbatan to‘liq ma‘lumot beradi. Ahmad Tabibiyning she’riy shakldagi «Majmuat ash-shuaroi Feruzshohiy» (Shoh Feruz shoirlari guruhi) hamda «Muhammasoti majmuat ush-shuaroi Feruzshohiy» (Shog‘ Feruzshoirlari guruhining muxammaslari) tazkiralarda ijodkorlarning asarlari janrlarga bo‘lib o‘rganiladi. Birinchisida g‘azallar, ikkinchisida muxammas va mu-saddaslar tahlil etiladi.

Dastlabki nazariy qo‘llanma — adabiyotshunos Abdurahmon Sa‘diyning «Amaliy, ham nazariy adabiyot darslari» (1924) yaratildi. Fitratning «Adabiyot qoidalari» (1926) darsligida esa o‘z davri Sharq va G‘arb adabiyoti nazariyasi muammolari yoritildi. Shu muallifning «O‘zbek adabiyoti namunalari» kitobida O‘rxun-Enasoy bitiklari, «Alpomish», «Kitobi Dada Qo‘rqut», «Devonu lug‘otit turk» dan parchalar berildi, Yassaviy, Boqirg‘oniy, Lutfiy, Atoiy, Navoiy, Bobur asarlaridan misollar keltirildi.

Tarix — Sharq klassik adabiyotining eng mo‘jaz, ammo keng tarqalgan janrlaridan biri hisoblanadi. She’rshunoslar uning vujudga kelishini IX asr bilan bog‘laydilar. Ammo tarixning janr sifatida to‘la shakllanishi X–XI asrlarda yuz beradi. Bu davrlarda bir bayt yoki to‘rtlikda u yoki bu tarixiy sana, biron bir buyuk shaxs — davlat arbobi, adib, mashoyixning tug‘ilgan yili, vafot etgan sanasi qayd etiladi. Bora-bora bu janrda so‘z o‘yini yoki harflar qaydi (ta’kidi) orqali muhim bir voqeа, sanani ifodalanganligiga ishora qilinadi. Bunda bir tomondan, baytda biron badiiy san’at, ibora ishlatalishiga erishilsa, ikkincha tomondan, arab grafikasidagi harflarning qaysi raqamni ifodalashi hisobga olingan. Tarixning ma’naviy, noqis, zoid, qit’ai tarix kabi turlari mavjudkim, ular san’atkordan o‘ziga xos zukkolikni talab etgan. Masalan, shoir baytda bir yoki ikki so‘zga o‘quvchi diqqatini jalb etib, uning tarix muddasiga ishora qiladi:

*Saru sarkardai arbobi suxan,
Az g‘amobodi jahon xurram raft.*

*Guft ta'rxi vafotash Ozod,
«Mirzo Bedil az olam raft»*

(So'z mulki arboblarining sarkardasi bu jahon g'amxonasidan shod ketdi. Uning vafoti tarixini Ozod «Mirzo Bedil olamdan ketdi», deb ta'kidladi). Oxirgi misra harflari miqdorini topib, bir-biriga qo'shsak, Bedil vafot etgan 1721-yil chiqadi.

O'tmishda shoir va yozuvchilar yo'l-yo'lakay turli voqealari hoda-salar sanasiga bag'ishlab, tarix yozishdan tashqari, bir necha asrlarda yuz bergen voqealar yilnomasiga bag'ishlangan maxsus tarix kitoblari ham yaratishgan. Said A'lam Sharofiddin Roqimiyning «Tarixi tom» asari ana shunday kitoblardan biridir. Adibning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar yetarli emas. Tug'ilgan hamda vafot etgan yili ham aniqlanmagan. Uning yoshligi Andijonda o'tgan. O'qish maqsadida Samarqandga kelib, shu yerda madrasani xatm etadi va muqim yashab qoladi. Biz Roqimiyning ijodiy faoliyati qachondan boshlanganligini bilmaymiz. Uning bizga qadar 1680 yili yozilgan katta hajmdagi «Tarixi tom» asari ma'lum. Muallif 1701–1702 yillari risolaning muxtasarroq bir nusxasini ham yaratgan. Ana shu nusxa 1913–1914 yillari toshbosma usuli bilan Vazehning «Tuhfat-ul-ahbob fi tazkiratul ashob» tazkirasiga ilova tarzda chop etilgan. Ushbu nusxanining bizga qadar bir necha dastxati saqlanib qolgan. Asar juda katta ilmiy, adabiy tarixiy, ma'rifiy, estetik ahamiyatga ega. Unda o'nlab fiqh donish-mandlari haqida ham ko'p ma'lumot bor. Yaqinda ana shu nodir kitobi professor Haydarbek Bobobekov shaxsiy xazinasida saqlanayotgan nusxasini sharqshunos, dotsent Naim Norqulov forsiyidan o'zbek tiliga tarjima qildi. Biz asl nusxani ham, tarjimani ham sinchiklab o'qib chiqishga tuyassar bo'ldik. Kitob shu xildagi boshqa asarlardan bir necha jihatlari bilan jiddiy farq qiladi.

Dastlab shuni ta'kidlash lozimki «Tarixi tom»da 1633 – 1644 hamda 1645–1701 yillar davomida Eron va O'rta Osiyoda yuz bergen voqealar, sodir bo'lgan hodisalar, yashab o'tgan tarixiy shaxslarning hayoti hamda faoliyati haqida ma'lumot mavjud. Undagi tarix-she'rlar mundarija, g'oyaviy yo'nalish jihatidan g'oyatda ibratli,

nasriy kiritma yoki xotimalar dalillarga boy va qiziqarlidir. Tarixlarni mavzu doirasiga ko'ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Bir silsila tarixlar Sharq ijtimoiy-siyosiy hayot darg'alarining tug'ilgan yillari yoki vafoti, biron urushdagi g'alaba yoki biron o'lkani zabt etish sanalari, bir sulolaning sultanatdorlik muhlati, biron shahar yoki obidaning bunyod etilishiga bag'ishlangan to'rtliklardir. Bunday she'rlar bizning O'rta Osiyo xalqlari tarixi, davlatdorligi haqidagi bilimimizni mukammallashtiradi, tafakkurimizni charxlaydi. Masalan, muallif Sohibqiron Amir Temur vafot etgan yiliga bag'ishlangan tarixlarni keltirar ekan, «Ul hamida sifatlar hayotining muddati etmish ikki yil-u ikki oy 8 kun bo'ldi. Sohibqironning er avlodidan vafot vaqtida o'ttiz olti nafari hayot edi... Sohibqironning mukarram qizlaridan ismat pardasida bo'lgan va uhob lihofidagi mag'rur o'n etti nafari mavjud edi», deb aniq ta'kidlagan va Amir Temur vafoti sanasiغا bag'ishlangan sakkizta tarixni keltirgan. Ubaydulloxonning Najmi Soniyni daf' etib, Mavarounnahrni eroniylar bosqinidan batamom xalos etganini alohida qayd etar ekan, muallif «urug'laridan biron cho'ng bo'laturg'onda taxtni ixtiyor etmasdilar», degan fikrni bayon etadi. Asli yamanlik bo'lgan Miri Arab bilan Ubaydullohxon o'rtasidagi ustod-shogirdlik, piru murshidlik haqidagi qiziqarli ma'lumotlar Miri Arab madrasasining qurilishi tarixini she'rga solish munosabati bilan keltirilgan. Mirzo Ulug'bek, Shayboniyxon, Amir Shayxiylar haqidagi dalillar ham asosli va xiyla maroqlidir.

Mazkur risoladagi tarixlarning katta qismi XV–XVI asrlarda Eron-u Turon sarzaminlarida yashab o'tgan mashhur mashoyixlarning hayot sanalariga bag'ishlangan. Biz bu fasllarda ham rang-barang lavhalar, dalillarni uchratamiz. Xususan, Said Ali Hamadoniy, Lutfulloh Nishopuriy, Bahovuddin Naqshband, Taftazoniy, Muhammad Porso, Qosim Anvor, Hasan Kubroviy, Xoja Ubaydullo Ahror, Shayx Xudoydod, Maxdumi A'zam, Abubakr Toyobodiy, Qozi Po-yanda Zominiy, Xojagi Amkanagiy, Yusuf Qarabog'iy singari o'nlab mashoyixlar xususidagi lavhalar ham katta ilmiy va badiiy qimmatga ega. Zeroiki, Roqimiy tarix bahonai sababi bilan, bir tomonidan, bu zotlarning haq yo'lida chekkan riyozatlarini bayon etsa, ikkinchi

tomondan, ularning ilm o'rganish, xalq orasida islomiy ahkomlarni targ'iib va tashviq etish borasida chekkan zahmatlarini qayd etadi: karomat va bashoratlaridan ba'zi lavhalar chizadi. Agar xalifa hazrati Ali islom davlatini mustahkamlash, uning hududini kengaytirishda katta jasorat ko'rsatgan bo'lsa, shayx Said Hamadoniy Mag'ribu Mashriqni piyoda kezib, yuz minglab g'ayridinlar qalbini islom nuri bilan yoritishga tuyassar bo'lgan allomadir. Shuning uchun «Ul zotni «Atii Soniy» der erdilar... Uch navbat rub'i maskun aksarini sayr qildi. Shu saodatli yo'lda bir ming to'rt yuz nafar valiyning suhbatiga musharraf bo'ldi». Asarda juda ko'p mashoyixlarning hayotlari haqida boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar, kitoblarining aniq ro'yxati berilgan. Hozirga qadar ilmiy-nazariy adabiyotlarda toshkentlik fiqh donishmandi, «Samarqand viloyatining a'lam-ul ulamosi» darajasiga etgan Amir Fathiy haqida ma'lumotlar kam. Roqimiy 1635-yili va fot etgan Fathiy xususida quyidagilarni yozgan: «Xullas, bul fazilatlar bahri muhiti, hikmat va kamol manbaining tasnif va ta'liflari juda ko'p. Jumladan «Kitobi jome'-ul ma'qul va manqul», ikki jilddan iborat «Kitobi zodil oxirat»: birinchi jildi «Qisas-al anbiyo», ikkinchi jildi «Salot ir-Rahmon»dir. Boshqa asarlari ham ko'p. Shuncha fazilatlarga qaramay, gohida she'r ham bitur erdilar». Roqimiying ajdodlari asli toshkentlik ekan. Chunki kitobda «Fathiy mening bobokalonim edilar. U kishining ayrim asarlari qo'lyozmasi menda saqlanadi», degan fikr mavjud.

Ma'lumki, o'tmishda ko'hna Xurosonu Mavarounnahrda yetishib chiqqan so'z san'atkorlarining aksariyati jahongashtayu jahondida bo'lgan. Shu sababli ularning hayot yo'li va ijodiy faoliyatları xususidagi dalillar ham dunyoga sochilib ketgan, turli sarchashmalarda zabit etilgan. Vaqtlar o'tishi, yangi dastxatlarning topilishi munosabati bilan bu buyuk zotlar faoliyatining yangi qirralari muayyanlashib boradi. «Tarixi tom» ana shunday dalillarga boy, serfayz dastxatlardandir. Unda Hofiz, Sa'diy, Kamol, Jomiy, Navoiy, Binoiy, Bobur, Koshifiy, Kotibi, Mushfiqiy singari ulkan san'atkorlarning shaxsiyati bayoni va asarlari tavsifi ham ancha boydir. Ular bu adiblarning tarjimai holini yanada mukammalroq tasavvur etish, ijodiy niyatlarining

ba'zi jihatini to'la idrok etishga ko'maklashadi. Hozirgacha adabiyotshunoslikda To'xtamishxon Tabrezni g'orat qilganda Kamol Xo'qandiyni ham Saroy shahriga asir qilib eltg'an, shoir bu erda g'aribona umr kechirgan: Amir Temur To'xtamishni yenggach, shoir yana Tabrezga kelib, Valiyonko'hagini «Bihisht» otlig' bog'ida nochor hayot kechirgan, mazmundagi fikr mavjud. «Tarixi tom»dagi mulohazalar bu fikrni tuzatadi va to'ldiradi. «Viloyat fath etilgandan keyin hazrati Shayxni To'xtamishxon farmoniga ko'ra, Dashti Kipchoqqa – Saroy shahriga olib ketganlar. Ul joylarning havosi g'oyatda yaxshi edi, Hazrati Shayx ta'biga xush keldi. O'sha holda bu matla' ul Hazratning xurshed kabi tab'lari ufuqidan tulu' qildi. Matla':

Agar saroy hamin ast, dilbaroni saroyi,

Biyor boda, ki forig' shavam zi har du saroyi.

(Agar Saroy shahri shu bo'lsa, ey saroy dilbarlari! Menga boda keltiringlar, toki har ikki olam tashvishidan qutilay).

To'rt yildan keyin Shayx Tabrez viloyatiga qaytdilar. Sulton Husayn No'yon Tabrez viloyatida hazrati Shayx uchun Xonaqohi Nodiriyni qurdirdi. U xizmatkorlar Ka'basi va zohidlar qiblasidir. Bu imoratning peshtoqi niyoz ahlining mehrobidir, darvozalari fayz eshigidek ahli dillar uchun hamisha ochiq. Oliy martabali sulton mulkining ko'pini o'sha xonaqoh uchun vaqf qilib bergandi. Hazrati Shayx amirzoda Mironshoh davlati va saltanati davrigacha hayot edilar. «Sanayi 793 yilda (milodiy 1391) qazo kotibi ul zot hayoti devoni matla'ini mamot maqtaiga kiritdi. Tabrezning Surxob mavzeidagi Valiyonko'hda ul zot madfundurlar. Nurlarga to'la qabri lavhiga bu matla'ni raqam qilganlar.» Matla':

*Kamol az Ka'ba rafti bar dari do'st,
Hazorat ofarin, mardona rafti.*

(Kamol, Ka'badan do'st eshigiga ketding, ming ofarin, mardona ketding).

Sharq adabiyotshunosligi-yu fiqh fanida Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodiy faoliyati hiyla puxta o'r ganilgan. Hatto, u haqda «Xamsat ul-mutahayyirin», «Maqomoti Jomiy» singari kitoblar ham

yaratilgan. Sharofiddin Roqimiy ham Jomiy vafotiga atalgan tarixlarni keltirishdan oldin shoirning ajdodlari, ota-onasi, vatani, Navoiy bilan ustoz-shogirdligi haqida batafsilroq naql etadi, 40 ta asarining ro'yxatini beradi, tavsiflaydi. Muallifning mana bu qaydlari, ayniqsa, e'tiborga loyiqidir: «Aytishlaricha, ul zotning validai shariflari zamon hodisalari va davron inqilobi tufayli Isfahondan Xuroson mulki tarafiga ko'chganlar. Jom viloyati Xarjurd qasabasida Hazrati Zindafili Ahmadi Jom turbati yaqinida maqom tutganlar. Keyin, shu erda oila qurbanlar».

Ulkan lirk shoir, zabardast dostonnavis Urfin Sheraziyning hayot yo'li g'oyatda murakkab kechgan. Bir umrga muhtojlikka mahkum etilgan shoir hech kimga bosh egmagan, birovga ta'ma qo'lini cho'zmagan. Ko'p amirlaru shahzodalar uni o'z dargohlariga tortmoqchi bo'lishgan, ammo bunga erisholmagan. «Tarixi tom»da Urfiyning Hindistonda kechgan umri xususida quyidagi lavha keltirilgan: «Ul zot podshohi Jam suhbatidan o'zini kanorga tortib yurdi. Qancha taklif qilishmasin, dargohni ixtiyor etmadni. Oxiri bir kun Mavlono Urfiy uchun bir pora oltin jo'natishdi. Ul Mavlono bolaxonasida o'tirgancha podshoh in'omini istiqbol etmadni va ushbu ruboiyni badeha tarzida aytdi. Ruboiy:

*Urfii mo dili hud digargun nakunad,
Daryuza ba juz darun purxun naqunad.
Somoni bihisht agar az in ko'cha kashand,
Ummeli sar az daricha berun nakunad.*

(Urfimiz o'z qalbini o'zgartirmaydi, oshufta dilini faqat purxun etadi. Taqdir bihishtni shu ko'chadan o'tkazsa, umid boshini darichadan tashqari chiqarmaydi).

Fors-tojik she'riyatining zabardast siymolaridan biri Abdurahmon Mushfiqiy noziktab g'azalgo'y, saliqali doston saro bo'lish bilan birga o'tkir hajvchi sifatida Sharqda mashhurdir. U, hatto hozirjavob zaro-fatgo'y donishmand tarzida xalqning ikkinchi Nasriddin Afandisiga aylangan. Ayni paytda Mushfiqiy peshqadam matematik, astronom hamda rammol ham ekan. «Tarixi tom»dagi ma'lumotlar adib ijodini-

ng ana shu kamyob sahifalari xususidagi tushunchamizni oydinlashtiradi: «Mushfiqiyning tab'i obu tobi ilmi hikmatdan Jolinus kabi boxabar, hay'at bobida Batlimus erdi. Hisob ilmida shunday komil ediki, oqillar aqli uning tasavvuridan ojiz va zako ahli zehni uni fahmlashdan qusurli va noqis edi». Ayrim tadqiqotchilarining asarlarida «Ulug‘bekdan so‘ng Mavarounnahrda matematika va astronomiya fanlari mutlaqo tanazzulga yuz tutdi», degan mushohadalar mavjud. Mushfiqiy va Hoji Yusuf Hay'atiylar handasa hamda hay'atshunoslik sohasida erishgan yutuqlari bunday fikrlar asossiz ekanligini isbotlaydi. «Tarixi tom» hali jiddiy o‘rganilmagan. Ulardagi ayrim tarixlar marhum sharqshunos A.Juvonmardievning «Harflar raqamlarga aylanganda» (1966) kitobida keltirilgan va izohlangan, xolos.

Xulosa qilib aytganda, Sharofiddin Roqimiyyning asari xalqimiz tarixi, madaniyati, ilm-fani, badiiy adabiyoti, falsafiy hamda islomiy tafakkuri tarixidan rang-barang dalillarga boy manba. U qanchalik tez chop etilib, ommalashtirilsa, ilm-adab ahli shunchalik xushnud bo‘ladilar. Asarning mukammal nusxasini topish va o‘zbek tiliga o‘girish matnshunoslarimizning kechiktirilmas vazifalaridan biridir.

Uslubiy tavsiyalar:

Klaster (Klaster-tutam, bog‘lam) – axborot xaritasini tuzish yo‘libarsha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. *Markaziy Osiyoda ilmi adab, ilmi bade’ singari filologik tadqiqotlar haqida ma’lumot bering.*
2. *Mumtoz she’riyat poetikasi kompozitsiyasini tashkil qiluvchi elementlar?*
3. *XX asr boshlarida mumtoz adabiyot tarixini o‘rgangan adabiyotshunos olimlar?*

ISLOMGACHA BO'LGAN DAVR ADABIYOTI

REJA:

1. *Qadimgi mif va afsonalar.*
2. *Xalq og'zaki ijodi manbalari.*
3. *Qadimgi yozma yodgorliklar.*

Tayanch so'z va atamalar: *mif, afsona, xalq og'zaki ijodi, «Avesto», «Behustun», «Bundaxishn», «Denkard», qo'shiq.*

Qadimgi yunon va rim muarixlari asarlarida O'rta Osiyo xalqlari yaratgan miflar, rivoyatlar, afsonalar berilgan bo'lib, bu davr badiiy tafakkuri haqida to'laqonli ma'lumot olish mumkin. Shuningdek, qadimgi Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo xalqlariga doir ma'lumotlar yunon va rim manbalarini to'ldiradi. Tarixiy asarlar tarkibida berilgan Iskandar to'g'risidagi qissalar ham bu davr ma'naviy hayotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Qadimgi davrdagi adabiy yodgorliklar sifatida qadimgi mif va afsonalarni nazarda tutamiz. Talabalar avvalo, mif va afsonalar haqida o'zlarining tasavvur tushunchalarini, kollej va litseyda bular haqida olgan bilimlarini yana bir bor jonlantirishlariga imkon berish va o'qituvchi tomonidan «Mifni qanday tasavvur qиласиз?» «Afsonani-chi?» kabi savollarni o'rtaga tashlashi va talabadan javob kutishi lozim. Agar shu savollar berilmasa va talabalarning bu adabiy jarayon haqidagi tasavvurlarini o'qituvchi yetarli anglay olmasa, talaba uchun bu dars zekrilarli, avvalgi ta'lim bosqichida o'rganganlarning qaytarig'i bo'lib qolishi mumkin.

«Mif nima?» degan savol har doim ko'ndalang bo'lib turadi. Mif, sodda qilib aytganda, olamning yaratilishi, insoniyatning kelib chiqishi, shuningdek, xudolarning, qahramonlarning paydo bo'lishi, ular-

ning faoliyati haqidagi badiiy, sodda va ko‘pincha g‘alati ko‘hna badiiy tafakkur mahsuli bo‘lgan parchadir. *Mif* – yunoncha so‘z bo‘lib, «afsona», «rivoyat» ma’nolarini bildiradi. Ammo mifni afsona bilan bir deb bo‘lmaydi. Mif badiiy tafakkurning eng kichik, sodda, epik syujetga ega bo‘limgan ilk badiiy shaklidir. Mif adabiy jarayonning birinchi bosqichidir. Yoki quyidagi ta’rif mif bilan afsonani yanada aniqroq farqlashga, ular o‘rtasidagi ayirmani yanada tushunarli qilib ko‘rsatishga xizmat qiladi: «Miflar – biz hozirda afsona deb ataydigan muqaddas rivoyatlar xarakterini qabul qiladi, Mif bilan afsona o‘rtasidagi farq tushunarli: mif – tafakkurning beixtiyor shaklidir, afsona – ongli ijodning mahsulidir». Insoniyat mif yaratishni maqsad qilib qo‘ymaydi, balki ma’lum kultlar, udumlar, urf-odatlarni bayon qilish natijasida miflarning ayrim turlari kelib chiqadi, Bular ko‘proq totemistik miflarga, kosmogonik miflarga va boshqa qator mif turlariga tegishli.

Badiiy adabiyotning ilk ko‘rinishi – og‘zaki shakli mifdan boshlangan. Mif qaysidir xalqlarda yozma shaklda saqlanib qolgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, sharqdagi aksariyat yozma manbalar – shumer, misr, bobil, xet kabi qator qadimiy xalqlarning yozma yodgorliklaridan bir qator miflar bizgacha yetib kelgan. Jumladan, yaratilish (ismlarning, udumlarning, buyumlarning paydo bo‘lishi haqidagi *etiologik miflar*, yoki olamning paydo bo‘lishi haqidagi *kosmogonik miflar*; insonning paydo bo‘lishi haqidagi *antropogonik miflar* – bu har uchala mif turi arxaik miflarning asosiy mazmunini tashkil qildi) haqidagi miflar yuqorida aytib o‘tilgan xalqlarning deyarli hammasida bor. Zotan, miflarni qiyosiy-tarixiy o‘rganish asosida olimlar shunday xulosaga keldilar-ki, dunyodagi ko‘pchilik xalqlarning miflarda bir qator mavzular va motivlar takrorlanadi. Masalan, yuqorida aytilgan uchala mif turini madaniy rivojlangan xalqlarning hammasida uchratish mumkin. Ibtidoiy jamiyatda mif olamni tushunish va anglashning asosiy usuli bo‘lgan edi. Shuning uchun mif ijod qilish insoniyatning madaniy taraqqiyotida muhim hodisa hisoblanadi. Bu jarayon hamma mif turiga aloqador. Ayni paytda mif shunchaki qisqa matndan iborat poetik parcha bo‘lib qolmay, u yaratilgan davrdagi

olamni his qilish va olamni anglashni ifodalaydi. Inson ilk yaratilgan davrdan boshlab atrofga ta'sirini bildirib qolmasdan, «idrokli inson» sifatida olamni anglab yetishiga to'g'ri kelgan. Demak, mif idrokli insonning aqliy faoliyatini mahsuli. Mif orqali inson ibtidoiy holda bo'lsa ham, olamni ilmiy bilishga harakat qilgan.

Mif – ibtidoiy insonning fikrlash darajasini ko'rsatuvchi omil. Ibtidoiy inson o'zini tabiiy olamdan aniq ajrata bilmagan, shu bois tabiiy ob'ektlarga o'z insoniy xususiyatlarini ko'chiravergan – tabiiy ob'ektlar inson kabi hayot kechiradi, insoniy his-tuyg'ulari bor, ongli, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan xo'jalik faoliyatini yuritadi, deb bilgan. Shuningdek, inson ibtidoiy bosqichda mavhum fikrlashni bilmagan. Mifning barcha turlari manbai ana shu fikrlashda. Fetishizm, animizm va totemizm kabi ishonch-e'tiqodlar ham aslida atrof muhitni «insonlashtirish»dan kelib chiqqan.

Turkiy miflar ham ayni shu xususiyatlar va jarayonlarni bosib o'tgan. Qadimgi turkiy miflarning manbai O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari va qadimgi xitoy yilnomalarida, ayrim arab, fors va boshqa manbalarda saqlanib qolgan. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan Kultigin bitiktoshining birinchi misrasida olamning va insoniyatning paydo bo'lishi haqidagi mif mavjud: *Uza ko'k tangri asra yag'iz yer qilintuqta akin ara kisi o'g'li qilinmis. Kisi o'g'linta uza achum apam Bo'min qag'an, Istami qag'an o'lurmis, o'luripan turk bo'dunin alin to'rusin tuta birmis, ita birmis* – Yuqorida ko'k osmon, ostda qora yer qilinganda. Ikkovining orasida inson bolasi yaratilgan. Inson bolasi ustidan ota-bobom Bo'min xoqon, Istami xoqon o'tirganlar, o'tirib, turk xalqining davlatini, qonun-qoidalarini ushlab turgan, rioxva qilib turgan.

Og'zaki nutq tarixi insonning o'zi singari qadimiyyidir. Demak, yozma nutqning, yozma ijodning vujudga kelishiga og'zaki nutq yoki xalq og'zaki ijodi asos bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi namunasi dastlab xalqning qobiliyati, iste'dodli kishilar tomonidan qaysidir shaklda, mazmunda yaratiladi. Keyinchalik u og'zaki tarqalib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib yangicha shakl va mazmun kashf etib, variant va versiyalari paydo bo'lib, xalq og'zaki poetik ijodi namu-

nasiga aylanadi. Xalq og‘zaki ijodi yoki folklor (folk-xalq; lore-donolik, ya’ni xalq donologgi) yozma adabiyotga zamin hozirlagan katta bir tizimdan iboratdir. Shu narsa ayonki, eng qadimgi og‘zaki ijod namunalari bizgacha to‘la yetib kelmagan. Faqat ba’zi tarix kitoblari, ilmiy asarlar, yozma yodgorliklar va boshqalar eng qadimgi og‘zaki badiiy ijod haqida tasavvur hosil qilishimizga imkon beradi. Bu imkoniyatni biz Geradot, Polien, Kteziy, Xores Mitilenskiy kabilarning tarixiy kitoblaridan topa olamiz. Bulardan tashqari, «Avesto», «Behustun», «Bundahshin», «Denkard» singari yozma yodgorliklarda ham qadimgi og‘zaki ijod namunalari o‘rin olgan. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodining qo‘sinq, lirik she’r, maqol kabi janrlardan namunalar keltiriladi. Qadimgi mif va afsonalar esa Firdavsiyning «Shohnoma» sida qayta ishlanadi.

Bizgacha yetib kelgan folklor namunalari miflar, afsonalar, qo‘sinqlar, lirik she’rlar, qahramonlik eposlari va boshqa shakldagi adabiy asarlardan iboratdir.

Xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalari quyidagi tur va janrlarga bo‘linadi:

Epos – doston, mif, afsona, rivoyat, ertak, latifa, lof, maqol, topishmoq.

Lirika – qo‘sinq, lapar, terma, alla, yor-yor, kelin salom.

Og‘zaki drama – qo‘g‘irchoqbozlik, masxarabozlik, askiyabozlik.

Qadimiy inson tabiatning qudratli va mo‘jizali sir-sinoatlari oldida ojiz bo‘lgan. Ular fasllarning almashishi yomg‘ir, qor yog‘ishi, yer silkinishi, momoqaldiroq bo‘lib, chaqmoq chaqishi, suv toshqini sabablari va mohiyatini to‘liq anglay olmaganlar. Ular osmon, yer, oy, quyosh kabilarni jonli narsalar sifatida qabul qilganlar. Ana shunday oddiy va jo‘n qarashlar natijasida miflar paydo bo‘lgan. Miflar bir qancha turlarga bo‘linadi:

a) etiologik miflar; b) kosmogonik miflar; v) etnogenik miflar; g) antropogenik miflar; d) eshatologik miflar.

Afsona atamasi forscha «fusun» (sehr, makr) so‘zidan olingan. Aristotelning ta’biricha: «Afsonalar haqiqatdan xabar beruvchi yolg‘on

hikoyalardir». Afsonalarda yarim real, yarim romantik voqealar tasvirlanadi. Afsona mavzu jihatidan quyidagicha turlarga bo‘linadi: tarixiy, toponimik, diniy, maishiy afsonalar. Qadimgi turkiy adabiyotda afsona «sav» deb nomlangan. Afsonaning asotirdan farqi shundaki, ularda qaysidir ma’noda tarix o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Mif va afsonalar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» da, boshqa diniy kitoblarda ko‘p uchraydi. «Avesto» va «Bundahshin» da ikki olam: Yaxshilik va yomonlik olami mavjud. Yaxshilik olamiga Axura Mazda (Xurmuzd), yomonlik olamiga Angra Manyu (Ahri-man) boshchilik qiladi. Mif va afsonalar qahramonlari: Mitra, Anaxita, Qayumars, Yima (Jamshid), Gershasp, Elikbek va boshqalar. Bundan tashqari «Olamning yaratilishi», «Odamning yaratilishi», «To‘fon» singari diniy asotirlar; Skiflar to‘g‘risidagi afsonalar, To‘maris, Shiroq, Erguna kun kabi afsonalar ham mavjudki, ular eng qadimgi insonlarning ijtimoiy turmush tarzi, dastlabki estetik tafakkuri, olam va odam haqidagi dunyoqarashlarini, vatanparvarlik va qahramonlikni o‘zida aks ettiradi.

Eng qadimgi qo‘shiqlarning namunalari Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari orqali yetib kelgan. Xalq she’riyatining qadimgi namunalari bevosita insonning mehnat faoliyati bilan bog‘liq. Qo‘shiqlarda insonning ruhiy kechinmalari, mehnat bilan bog‘liq holatlar, yil fasllari bilan bog‘liq insonning orzu-niyatlari o‘z aksini topgan. Qadimgi qo‘shiqlar bir nechta turlarga bo‘lib o‘rganiladi.

1. Lirik qo‘shiqlar. Ularda insonning ruhiy dunyosi, sevgi va muhabbat borasidagi kechinmalari aks etadi. Asosan, to‘rt qatorli bandlardan iborat bo‘ladi.

2. Mehnat qo‘shiqlari. O‘z ichida quyidagicha turlarga bo‘linadi:

a. Dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar: Qo‘s sh qo‘shiqlari, o‘rim qo‘shiqlari, «Ho‘p mayda», yorg‘ichoq qo‘shiqlari.

b. Chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar: govmishim, turey-turey, churey-chureylar va boshqa.

v. Hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar: Charx qo‘shiqlari, bo‘zchi qo‘shiqlari, o‘rmak qo‘shiqlari, kashta qo‘shiqlari va hokazo.

3. Mavsum – marosim qo’shiqlari. Mavsum qo’shiqlari bevosita bahor, yoz va kuz fasllari bilan bog‘liq bo‘ladi.

a). Sust xotin (yomg‘ir chaqirish qo’shig‘i). Ushbu qo’shiq bahor faslida yomg‘ir yetarlicha bo‘lmanan kunlarda ayollar tomonidan otashparastlik dinida muqaddas sanalgan, Tishtiriyaga bag‘ishlab aytilgan. Sust xotin Tishtiriyaning xalq orasida o‘zgargan nomi yoki obrazidir. Sust xotin yomg‘ir hudosi.

b). Choy momo (shamol to‘xtatish). Choy momo ya’ni «shamol momo» obrazidan iborat bo‘lib, otashparastlarning shamol xudosi hisoblangan. Bu o‘ziga xos marosim tarzida o’tkazilgan. Qo’shiqni ikkita kampir eski kiyim kiyib aytishgan. Bo‘yi yetgan beshta qiz kamplirlarning orqasida sholcha yopinib yurishgan.

v). Yo, haydar (shamol chaqirish). Bu qo’shiq asosan kuz faslda, xirmon olish jarayonlarida aytilgan. Haydar shamol homiysi ya’ni Muhammad alayhissalomning kuyovi, to‘rtinchchi halifa Aliga murojaat qilinadi.

«To‘maris» afsonasi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Amudaryo (O‘kuz) bo‘ylarida, sahro va cho‘l hududlarda ko‘chmanchi massagetlar yashaganlar. «To‘maris» afsonasi ushbu xalqning Eron bosqinchilariga qarshi kurashi ifodasidir. Eramizdan oldingi VI asrda Eron shohi Kir II massagetlar zaminiga bostirib kiradi. Massagetlar qo’shini boshlig‘i To‘maris qo‘rqmas va botir ayol. Jangda Kir qo’shini yengiladi va uning o‘zi 529-yilda vafot etadi. «To‘maris» afsonasi tarixiy afsona bo‘lib, uning asosida tarixiy voqealar yotadi. Afsona mazmuni Yunon tarixchisi Geradot (mil.avv. 484 – 425)ning «Tarix» kitobida qisqacha bayon etilgan, xolos. Afsona qahramonlari: To‘maris, o‘g‘li Sparangis, Kir, maslahatchisi Krez, Kirning o‘g‘li Kambiz.

«Shiroq» afsonasi. Mazkur afsona asosida ham tarixiy voqelik yotadi. Eron shohi Doro I (522–486) O‘rta osiyoga bostirib kiradi va xalqni talaydi. Sak (shak) qabilalarining mustaqillik uchun qo‘zg‘oloni «Shiroq» afsonasiga asos bo‘lgan. Afsonaning asl ko‘lami bizgacha yetib kelmagani. Uning qisqacha mazmuni bilan Yunon tarixchisi Polienning (mil. avv. II asr) «Harbiy hiylalar» kitobida tanishish mum-

kin. Afsona qahramonlari: Cho'pon yigit Shiroq, oqsoqollar: Rustak, Omarg, Saksfar, Eron shohi Doro, sarkarda Ronosbat va boshqalar.

Yozma yodgorliklar. «Avesto» va badiiy tafakkur. «Avesto» zardushtiylik ta'limoti bitilgan eng qadimiy kitob bo'lib, bu atama turli tillarda, turli talaffuzlarda aytilgani uchun ham fonetik o'zgarishlarga uchragan qolda yoziladi. Masalan: Beruniy uni «Abista» deb yozgan. qadimgi forsiylar «Apastak», «Avasta», Evropaliklar «Ovesto», hozirgi o'zbek tili talaffuzida «Avesto» tarzida ifodalanib kelinmoqda.

«Avesto» nafaqat Xorazm va O'rta Osiyo xalqlarining, balki butun dunyo xalqlarining madaniy va adabiy yodgorligidir. Ma'lumki, «Avesto» – «qonun», «Asos», «Madhiya», «O'qish kitobi» hozirgi ma'noda «qomus» (konstitutsiya) degan ma'nolarni anglatadi. Fransuz olimi Ankatil dyu-Perron «Avesto»ni «qat'iy belgilangan qonunlar majmuasi» deya tabdil qilgan.

«Avesto»ning asosini Zardushtning ta'limoti tashkil etadi. Kitobning qadimgi qismi «Sade», ya'ni sof, keyingi davrlarda tiklangani esa «zend», ya'ni tushuntirish, izoh deb ataladi.

Ma'lumki, 2001-yilda «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlandi. Ko'rindiki, bu kitobning yaratilganiga 27–30 asr bo'lgan. Demak, mazkur kitobni yaratgan xalqning tarixi, davlatchilik tizimi, ishlab chiqarish usuli, madaniyati bundan ham qadimiyroq. «Avesto» Zardusht nomi bilan bog'lanar ekan, bu noyob asar bir davrning mahsuli emasligini ham ta'kidlamoq darkor. «Avesto» bir necha asrlar davomida shakllanib, yaxlit asar holiga kelgan». Beruniyning yozib qoldirishicha, «Avesto» ning qo'lyozmasi o'n ikki ming molning terisiga oltin suvli harflar bilan yozib qoldirilgan. Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoga bostirib kelganda, bu asarning tib va astronomiyaga oid qismlarini ko'chirtirib olib, qolgan qismini yoqib yuborgan va ko'chirtirgan qismlarini yunon tiliga tarjima qildirgan.

«Avesto» yodgorligining bizga ma'lum eng qadimgi nushasi 1324-yilda ko'chirilgan bo'lib, bu qo'lyozma Kopengagenda saqlanadi. «Avesto»ning ko'p qismlari bizgacha etib kelmagan. Ammo, aksariyat adabiyotlarda ko'rsatilishicha, «Avesto» to'rt qismdan iborat:

Yasna (diniy marosimlar) 72 bob; Yasht («Yasna»ga yaqin ma'noni anglatadi); Visparad (Vispret) (ilohlar haqida) 24 bob; Vendidod (Videvdot) (Yovuz ruh va devlarga qarshi kurash qonunlar majmui) 22 bob.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra – ezgulik va yovuzlik olami mavjud. Yaxshilik (ezgulik) olamiga Ahuramazda, yomonlik (yovuzlik) olamiga esa Ahriman (Angramanyu) boshchilik qilar ekan. Har narsaga qodir iloh Ahuramazda dunyoning o'n ikki ming yil davom etishini belgilab qo'ygan. Shunga ko'ra dastlabki uch ming yillikda ruhiy dunyo yetakchilik qiladi. Ahuramazda borliqdagi barcha yaxshiliklarning, ezguliklarning asosichisi, ijodkoridir. Shundan so'ng yovuzlik olami (Ahriman) paydo bo'ladi. Bu ikki kuch orasidagi kurash ham uzoq tarixga ega. Bu kurash to'qqiz yuz yil davom etadi. Oqibatda Ahuramazda yengib chiqishi kerak. Ahriman esa yer ostiga, qorong'ulikka haydaladi. Ikkinci uch ming yillikda Ahuramazda moddiy olamni yaratadi. Osmon, er, suv, o'simliklar, hayvonot olami yuzaga keladi. Natijada birinchi «odam» yaratiladi. Uchinchi ming yillikda Ahriman yovuz devlari bilan Ahuramazda yaratgan olamga kirib keladi. U dastlab yerdagi birinchi inson Qayumarsni o'ldiradi. Ammo, bu bilan odam zoti yo'qolib ketmaydi. Balki uning odam qismidan odamlar va ezgulik, buqa qismidan esa hayvon va don turlari paydo bo'ladi. Keskin kurashlar natijasida ezgulik kuchlari yengib chiqadi.

Uslubiy tavsiyalar:

Ma'ruza oxirida 10 – 15 daqiqa vaqt qoldirib, talabalarga mustaqil ijodiy ishlashi uchun imkoniyat yaratiladi. Maqsad, darsni mustahkamlash orqali talabalarning mazkur mavzuga oid bilim va ko'nikmalarini sinab ko'rish. Odatda, axborot, ma'ruza xarakteridagi mavzularni o'tib bo'lgandan so'ng «Sinkveyn» usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. «Sinkveyn» qisqa gapda katta o'quv axborotini o'z ichiga olgan matn. «Sinkuyun» – fransuzcha so'z bo'lib, «besh» degan ma'noni anglatadi.

Dastlab «Sinkveyn» usuli talablari doskaga yoziladi, uni barcha talabalar yozib olishadi va bir varaq qog'ozga javob yozishadi. (Javob

yozilgan varaqada talabaning ismi sharifi ko‘rsatiladi). Keyin o‘qituvchi tomonidan javoblar yig‘ib olinadi. Bundan so‘ng doskada mavzu yuzasidan tuzilgan «Sinkveyn» usulidagi savollarga butun talabalar ishtirokida javoblar beriladi va mavzu xulosalanadi. Sinkveyn usuli talablari:

Birinchi qatorda mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi.

Ikkinci qatorda mavzu 2–3 ta so‘z bilan ifodalanadi.

Uchinchi qatorda mavzu bir nechta so‘z yoki gap bilan ifodalanadi.

To‘rtinchi qatorda mavzuga oid tayanch so‘z va iboralar keltiriladi.

Beshinchi qatorda mavzu mazmuniga xulosa qilinadi.

Nazorat savollari:

1. *Mif va yozma adabiyot munosabati?*
2. *Yozma adabiyotda mif va afsonaning o‘rni?*
3. *Qadimgi yozma yodgorliklarga kiruvchi manbalar?*

MONIYLIK VA BUDDAVIYLIK ADABIYOTI

REJA:

1. *Moniylik ta'limoti negizida yaratilgan adabiyot.*
2. *Budda ta'limoti asosida yaratilgan adabiyot.*
3. «*Oltin yorug'*» va «*Xuastuanift*» asarlari haqida ma'lumot.

Tayanch so'z va atamalar: *Moniylik, buddaviylik, «Oltin yorug», «Xuastuanift», Maxayana, Zardusht.*

Moniylik mazmunidagi turkiy adabiyot beshinchı asrlardan boshlab yaratila boshlagan Moniy va uning ta'limoti insoniyatda sobit va uyg'oq ruhni shakllantirib kelgan. Budda mazmunidagi turkiy adabiyot ham buddaviylik ta'limotini ilgari suradi. Ayniqsa, «*Oltin yorug*», «*Maytri smit*» asarlari Markaziy Osiyoda, xususan, Turonzaminda ma'naviy madaniyat shakllanishiga muhim hissa qo'shgan. Moniylik oqimi qadimgi turkiy muhitdagi alohida, o'ziga xos bo'lgan oqimning mahsulidir. Moniylik oqimining asoschisi – Moniy ibn Fatakdir. Moniy yoshligida ko'p sayohat qildi. O'rta Osiyoda, Hindistonda uzoq vaqt yashab, bu o'lkalardagi mahalliy dinlar, jumladan, braxmanizm, buddaviylik va nasroniylik oqimlarini chuqur o'rgandi. Ayniqsa. O'rta Osiyo va Eron hududida mustahkam ildiz otgan zardushtiylik Moniyning e'tiborini ko'proq jalb qildi. Shu sababdan o'zi yaratishni maqsad qilib qo'ygan ta'limot uchun zardushtiylikka tayandi. Jumladan, zardushtiylikda ham, moniylikda ham olamning paydo bo'lishi va tuzilishi haqidagi ta'limot bir asosga ega. Bu – Xurmuzdda mujassamlashgan Ezgulik va Nurga, Axriman (moniylikda Shmnu)da mujassamlashgan Zulmat va Yovuzlikdir.

Zardushtiylikda sinovdan o'tgan va insoniyat hayotining asosiy mazmuniga aylangan ikki qarama-qarshi ruhiy kuchlar o'rtasidagi

kurash moniylik oqimida yanada ochiqroq namoyon bo‘ldi. Moniy tarixda birinchi bo‘lib, Markaziy Osiyoda o‘zigacha yaratilgan boshqa diniy oqimlardan farqli o‘laroq, hayotga yaqin g‘oyalarni o‘zida mu-jassamlantirgan, keng qamrovli diniy tizimni yaratishga harakat qildi. Moniyning ta’limoti uning «Barhayot Injil», Shopur ibn Ardasheriga bag‘ishlab yozgan «Shopuroqon» asarlarida o‘z ta’limotini ilgari suradi.

Beruniy Moniy va uning ta’limotini tahlil qilar ekan, Budosaf, Zardusht va Buddha qatorida uni ham payg‘ambarlik da’vo qilgan kishilar qatoriga qo‘sadi. Moniy majusiylar, xristianlar va «sanaviyा» (ikkilanuvchilar) mazhablarini yaxshi o‘rgangan. Zotan, «Shopuroqon» asarida Moniy shunday deydi: «Hikmat va yaxshi amallar doimo (xudoning) elchilari vaqtı-vaqtı bilan keltirib turganlarining o‘zidir. Bir zamon u (hikmat va yaxshi amallar) Bud (Budda demoqchi – N.R.) ismli elchi orqali Hindiston mamlakatiga, bir zamon Zardusht orqali Eron zaminiga va bir zamon Iso orqali Mag‘rib zaminiga yuborilgan. So‘ngra bu oxirgi asrda men Moniyiga – haqiqiy xudoning elchisiga – shu vahiy tushirilib va shu payg‘ambar keltirilib, (men orqali) Bobil zaminiga yuborildi». Moniy haqiqatan ham payg‘ambarlik da’vo qilgan. Lekin shunisi ham borki, Buddha ham, undan keyin o‘tgan Moniy ham «hikmat va yaxshi amallar» haqida gapirmoqda. Bu hikmat va amallar nimani anglatadi? Chamasi, Moniy yuqorida-gi uchta mazhab zaminida shakllantirgan o‘zining hayotda bajarish mumkin bo‘lgan amallari, aqidalari to‘g‘risida aytmoqda.

Moniy abjad harflari tartibida yigirma ikki harfni joriy qilgan va shu harflar tartibida o‘zining Injilini yaratgan. Ana shu Injilida Moniy, Iso Masih «Euroqlit» asarida men to‘g‘rimda xabar bergan, deb payg‘ambarlar muhri ekanini dalolat qilgan. Qadimgi turkiy adabiyot ko‘p qatlamlili, turli mazmundagi manbalarga tayanishi bilan diqqatga sazovordir. Qolaversa, turkiy xalqlar yashagan zamindagi keng ommaga to‘liq ma’lum bo‘lmagan, yetib bormagan shunday yozma manbalar borki, bu yozma manbalarning turkiy xalqlar adabiyoti tarixida tutgan o‘rnini belgilamasdan turib, qadimgi turkiy xalqlarning ma’lum tarixiy bosqichdagi madaniy, ijtimoiy-siyosiy mavqeini bel-

gilab bo‘lmaydi. Milodning boshlaridagi davr mafkurasi, jamiyatdagi ma’naviy bo‘shliq aynan shu asarlar orqali to‘ldirildi. Jamiyatga komil insonni yetkazib berishday mas’uliyatli vazifani moniylik oqimi va bu oqimdagи adabiyot bajardi. Shu boisdan moniylik oqimining va uning ta’sirida yozma adabiyotning paydo bo‘lishi tasodif emas, balki zarat bo‘lgan edi. Moniylik oqimidagi adabiy yodgorlikning bizga yetib kelgan namunasi «Xuastuanift» (Moniylarning tavbanomasi) va bir qator moniylik she’rlari bunga misoldir.

«Xuastuanift»ning qadimgi turkiyda uchta nusxasi bor. London va Berlin nusxasi – moniy yozuvida, Sankt-Peterburg nusxasi – eski uyg‘ur yozuvida bitilgan. To‘lig‘i – London nusxasi, noto‘lig‘i – Berlin nusxasidir. Asar yaratilgan davr to‘g‘risida V.V.Radlov fikr bildirib, milodiy V asr deb aytgan edi, S.ye.Malov esa VII asr deb qaraydi. Moniylik oqimining mavqeyi hamda til xususiyatlariiga asoslanib xulosa chiqariladigan bo‘lsa, V.V.Radlovning fikri haqiqatga yaqin bo‘lib chiqadi. Sankt-Peterburglik L. Dmitrieva har uchala nusxa asosida 1963 yilda «Xuastuanift»ning yig‘ma matnini yaratdi.

Insoniyatni solihlikka yetaklashda dunyoning turli joylarida mushtarak yo‘llar mavjud bo‘lib, bu yo‘llar bir manzilga olib boradi. Manzil – inson, inson ko‘ngli. Hindistonda – buddaviylik, Eronda – moniylik, Yaqin Sharq mamlakatlarida – islom, aqidalar-u e’tiqodlar turlicha bo‘lsa-da, maqsad bir. Ana shu mushtarak yo‘llar bir manzilda – komillik manzilida tutashadilar. Bugun biz ko‘p gapirayotgan ma’naviyatning pirovard natijasi ham jamiyatga komil insonni tarbiyalab yetishtirishdan iborat bo‘lgan edi va shunday bo‘lib qoladi.

Komillikka erishgan jonzotlar orasida eng oliysi insondir. Komillik pandu nasihatlarga quloq tutishnigina emas, amaldagi xattiharakatni, mushohadani talab etadi. Komillikning da’vatkor qudrati adabiyotdadir. Qadimdan shunday bo‘lib kelgan va bugungacha davom etib kelmoqda. Tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turkiyzabon xalqlarning islomiyatgacha bo‘lgan adabiyoti bu jihaddan namunadir. Gap V–IX asrlarda zaminimizda yaratilgan moniylik va buddaviylik oqimidagi adabiyot to‘g‘risida ketyapti. Bu davr turkiy tilli adabiyotida aniq maqsadga – komil insonlarni

tarbiyalashga yo‘naltirilgan alohida da’vatu aqidalarni ko‘ramiz. Gap jamiyatning bunga muhtojligida emas, balki sog‘lom jamiyat barpo qilish, ruhan sobit va uyg‘oq nasl yaratishga intilishda bu davrning alohida o‘ziga xosligidadir.

Islomgacha yaratilgan yozma obidalar orasida moniylik oqimida she’rlar, «Xuastuanift» yoki (Moniylarning tavbanomasi), bud-daviylik oqimiga mansub «Maytri smit», «Oltun yorug‘» ya’ni (oltin singari nur) hamda ko‘plab buddaviylik va moniylik matnlari parchalari hamma davrda ham Markaziy Osiyo turkiy xalqlarining ijodiy mahsuli bo‘lib keldi. Mazkur adabiy yodgorliklar orasida «Oltun yorug‘»diqqatga sazovor bo‘lib, bir necha asrlar davomida Turonzaminida ma’naviy muhitning barqarorlashuvida katta xizmat qildi. Asar buddaviylikka mansub bo‘lib, xalqning shuuriy izlanishlari, e’tiqod butunligi orqali paydo bo‘ldi. Asar turkiy tilli xalqlar orasida e’tiborga molik asar bo‘lgani uchun ham X – XVIII asrlar davomida o‘n marta ko‘chirilgan va sharqdagi ko‘p tillarga tarjima qilin-gan. «Oltun yorug‘»ning Radlov – Malov nusxasi 10 kitobdan iborat. Asarni 1910-yili rus olimi S.Ye. Malov Xitoyning Gansu viloyatiga qarashli Vinshgu qishlog‘idagi buddaviylar ibodatxonasidan topgan. Asar qo‘lyozmasi 355 varaq (710 sahifa)dan iborat bo‘lib, 1687 yili ko‘chirilgan. Hozirda bu nusxa Sankt – Peterburgning Osiyo muzeyida saqlanadi. Bu asarni birinchi marta V.V.Radlov va S.Ye. Malov eski uyg‘ur-turk alifbosida chop ettinganlar. O‘nta kitob jami 31 bo‘limni o‘z ichiga oladi.

«Oltun yorug‘» asari o‘z davrida buddaviylikka e’tiqod qiluvchi qavmlar orasida keng tarqalgan. Bu asar ular e’tiqod qiladigan bud-daviylik qonunlaridan iboratdir. «Oltun yorug‘» mazmunan va mohiyatan buddaviylikning maxayana mazhabiga oiddir.

Maxayana ta’limoti O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Ayniqsa, Ku-shon davlatida shoh Kanishka hukmronligi (uning hukmronligi milodiy 78-yildan boshlangan) davrida maxayana keng tarqalib, rasmiy diniy oqim darajasiga ko‘tarildi. Kanishka buddaviylik tarixida «ikkinchi Ashok» (miloddan oldingi 274\268 – 236\234-yillarda hukmronlik qilgan shoh, u Baqtriyaga, So‘g‘dga missionerlar yuborgan)

nomi bilan shuhrat qozondi. Kanishka davrida «Oltun yorug»dan boshqa, maxayana mazhabining asosiy qoidalarini targ‘ib qildigan ko‘plab asarlar yaratildi.

«Oltun yorug» asarining qadimgi turkiydagи to‘liq *nomi* «*Altun onglug, yaruq, yaltiriqligh, qopta kötülmsh nom iliki atligh nom bütig – Oltin rangli, yorug’, yaltiroq, hamma (narsa) dan ustun turadigan no ‘m podshohi nomli no ‘m bitigi*» deb nomlanib, hozirgacha «Oltun yorug» deb nomlanib keladi. Asarning sanskritcha nomi «*Suvarnaprabxasa*»dir. «Oltin yorug»ning asl matni taxminan milodiy I asrda yaratilgan bo‘lib, sudur (sutra)lardan tashkil topgan. *Sudur* – sanskritcha so‘z bo‘lib, «hikmatli so‘z, qisqa yo‘llanma» ma’nosini bildiradi. Bu terminning boshqa ma’nolari ham bor. Har bir bo‘limda buddaviylikning muhim jihatlari to‘g‘risida Tangrilar tangrisi Burxon bilan Xo‘rmuzd hamda boshqa tangrilar o‘rtasida savol-javob kechadi. Buddaga berilgan savol bilan mavzu boshlanadi. Budda savolga javob berayotganda, orada hikoyalari ham kiritiladi. Bu asar boshdan-oxir maxayana mazhabini targ‘ib qilishga qaratildi. Savol tug‘iladi: nima uchun aynan maxayana mazhabi asosida yaratildi va Kanishka ham aynan shu ta’limotni yoyish uchun xizmat qildi. Zotan, maxayana ta’limotida ichki poklanish, ruhiy, ma’naviy sog‘lomlik bosh o‘rin tutadi. Qolaversa, Markaziy Osiyodagi azaliy ma’naviy muhit ham maxayana mazhabi bilan uyg‘unlashadi. «Oltin yorug»ning asl nusxasi yaratilish davri, birinchidan, aynan Kushon imperiyasining kuchayib, Hindistonning katta qismini egallab olgan davrga to‘g‘ri keladi. Ikkinchidan Kushon imperiyasi Markaziy Osiyodagi turkiy qavmlar davlati bo‘lgani bois bu imperiya hukmronligiga qadar buddaviylik O‘rta Osiyoda, xususan, Janubiy O‘zbekiston hududida endi yoyilib borayotgan edi.

Maxayana «katta g‘ildirak» yoki «najotning katta yo‘li» degan ma’noni bildirib, buddaviylikda asosiy yo‘nalishlardan biridir. Maxayana mustaqil yo‘nalish sifatida milodgacha 1 asrda ilk buddaviylik maktabi *maxasangxiki* – asosida tashkil topgan. Maxayananing to‘liq shakllanishi milodning boshlariga – sutralar alohida guruhi sifatida

paydo bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Maxayana yo‘nalishini buddaviylik bilan shug‘ullangan Nagarjuna, Ashvagxosha, Shantarakshita, Chandrakirti kabi buyuk faylasuflar rivojlantirdilar.

Uslubiy tavsiyalar:

«FSMU» texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o‘ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Nazorat savollar:

1. *Islomgacha bo‘lgan davrdagi diniy ta’limotlar haqida ma’lumot bering.*
2. «*Oltin yorug‘» asarining mazmuni va kompozitsiyasi?*
3. «*Xuastuanift» – moniylar tavbanomasi ekanligi?*
4. *Buddaviylikdagi maxayana yo‘nalishi nima?*

YOZMA YODGORLIKlar

REJA:

1. *Turon zaminidagi qadimgi yozuv va yodgorliklar.*
2. «*Avesto*» – tarixiy va adabiy manba.
3. *O'rxun – Enasoy yodgorliklari.*
4. *Yozma yodgorliklar poetikasi.*

Tayanch so‘z va atamalar: *So‘g‘d yozuvi, xorazm yozuvi, oromiy yozuvi, «Avesto», zardushtiylik, «O'rxun-Enasoy», «Kultigin», «To‘nyuquq», «Bilga xoqon».*

Ma'lumki, Turon juda qadimiy madaniyat beshiklaridan biri. Arxeologik qazishmalar natijalarida, yunon, xitoy, hind va arab tarixchilari kitoblarida zaminimizda eramizdan oldingi bir necha ming yilliklarda ham insonlar hayot kechirganliklari haqida daliliy ma'lumotlar beriladi. Demak, qadimiy Turon zaminda muayyan kishilik jamiyati shakllangan va taraqqiy etgan. Qadimgi mif va afsonalar, «Avesto», «Behustun», «Bundahshin», «O'rxun Enasoy yodgorliklari», moniylik adabiyoti, «Xuastuanift» kabilar muayyan tarixiy ildizga ega bo‘lgan madaniy, adabiy-badiiy tafakkurning mahsulidir.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi VII–VI asrlarda O‘zbekiston hududida so‘g‘diylar, baqtriyaliklar xorazmliklar, sak va massaget elatlari yashaganlar. Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab aholi istiqomat qilgan. «Avesto»da bu hudud So‘g‘da; Behistun yozuvlari esa So‘g‘uda; Arrian, Strabon asarlarida So‘g‘diyona, deb nomlangan.

Amudaryoning quyi oqimida yashagan o‘troq dehqon elatlari Xorazmliklar bo‘lgan. Bu yurt «Avesto»da Hvarizam, Behistun yozuvlari Hvarazmish, Arrian, Strabon asarlarida Xorasmiya, deb

atalgan. Baqtriyaliklar esa Surhon vodiysi, Afg'onistonning shimoli, Tojikistonning Janubiy hududlarida joylashgan. Bu hudud «Avesto» da Bahdi, Behistun yozuvlarida Baqtrish, yunon tarixchilari asarlarida esa Baqtriana, Baqtriya deb yuritilgan. Cho'l va Amudaryo bo'ylarida ko'chmanchi massaget qabilalari yashaganlar. O'rta Osiyoning tog'lik, cho'l va sahro yerlarida asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan saklar istiqomat qilishgan.

Qadimda O'zbekiston hududida yashagan mazkur xalqlarning o'z yozuvlari ham bo'lgan. Turon va Eron o'lkalarida dastlab Oromiy yozushi keng tarqalgan. Greklar tomonidan Markaziy Osiyoning bosib olinishi natijasida grek yozushi ham qo'llanila boshlaydi. Demak, Markaziy Osiyo xalqlari dastlab oromiy, grek, forsiy yozuvlardan, keyinchalik esa «Avesto», Xorazm, So'g'd, Kushon, run (O'rx-un-Enasoy) va uyg'ur yozushi kabi turli yozuvlardan foydalanishgan.

«Avesto» yodgorligi zardushtiylikning muqaddas kitobidir. «Avesto» qadimgi mif va afsonalarni o'zida jamlagan. «Avesto» O'rta Osiyo tarixidagina emas, balki dunyo madaniyati tarixida muhim voqeadir. «Avesto» tilga olinishi bilan, albatta, Zardusht shaxsi to'g'risida ham so'z yuritiladi. Zardushtning ta'limoti «Avesto»ni yuzaga keltirdi. Zardusht «Avesto»ni qanday yaratgani to'g'risida turli rivoyatlar mavjud. Bu rivoyatlardan ma'lum bo'lishicha, «Avesto» dunyo tarixida ilk muqaddas kitob hisoblanadi. «Zardusht majusiyilar «Abisto» deb ataydigan kitob bilan yuzaga keldi. Bu kitob barcha xalqlar tillariga muxolif bir tilda yozilgan... va hamma bilishi uchun u tildagi harflar soni hamma tillar harflaridan ortiq edi». Beruniy bu o'rinda «Avesto» tilidagi undoshchlarni anglatish uchun qo'shimcha belgilarni, shuningdek, qisqa unlilarni bildiruvchi belgilarni ham nazarda tutgan.

Beruniy Zardushtning sharqda mashhur bo'lganiga oid dalillarni keltiradi. U yozadiki, ibroniylar Zardushtni Ilyos payg'ambarning shogirdlaridan biri bo'lganiga da'vo qiladilar. Yana rumliklar, yunonlar ham Zardushtni o'zlariga yaqinlashtirib, turli dalillarni keltirganini yozadi.

Beruniy «Avesto»ga oid dalillarni o'rganib, bu asarning asliyati va uning tuzilishi haqida ham dalillarni bayon qiladi. «Podsho Doro

ibn Doro xazinasida «Abisto»ning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarini o'ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtida beri «Abisto»ning beshdan uchi yo'qolib ketdi. «Abisto» o'ttiz *nask* edi, majusiylar qo'lida o'n ikki *nask* chamasи qoldi. Biz Qur'on bo'laklarini haftiyak deganimizday, *nask* «Abisto» bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir».

«Avesto» Zardusht nomi bilan bog'lansa-da, bu noyob asar bir davrning mahsuli emasligini ham ta'kidlamoq darkor. «Avesto» bir necha asrlar davomida shakllanib, yaxlit asar holiga kelgan. Bu jarayon dunyo madaniyati tarixida sinovlardan o'tgan tajriba bo'lib, «Avesto» ana shu tajribaning mahsullaridan biridir. Sharqda bu jarayonning namunalari kuzatiladi. Qadimgi Xitoydagи falsafiy risolalar, Bibliya ham shakllanganda, ana shu yo'lни – asrlar yo'lни bosib o'tgan.

«Avesto»ni Iskandar kuydirib tashlagan ekan, bugungi kundagi mavjud nusxa qanday paydo bo'lgan degan savol tug'iladi. Bu tiklangan nusxa Sosoniylar sulolasи hukmronligining ilk yillarda paydo bo'lgan. Sosoniylar sulolasining ilk hukmdori Ardasher Bobakon o'z saroyidagi Xirbadan nomli donishmandga «Avesto»ni qayta tiklash vazifasini topshiradi. Xirbadan bir qancha zardushtiy ulamolari bilan birga asarni qayta yozib olib, qaytadan tartib beradi. Shunday qilib, mavjud nusxa Sosoniylar sulolasи davrida shakllantrilgan. Shopur II davrida Ozarpod Mehrosin «Avesto»ning parokanda qismlarini to'plab, asardagi ko'plab nomlar, atamalarni sharhlab, «Zand Avesto» nomli kitob yaratadi. «Zand Avesto»ni bu ulkan asarning sharhi va «Kichik Avesto» deb aytish mumkin. Bugungi mavjud nusxa 1278-yili ko'chirilgan.

«Avesto»ning eng qadimiyligiga ko'ra, shunday xulosa chiqarish mumkinki, zardushtiylik urug'chilik jamiyatida – tabaqlashish boshlanganda va hukmron tabaqa o'z hukmini o'tkaza boshlaganda yaratilgan. «Avesto» faqat zardushtiylik oqimining muqaddas yodgorligi bo'lib qolmay, Markaziy Osiyo xalqlarining ijodiyligi qobiliyati, og'zaki ijodi, e'tiqodi va tasavvurlarining mahsuli hamdir.

Ayrim yevropalik olimlarning aytishlaricha, Zardusht o‘z davrida ta’qibga uchragan. Ammo u buyuk payg‘ambar, insoniyat najotkori deb e’tirof etilgan. Adabiyotlarda Zardushtning tug‘ilgan yilini aniq ko‘satish imkoniyati yo‘q. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, Zardusht bronza davridan temir davriga o‘tilayotgan paytda yashagan, bu davr miloddan oldingi 1500 – 1200 yillarga to‘g‘ri keladi. Zardushtning o‘z davridagi siyosiy vaziyatda muhim rol o‘ynagani uni najotkor sifatida talqin qilishga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Kohinlar xalqqa qarshi yaylovlarni tortib olib, xalq jamoa bo‘lib ishlaydigan ibodatxonalarini vayron qilib, o‘zlarining siyosatini yurgizar edilar. Buning ustiga, eski kultlarga sig‘inish oqibati ham kohinlar va zodagonlarning manfaati uchun mos edi. Mana shunday tarang vaziyatda Zardusht keng ommaning manfaatlarini himoya qilib, o‘troq chorvador qabilalarining vakili sifatida maydonga chiqdi va payg‘ambar deb e’tirof etildi. Zardusht ta’qibga uchragani uchun ham ongli ravishda unutilgani aniqroq. Yangilik va yangi g‘oyalarning taqdiri har doim oson kechavermagan.

Zardushtiylik miloddan oldingi VI asrdan milodiy VII asrgacha uzuksiz ravishda Yaqin va O‘rta Sharqning katta qismida faoliyat ko‘rsatdi. Fors davlati Sharqdagi bu hududlarni egallab olishi nati-jasida zardushtiylik ham o‘sha o‘lkalarga kirib bordi. Judaizm, masihiylik, buddaviylik kabi diniy oqimlar zardushtiylikning muhim aqidalarini, jumladan, nur va zulmat haqidagi aqidalarni o‘zlashtirdi. Ayri misollarni keltiraylik. Zardushtiylik rivoyatlariga ko‘ra, Zardusht o‘ttiz yoshga kirganda, vahiy oldi (Iso Masih o‘ttiz yoshida yer yuzida xizmatini boshlagan); Mana shu buyuk hodisa Gohlardan (Yasna 43) eslanadi va pahlaviy tilida yozilgan «Zadspram» asarida qisqacha tavsiflanadi. Bu asarda hikoya qilinishicha, bir kuni Zardusht bahor bayramida olomon bilan ishtirok etib, tongda xaomi tayyorlash uchun suvgaga boradi. U daryoga tushib, daryo oqimining o‘rtasidan suv olishga harakat qiladi. U qirg‘oqqa qaytganda (shu paytda u udumga ko‘ra, pok bo‘ldi) unga vahiy keldi. Qirg‘oqda u yaltirab turgan mavjudotni ko‘rdi, bu mavjudot Zardushtga «Yaxshi fikr» sifatida zohir bo‘ldi (Yangi Ahdning to‘rtta Xushxabarida Iso Masihning Yahyo payg‘am-

bar tomonidan Iordan daryosi suvida suvda imonga kiritilishi hikoya qilinadi. Shu lahzada Iso Masihning ustiga kaptar shaklida Muqaddas Ruh Xudo tomonidan yuboriladi). Xo‘rmuzd o‘z ta’limotini yoyish uchun Zardushtni xizmatga da’vat etgani singari, Xudo Iso Masihni xizmatga da’vat etadi. Har ikkalasi – Zardusht va Iso Masih haqiqatni insoniyatga yetkazish va yoyish uchun xizmat qiladi. Har ikkalasi, shuningdek, Buddha ham, insoniyatning najotkori sifatida talqin qilinadi. Mana shu analogiyaning o‘zi ham zardushtiylilikning Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari hayotida mustahkam o‘rin olganini dalillaydi.

O‘rxun – Enasoy yozma yodgorliklarining topilish tarixi, bu yodgorliklar yuzasidan XVIII–XIX asrlarda bo‘lib o‘tgan munozaralar, bu yodgorliklarning o‘qilish tarixi to‘g‘risida jahon turkiyshunoslari, jumladan, o‘zbek olimlari ham qator fikr-mulohazalar bildirganlar. Biz bu o‘rinda qadimgi turkiy yodgorliklarning yaratilishiga sabab bo‘lgan tarixiy sharoit va madaniy muhit to‘g‘risida qisqacha to‘xtalamiz.

Ma’lumki, turk xoqonligi barpo bo‘lmasdan oldingi Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy tarixi jujanlar (manqurtlar) tarixi bilan ham bog‘liq. Lekin ungacha ham turkiy qavmlar Markaziy Osiyoning turli hududlarida xonliklarga uyushgan, siyosiy jihatdan esa tarqoq holda yashardilar. Bu qavmlarni jujanlar temir quollar yasashga, turmushda kerak bo‘ladigan ashyolar yasashga majbur qilardilar. Jujan xonlari turkiy qavmlarni «temirchi qullarim» deb haqoratlardilar. Jujanlar asoratidan qutulish uchun 535-yili boshlangan harakat 545-yilga kelib kuchaydi. Turkiy qavmlar g‘arbiy To‘ba sulolasini bilan hamkorlikda jujanlarga qarshi kurashga otlandilar. Lekin jujanlar bilan urush boshlash uchun bir bahona kerak edi. Ashin urug‘ining yo‘lboshchisi Bo‘min jujanlar xoni Aynahayning qiziga sovchi jo‘natdi. Bo‘minning xatti-harakati Aynag‘ayga haqorat bo‘lib tuyuldi va Bo‘minning elchilari orqali unga haqoratomuz javob berdi. Bo‘minga aynan shu javob kerak edi. Bo‘min vaqtini qo‘ldan boy bermay, jangga otlandi. Tez orada Bo‘min Aynag‘ayni tor-mor qildi. Bu voq ea 551-yilda yuz bergen edi. Bo‘min jujanlar asoratidan qutulgandan keyin Bo‘min Turk xoqonligiga asos soldi.

O'rxun – Enasoy yozma yodgorliklari qadimgi turkiy adabiyotning alohida bir qatlami va yo'nalishi sifatida turkiyshunoslikda kam o'rganilgan. Bu yodgorliklarini tizimli ravishda ilk yozma adabiyotning namunasi sifatida o'rganishni boshlab bergan olim rossiyalik olim I.V.Steblevadir. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarni o'zbekchaga tabdil qilish, tadqiqot ishlari olib borishda O'zbekistonda ham ma'lum ishlar amalga oshirilgan.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar bevosita eposlar zaminida o'sib chiqqan adabiyot ekani bilan diqqatga sazovor. Shuningdek, tarixiy voqealarning xalq og'zaki ijodi ruhida bayon qilinishi yozma adabiyotning o'ziga xos turi yaratilishiga asos bo'lgan.

Ma'lumki uyg'ur yozuvi O'rxun-Enasoy (run) yozuvi bilan oldinma-keyin paydo bo'lgan. Bu yozuv ayniqsa Sharqiy Turkiston, Mavarounnahr va Xurosonda keng tarqalib uzoq vaqt iste'molda bo'lgan. Arab istilosidan keyin Arab yozuvi joriy etilgan bo'lsa-da, hatto Temuriylar davrida ham uyg'ur yozuvidan foydalanilgan. Yusuf Hos Hojib «Qutadg'u bilig» dostonining Vena kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi, Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari, Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si kabilalar uyg'ur yozuvida ko'chirilgan. Ming yildan ortiq davr ichidagi adabiy-madaniy yodgorliklarning barchasi arab tilida va yozuvida bitilgan.

O'rxun-Enasoy yodgorliklari, mazkur yozma yodgorliklar O'rxun va Enasoy daryolari havzalaridan topilgani bois, shu nom bilan ataladi. Dastlab, Enasoy daryosi bo'yalarida noma'lum yodgorliklar mavjudligi haqidagi xabarni rus xizmatchisi Remezov, shved olimi Logan Stralenberglar ma'lum qilishadi. Bu sirli yodgorliklarni o'rganish tajribasi XVIII asr boshlaridanoq boshlangan bo'lsada, dastlabki urinishlar natija bermaydi. XIX asrning birinchi choragida Grigoriy Spasskiyning «Sibirskiy vestnik» jurnalida O'rxun-Enasoy yodgorliklari haqidagi maqolasi e'lon qilinadi va u lotin tiliga tarjima qilin-gandan so'ng dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etadi.

1889-yilda fin olimlari, bu yodgorliklar fin madaniyatiga taalluqli deb xulosa chiqarishadi. Ammo, fin jamiyatining taxmini uzoqqa

bormaydi. 1889-yiliyoq rus sayyohi va yozuvchisi N.M.Yadrinsev Mo‘g‘ilistondagi Kosho-Saydam vodisida O‘rxun daryosi bo‘ylari-da Enasoy yodgorliklariga o‘xhash yodgorliklar topadi. «Noma’lum yozuv» bilan birga ba’zilari xitoy tilida, xitoycha belgilar bilan yo-zilgan edi. 1890-yilda fin-ugor jamiyatni, 1891-yilda Rossiya fanlar akademiyasining akademigini V.V.Radlov boshchiligidagi O‘rxunga katta ekspeditsiya uyushtiriladi. 1892- yilda esa mazkur ekspeditsiyalarning natijalari ikkita atlas shaklida nashr qilindi. Ammo, bu yodgorliklar ning siri birdaniga ochilmadi. Bu yozuv run (sirli) yozuv nomini oladi.

Yodgorliklarni birinchi bo‘lib, daniya olimi Vilhelm Tomsen o‘qishga muvaffaq bo‘ladi. U, bu yodgorliklarni o‘qishda turli alfavitlarga tayanmaydi, aksincha, dastavval harflarning o‘zaro nişbatli va o‘xhashliklarini aniqlashga kirishadi. U, bu yodgorliklarda bir-biriga monand va monand bo‘lmagan harflar turkumi borligini aniqladi, bu ikkala turkumdagagi harflar oldingi va keyingi qator harflar bo‘lsa kerak, bu xususiyat esa turkiy tillarga xos degan tahminga keladi. Uning tahnini to‘g‘ri chiqadi. U dastlab «tangri», «turk» degan so‘zlarni o‘qib oldi va 1893-yilning 25- noyabrida deyarli barcha harflarni aniqlab, yodgorliklarning «siri»ni ochdi. Bu orada akademik Radlov ham 15 ga yaqin harfni aniqlab olgan edi. V.V.Radlov V.Tomsenning va o‘zining kashfiyotiga tayanib, O‘rxun daryosi atrofida topilgan katta yodgorliklar matnini birinchi bo‘lib tarjima qildi. N.M.Yadrinsev topgan yodgorliklar turk xoqoni Bilgaxoqon va uning ukasi Kul Beginning qabr toshlariga o‘yib yozilgan yodgorliklar ekan. Shu vaqtidan boshlab Enasoy va O‘rxun daryolari atrofidagi yodgorliklar «O‘rxun-Enasoy yodgorliklari» deb atala boshladidi. Shu bilan birga, yodgorliklar yozuvi turkiy run yozuvi deb ham yuritildi. Chunki olimlar qadimgi german, got, fin yozuvi va boshqa yozuvlarni topganda, ularni run yozuvi (yashirin, sirli yozuv) deb nomlagan edilar. Endi bu termin O‘rxun-Enasoy yozuviga nisbatan ham qo‘llanila boshladidi.

Keyinchalik O‘rxun-Enasoy yozuvining yangi-yangi yodgorliklari topildi, o‘rganildi va aniqlandi. N.M.Yadrincev 1891-yilda Ongin daryosi atrofida yangi yodgorliklar topdi. Aka-uka Klementslar Selen-ga daryosi atrofida turk xoqonlarining maslahatchisi To‘nyuquqqa

atab yozilgan katta yodgorlikni kashf qildilar. O'rxun-Enasoy yozuvi bilan so'g'd yozuvi o'rtasida ma'lum o'xshashliklar bor. Shunga ko'ra, O'rxun-Enasoy yozuvining vujudga kelishida undan ilgari paydo bo'lган so'g'd yozuvining ta'siri bo'lган deb hisoblash mumkin.

O'rhus-Enasoy yodgorliklari til va yozuv yodgorligi bo'lishi bilan birga, tarixiy manba hamdir. Bu yodgorliklar V–VIII asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni o'rganishda qimmatli material va ma'lumotlar beradi, turli turkiy xalqlar va qabilalarining urf-odatlari, e'tiqodi va boshqalar bilan tanishtiradi. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining ma'lum badiiy qimmati ham bor. Ularda ko'pincha she'riy misralar bo'lishi bilan birga ba'zi nasriy parchalar ham she'r kabi jaranglaydi, turli tarixiy voqealar bayonida ayrim lavhalar birmuncha badiiy uslubda tasvirlanadi, badiiy til vositalari qo'llaniladi. Xususan, qabr toshlaridagi «marsiyalar»ning badiiy ahamiyati ko'proq. Ular orqali biz vafot etgan kishining ma'lum portreti bilan, motam tutuvchilarning ichki ruhiy kechinmalari bilan tanishimiz, shunga ko'ra, S.Ye.Malov V asr Enasoy yodgorliklarini «Qabriston poeziyası» deb atadi.

«Avesto», «O'rxun Enasoy» yodgorliklari va boshqa yozma yodgorliklar qadimgi O'rtta Osiyo xalqlarining tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, tili va boshqalarni o'rganishda muhim manba bo'lishi bilan birga, ma'lum adabiy qimmatga ham egadir. 1896 – 1897-yillarda Avliyo ota shahri yaqinida Talas daryosi bo'yidan V–VI asrlarga doir beshta tosh yodgorliklari va boshqa yana ko'p yodgorliklar, jumladan, qog'oz, charm, yog'och va turli idish-tovoqlarga yozilgan yodgorliklar topildi.

Kultigin bitiktoshi qadimgi turkiy adabiy muhitni o'zida to'liq gavdalantiradigan, qadimgi turkiy adabiyotning o'ziga xosligini ko'rsatadigan yozma yodgorlikdir. Kultigin bitiktoshi (731-yili o'matilgan) dagi tarixiy voqealar va eposlarga xos syujetlar, badiiytasvir vositalari yagona tizimni hosil qilgan. Mazkur bitiktoshdag'i ko'tarinki ruhni o'z vaqtida V.Tomson, P. Melioranskiy, P.Falyov kabi mashhur turkiyshunos olimlar payqagan edilar. Jumladan, P.Melioranskiy bundan yuz yillar oldin yozgan Kultigin bitiktoshiga bag'ishlangan magistrlik dissertatsiyasida mazkur yodnomadagi ko'tarinki ruh eposlarning

mahsulidir, degan fikrni aytgan edi va bu fikr o‘z isbotini topdi. Shuningdek, yodnomaning o‘ziga xos bayon qilish texnikasi ham ayni turkiy eposlar xususiyatini gavdalantiradi. Bayonning uch qismi – boshlanma, mazmun taraqqiyoti va tugallanma bu yodnomadagi hikoyani izchilligini ta’minlaydi. Bayonning bu qismlari turkiy xalqlar og‘zaki va yozma adabiyotining eng qadimiy ko‘rinishiga xosdir. Har uch qismning mazkur yodgorlikdagi amal qilish jarayoni haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun Kultigin yodnomasining dastlabki satrlari ga murojaat qilaylik: «Uza kok tangri asra yag‘iz yar qilintuqta akin ara kisi og‘li qilinmis. Kisi og‘linta uza achum apam Bomin qag‘an, Istami qag‘an olurmis. Oluridan turk bodunin alin torusini tuta birmis, itu birmis». Yuqorida ko‘k osmon, ostda qora yer yaratilganda, ikkovining o‘rtasida inson bolalari yaratilgan. Inson bolalari ustidan Bo‘min xoqon o‘tirganlar, o‘tirib, turk xalqining davlatini, qonun-qoidalari ushlab turgan, rioya qilib turgan.

Shu parchanining o‘zida boshlanma, mazmun taraqqiyoti va tugallanma ham bor. Yer-u osmoning hamda insoniyatning yaratilishi – *boshlanma*, Bo‘min va Istami xoqonlarning faoliyati – *mazmun taraqqiyoti*, qonun-qoidalarga rioya qilishlari esa *tugallanmadir*. Bitiktosh matnining boshidan oxirigacha bu uch qismdan iborat parchalar davom etaveradi.

Uslubiy tavsiyalar:

Ma’ruza oxirida 10 – 15 daqiqa vaqt qoldirib, talabalarga mustaqil ijodiy ishlashi uchun imkoniyat yaratiladi. Maqsad, darsni mustahkamlash orqali talabalarning mazkur mavzuga oid bilim va ko‘nikmalarini sinab ko‘rish. Odatda, axborot, ma’ruza xarakteridagi mavzularni o‘tib bo‘lgandan so‘ng «Sinkveyn» usulini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. «Sinkveyn» qisqa gapda katta o‘quv axborotini o‘z ichiga olgan matn. «Sinkuyun» – fransuzcha so‘z bo‘lib, «besh» degan ma’noni anglatadi.

Dastlab «Sinkveyn» usuli talablari doskaga yoziladi, uni barcha talabalar yozib olishadi va bir varaq qog‘ozga javob yozishadi. (Javob

yozilgan varaqada talabaning ismi sharifi ko‘rsatiladi). Keyin o‘qituvchi tomonidan javoblar yig‘ib olinadi. Bundan so‘ng doskada mavzu yuzasidan tuzilgan «Sinkveyn» usulidagi savollarga butun talabalar ishtirokida javoblar beriladi va mavzu xulosalanadi. Sinkveyn usuli talablari:

Birinchi qatorda mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi.

Ikkinci qatorda mavzu 2 – 3 ta so‘z bilan ifodalanadi.

Uchinchi qatorda mavzu bir nechta so‘z yoki gap bilan ifodalanadi.

To‘rtinchi qatorda mavzuga oid tayanch so‘z va iboralar keltiriladi.

Beshinchi qatorda mavzu mazmuniga xulosa qilinadi.

Nazorat savollari:

1. *Qadimgi Turonda yashagan xalqlar madaniyati, tili va yozuvi.*
2. *Qadimgi xalqlar e’tiqodi va xalq og‘zaki ijodi.*
3. *O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatida yozuvlar tarixi*
4. *Badiiy adabiyotning ilk davrida mifologiya.*
5. *Eng qadimgi og‘zaki adabiyotda tur va janrlar.*
6. *«Avesto» va «Bundahshin»da g‘oya va mazmun jihatdan o‘xshashlik.*
7. *«Avesto» da mif va afsonalar tizimi.*
8. *«Avesto» va Xorazm madaniyati tarixi.*
9. *«Xuastuanift» va badiiy adabiyot.*

ISLOM MADANIYATINING SHAKLLANISHI VA ILK MUSULMON UYG'ONISH DAVRI

REJA:

- 1. Islom madaniyatining vujudga kelishi va dastlabki davlatlar.*
- 2. Xorazmiy va ilm-fan.*
- 3. Ilm-fanda Farg'oniy va Forobiyning o'rni.*

Tayanch so'z va atamalar: *Somoniyalar, qoraxoniylar, g'aznaviy-lar, Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Forobiy.*

Arablar istilosidan keyin Markaziy Osiyo, xususan, Movaroun-nahring madaniy, adabiy jarayonida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Birinchi navbatda, ijtimoiy, siyosiy vaziyat o'zgardi, xalifalik yuzaga keldi. Davlat boshqaruvida yangicha tartib va qoidalar joriy qilindi. Xuroson noibi bo'lib turgan Ma'mun otasi Xorun ar-Rashid vafotidan keyin taxt uchun kurashlar jarayonida 813-yili Xuroson va Movarounnahrdagi katta zamindorlar Tohir ibn Husayn va boshqalar yordami bilan Bag'dodda xalifalik taxtini egalladi. Shundan so'ng Tohir ibn Husayn xalifadan keyingi ikkinchi shaxs bo'lib qoldi. U o'zining bu mavqeidan foydalanib, Xuroson va Movarounnahrdagi hokimiyatni qo'lga oldi va o'zini bu erda mustaqil hokim deb e'lon qildi. Shu yo'sinda Tohiriyilar sulolasi (821 – 873) paydo bo'ldi. Xuddi shu davrda Movarounnahrdada Somon avlodlari hukmronligi ham kuchaydi. Mahalliy hukmdorlar yordamiga suyangan xalifa Ma'mun (813–833) Asad ibn Somonning o'g'illari Nuh ibn Asadni – Farg'ona, Yahyo ibn Asadni – Shosh va Usrushona, Ilyosni esa Hirot hokimi etib tayinladi.

Tohiriyilar Movarounnahrdada Somoniyalar hokimiyatini tan olgach, Somoniyalar vassal sifatida taxt so'raydi. 841-yili Nuh ibn Asad, ko'p o'tmay Yahyo ham vafot etib, Samarqand va Shosh Ahmad ibn Asad

qo‘liga o‘tdi. U taxtni Farg‘onadan Samarqanda ko‘chirib, bu shaharni o‘z davlatining poytaxti sifatida e’lon qildi. Ahmad ibn Asad vaftidan keyin esa taxtni uning katta o‘g‘li Nasr ibn Ahmad egalladi (864 – 892).

Somoniylar davrida fors- tojik adabiyoti Movarounnahrning adabiy-ma’naviy hayotida muhim o‘rin egalladi. Adabiy jarayon ijtimoiy-tarixiy jarayondan ajralmagan holda rivojlana bordi. Ilm-fan rivoj topdi, Buxoro Sharqning yirik madaniy, hunarmanchilik va savdo markaziga aylandi. Bu haqda as-Saolibiyning «Yatimat at-dahr» asarida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

X asr va XI asrning birinchi yarmida badiiy adabiyot rivoj topdi. Biz bu davr adabiy jarayoni haqida o‘z o‘rnida to‘xtalamiz. O‘rta Osiyo madaniy hayotida arab va fors tillaridagi adabiyot muhim rol o‘ynadi. Islomning yoyilishi va O‘rta Osiyoda mustahkam qaror tolishida arab tili asosiy rolni o‘ynadi. «Tarixda favqulodda bo‘lgan va biz Uyg‘onish deb ataydigan davrni yaratgan kuchlar» (Konrad) xuddi shu davrda yuzaga keldi. Uyg‘onish davrining buyuk namoyandalari o‘zlarining amaliy faoliyati, tarix, falsafa, mantiq, shuningdek, aniq fanlar sohasidagi kashfiyotlari bilan O‘rta Osiyo tarixida chuqur iz qoldirdilar.

Somoniylar, G‘aznaviylar va Qoraxoniylar davridagi madaniy, ilmiy muhit, jamiyatning yangi bir o‘zanga solinishi natijasida Uyg‘onish davri paydo bo‘ldi. Quyida Uyg‘onish davriga asos solgan O‘rta Osiyo olimlaridan ayrimlarining faoliyati haqida qisqacha to‘xtalamiz.

Xorazmiy (taxminan 783 – 850). O‘rta Osiyoda aniq fanlarning, xususan, matematika ilmining paydo bo‘lishi Xorazmiy nomi bilan bog‘liq. Uning jahonshumul olim ekanini butun olam e’tirof etadi. Xorazmiyning ilmiy faoliyati antik davr fanidan Uyg‘onish davridagi fanga ko‘prik bo‘lib xizmat qildi. Xorazmiy haqidagi dastlabki ma’lumot X asrda Ibn an-Nadim degan olimning «al-Fixrist» («Ro‘yxat») nomli asarida uchraydi. Ma’lumot qisqa bo‘lib, quyidagicha: «*Al-Xorazmiy*. Uning ismi – Muhammad ibn Muso, Xorazmdan. U al-Ma’mun davrida Donolar xazinasi»ni boshqarish uchun tayinlan-

gan, astronomiya ilmining bilimdonlaridan. Odamlar observatoriya kuzatuvlari boshlangunga qadar va keyin ham uning ikki zижга (astronomik jadvaliga) tayanganlar. Bu zij «as-Sindxind» nomi bilan mashhur. Xorazmiyning quyidagi kitoblari bor: birinchi va ikkinchi tahrirdagi «Zij», Quyosh soatlari haqidagi kitob», «Usturloblar bilan ishlash haqidagi kitob», «Usturlobning tuzilishi haqidagi kitob», «Tarix kitobi». Keyingi tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Xorazmiy 813 – 833 yillar orasida «Tenglama va qarshilantirish hisobi mustasari», «Qo'shuv va ayiruv haqidagi kitob», «Hind raqamlari haqidagi kitob»larini yozgan. Uning »Yerning shakli haqidagi kitob»i geografiya ilmiga bag'ishlangan.

Xorazmiy yozgan kitoblarini hayotiy zaruratga bog'ladi. Xorazmning xo'jaligi uchun astronomiya va matematika nihoyatda kerak edi. Xususan, kanallar qurish uchun ularning yo'nalishini to'g'ri belgilash, sug'oriladigan erlarni o'lhash va hisob-kitoblarini olish, qishloq xo'jaligi taqvimini olib borish va boshqa qator ishlardan aynan astronomiya va matematika fanlarining xizmati kerak edi. Jumladan, algebra-ga oid risolasining debochasiga shunday yozadi: «Men tenglama va qarshilantirish hisobi haqida kitob yozdim. Bu kitob arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oladi, chunki bu odamlarga meros bo'lishuvda, vasiyatnomha tuzishda, mol-mulkni bo'lishuvda va sud ishlardan, savdo ishlardan, har turli bitimlarda, shuningdek, er o'lhashda, kanallar o'tkazishda, qurilish geometriyasida va boshqa shunga o'xshash qator ishlarda kerakdir».

Al-Xorazmiyning «Tarix kitobi» diqqatga sazovordir. Bu kitobning saqlanib qolgan parchalaridan Abu Rayhon Beruniy ham «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Muhammad s. a.v.ning tug'ilgan yilini keltirganda foydalangan. Shuningdek, Bag'dod shahrining qurilishi tarixi to'g'risida ham juda aniqlik bilan bayon qiladi: «145-yilning payshanbasida greklarning 1073-yil birinchi nison oyi (eramizning 762-yil 1-apreli) boshlandi. Shu yili al-Mansur Bag'dodni qurishni boshladi. U bu shahar Tinchlik shahri deb atadi...146-yili dushanba kuni greklarning 1074 -yili adar oyining yigirma birinchesi (763-yil 21-mart) boshlandi. Al-Mansur Tinchlik shahrini qurishni

boshladi va o‘z odamlari bilan u erga ko‘chib o‘tdi...» Shuningdek, al-Xorazmiy xazarlar tomonidan Tibilisining olinishi, Ma’mun tari-xiga oid qiziqarli voqealarni shu asarida batafsil bayon qiladi. Xullas, al-Xorazmiyning «Tarix kitobi»ning saqlanib qolgan parchalari tari-xiy voqealarga, tabiiy fanlarga oid ma’lumotlarga boydir.

Al-Xorazmiy »Erning shakli haqidagi kitob» ida butun olamning geografik joylashuvi va ularning o‘rtacha uzunliklari, qaysi gradusda joylashgani, mamlakatlar shaharlari, daryolari va xalqlari haqidagi batafsil ma’lumot beradi. Ayni paytda al-Xorazmiy yunon olimi Ptolemeyning «Geografiya» asaridan va Sharqda yaratilgan boshqa geografiyaga oid asalardan foydalangan. Al-Xorazmiy ularga qara-ganda ko‘p aniqliklar kiritgan. Ayniqsa, O‘rta Osiyo geografiyasiga, jumladan, aholining etnik tarkibi va joylashuviga oid ma’lumotlari bugungi kunda diqqatga sazovordir. Masalan, Ptolemey «Geografiya» asarida Kaspiy va Orol dengizini bitta dengiz deb qaraydi va O‘rta Osiyodagi ikki yirik daryo – Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) bu dengizlarga quyiladi, deb ma’lumot beradi. Al-Xorazmiy bu ikkala dengizni alohida-alohida deb qaraydi va ayni paytda Orolni ko‘l deb talqin qiladi va ikkila daryoning bu ko‘lga quyilishi haqida aytadi. Al-Xorazmiy Kaspiy dengizini «Xorazm dengizi, Jurjon, Tabariston va Daylam dengizi» deb atagan edi. Olim bu dengizning qirg‘og‘i che-galarini ham aniqlik bilan hisoblab chiqqan edi.

Al-Xorazmiy Kaspiy dengizini «Xorazm dengizi» deb atagan ekan, buni shunday tushunish kerak: qadimgi Xorazmnning ta’siri va mavqeい nafaqat Kaspiy dengizining sharqida va shimolida, balki bu dengizdan g‘arbda ham kuchli bo‘lgan edi.

Shuningdek, al-Xorazmiy O‘rta Osiyoning, xususan, Shosh (ho-zirgi Toshkent), Tarband, Isfijob, Usrushona kabi kichik turkiy davlatlari arablar istilosidan keyin ham mustaqilligini saqlab qolgani ni aytadi. Bu shaharlarning hozirgi qaysi hududlarga to‘g‘ri kelishi to‘g‘risida keyingi tarix asarlariga tayaniladi. Jumladan, Tarband o‘rta asrdagi O‘trordir. Al-Xorazmiy davrida Shosh va Tarband hozirgi Toshkent viloyati, Janubiy Qozog‘istonning o‘z ichiga olgan. Xullas, al-Xorazmiyning geografiyaga oid asarida hozirgi O‘zbekiston

hududidagi turkiy davlatlar, jumladan, Shosh haqida ham kerakli va ishonchli ma'lumotlarni topishimiz mumkin.

Ahmad al-Farg'oniy (797 – 865). Abu-l-Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Qatir al-Farg'oniy – O'rta Osiyodan etishib chiqqan matematik va astronom. Farg'ona vodiysi (hozirgi Quva shahri)da tug'ilgani uchun «Farg'oniy» taxallusni oлган. Yevropada lotincha lashtirilgan Alfraganus degan nom bilan mashhur bo'lgan edi. Xalifa al-Ma'mun asos solgan «Donishmandlar xonadoni» deb atalgan olimlar safida bo'lgan. Bu ulkan ilmiy markazning boshqa nomi «al-Ma'mun akademiyasi»dir. Bu akademiyaga Xorazmdan, Farg'onadan, So'g'diyonadan, Shoshdan, Forobdan, Xurosondan olimlar taklif qilingan.

Ahmad Farg'oniyning tarjima holi haqida ma'lumotlar juda kam. Farg'oniyning ilmiy ishlari unga olam miyisosida shuhrat kel-tirdi. Uning usturlobga oid ikkita kitobi bor: «Al-Komil fi-l-usturlob» («Hammasi usturlob haqida»). Shuningdek, Farg'oniyning asosiy ishlaridan bo'lgan astronomiyaga oid «Fi san'at al usturlob» (Usturlob tayyorlashga oid) asari ham mashhurdir. Bu asarining yana bir necha nomlari bor: «Djavami' 'ilm an-nudjum va-l-xarakat as-samaviya» (Yulduzlar va samoviy harakatlar haqida bilimlar to'plami), «Usul 'ilm an-nudjum» (Yulduzlar haqidagi ilm asoslari), «Al-Mudxal ila 'ilm xa'it al-aflak» (Osmon tarkibi haqidagi fanga kirish), «Kitab al-fusul attalatin» (O'ttiz bo'lim kitobi). Farg'oniyning bu asari astronomiyaga bag'ishlangan arab tilidagi dastlabki adabiyotdir.

Ma'mun akademiyasida ikkita observatoriya ochilgan va o'sha davrning eng yaxshi astronomik asbob-uskunalar bilan jihozlangan edi. Ma'mun akademiyasining astronomlari yerning atrofini, yer meridianining uzunlik darajasini o'lchaganlar, yulduzlarni kuzatganlar, Zij (jadval)lar tuzganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Farg'oniyning bu asari XII asrda arab tilidan lotin tiliga, XIII asrda Evropaning boshqa tillariga tarjima qilindi va mashhur bo'ldi. 1493-yili chop etildi. Uning astronomiyaga oid asarlari 700 yil davomida Evropada qomus va darslik sifatida xizmat qildi. Farg'oniy yerning dumaloq ekani ni ilmiy jihatdan asoslab berdi, yilning eng uzun kuni 22-iyun va eng

qisqa kun 23-dekabr ekanini aniqladi. Shuningdek, u Quyoshda dog' borligini kashf qildi va Quyosh tutilishini ham oldindan aytib berdi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, bu o'zbek olimining qimmatli il-miy merosi uning zamondosh olimlari uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Bu fikrnинг dalili sifatida shuni aytish mumkin: XII asrda Ahmad Farg'oniyning «Astoronomiya asoslari haqida kitob»i lotin va ibroniy tiliga tarjima qilingan. Ahmad Farg'oniy geografiyaga oid asarlarning ham muallifidir.

Ahmad Farg'oniy umrining oxirgi yillarini Qohirada o'tkazdi. U Qohirada usturlobni qurish bilan mashg'ul bo'ldi. Bu asbob yulduz-larning joylashuvini aniqlashda va ular orasidagi masofani o'chashda ishlatalgan. Shuningdek, Ahmad Farg'oniy Nilomer deb atalgan inshoot qurilishiga boshchilik qildi. Bu inshoot 861-yili Nil daryosi suvini o'chash uchun o'rnatildi. Bu asbob Misr xalqining hayoti uchun juda muhim bo'lgan edi. Nil suvi ayrim paytlarda ko'tarilib, botqoq hosil bo'lishiga va suv toshqini oqibatida hosilning nobud bo'lishiga olib kelardi. Yunon muarixi Gerodotning xabar berishicha, Nil toshganda nafaqat daryo sohilini, balki atrof hududlarni ham suv bosardi. Buning oqibatida Nil daryosini kechib o'tish uchun ikki kun vaqt ketardi. Ahmad Farg'oniy yaratgan Nilomer Rod orolida joylashgan bo'lib, toshqin haqida ma'lumot olish uchun muhim ahamiyatga ega edi. Bu inshoot hozirgacha odamlarning e'tiborida bo'lib keladi. 2007-yili Qohirada Ahmad Farg'oniyning haykali o'rnatildi.

Forobiy (872-yili Forob shahrida tug'ilib, 951-yili Damashq-da vafot etgan). Sharqda «muallim as-soniy» (ikkinci muallim) deb nom olgan Abu Nasr Forobiy tabiatshunoslik metafizika, matematika, mantiq, astoronomiya, tibbiyat, axloq, musiqa kabi fanlar bilan shug'ullanib, juda katta boy ilmiy meros qoldirdi. U Aristotel ishlariga sharhlar yozdi va «ikkinci muallim» degan unvon unga shu tufayli berilgan. Abu Nasrning g'oyalari ibn Sino, ibn Tufayl, ibn Rushd kabi mashhur faylasuflarning hamda o'rta asr G'arbiy Evropa falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. O'tror kutubxonasining tashkil topishi uning nomi bilan bog'lanadi.

Forobiyning tarjima holini yaratish ishlari XI asrdan boshlangan. Jumladan, shu asrda yashagan Abu Said ibn Ahmad o'zigacha, ya'ni XI asrgacha yashagan buyuk donishmandlar haqida qomus tuzgan. Ana shu qomusda Forobiyning tarjimai holi yaratilgani haqida boshqa muarixlar va biograflar Bayxaqiy, Kiftiy, ibn Abu Usaybiya, ibn Xolliqonlarning asarlarida ma'lumotlar berilgan. XI asrda yashagan Abu Said ibn Ahmadning qomusi topilmagan. Hamma manbalarda ham Forobiyning Forob (hozirgi O'tror) qishlog'ida tug'ilgani va Damashq shahriga borib madrasada muallimlik qilgani haqidagi ma'lumot berilgan. U Samarqandda, Shoshda madrasalarda o'qigani va mudarrislik qilgani haqida ma'lumotlar bor. Buyuk faylasuf ta'lif olish uchun arab xalifaligining poytaxti Bog'dodga ketadi. Yo'l-yo'lakay u Eronning Isfaxon, Hamadon, Roy (Tehron) shaharlarida bo'ladi. Forobi Bag'dodda xalifa al-Muqtadir (908 – 932) hukmronligi davrida yashadi. Bu yerda u fanning turli sohalarini va tillarni o'rgandi. Ayniqsa, tibbiyotni, mantiqni va yunon tilini puxta egalladi.

Bag'dod o'sha davr ilm ahli uchun go'yo Makka kabi edi. Aynan Bag'dodda tarjimonlar maktabi shakllangan edi. Ular Aflatuning, Aristotelning, Galen va Evklidning asarlarini sharhladilar. Bu bilan baravar ravishda Hindistonning madaniy yutuqlarini o'zlashtirish jarayoni ham kechdi. Bunday ish mustaqil ijodiy faollikni oshirdi. Forobiyning tarjimonlik faoliyatiga Yuhanno ibn Xaylon va antik davr matnlarining arab tiliga mohir tarjimon Abu Bishr Matto ustozlik qildilar. Abu Bishr Matto mantiqdan Forobiya ta'lif berdi.

Forobi 941-yili Damashq shahriga ko'chib o'tadi va umrining qolganini shu erda o'tkazadi, ilmiy ish bilan mashg'ul bo'ldi. U ilgari boshlagan «Fozil odamlar shahri haqida risola» kitobini Damashqda yozib tugatdi. Dastlabki yillari Forobiyning Damashqdagi hayoti oson kechmadi. Adabiyotlarda hikoya qilinishicha, u tirikchilik o'tkazish uchun bog'bon bo'lib ishlagan, ilmiy faoliyat bilan esa tunda mashg'ul bo'ldi. Kunduzi ishlagan mablag'iga sham sotib olardi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, Forobiya Xalab hukmdori Sayfuddin ad-Davla Ali Hamadoniy (943–967) homiylik qila boshladi.

Abu Nasr Forobiy Sharqning «ikkinci muallimi» degan nomga munosib ishlari orasida «Shoirlar san’ati qonunlari haqida» (Risola fi qavoniyi sinoat ash-shuaro) alohida o‘rin egallaydi. Aristotelning asarlari haqida fikr-mulohaza bildirish, unga sharhlar yoki undan ta’sirlangan holda asarlar yozish Sharqda katta burch sanalgan. Jumladan, Aristotelning «Poetika»siga Abu Ishoq al-Kindiy (801 – 866) degan arab faylasufi ham kichkina bir kitob yozgan. Shu bois al-Kindiydan so‘ng Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd kabi mashhur allomalar ham Aristotelning «Poetika»siga o‘zlarining munosabatlarini bildirganlar.

Forobiyning «She’r san’ati qonunlari haqida» nomli risolasi Aristotelning «Poetika»siga yozilgan sharhdir. Forobiyning yozishicha, Aristotelning «Poetika» asari oxiriga etmay qolgan. Forobiyning vazifasi mavjud «Poetika»da aytgan fikr-mulohazalarini isbotlab ko‘rsatishdan va uning ma’nolariga ishora qilishdan iborat bo‘lgan edi. U she’rdagi so‘zning vazifasi, mohiyati va maqsadi haqida fikr bildirib, birinchi navbatda, so‘zning tuzilishi va ma’noli qismlarini, jumla takibidagi rolini, nihoyat, poetik vazifasini quyidagicha ochib beradi: «...ma’noni bildiradigan so‘zlar sodda va murakkab bo‘ladi. Murakkab bo‘lgan so‘zlar biror mulohazani anglatadi, yo anglatmaydi. Mulohazani anglatadiganlarining qat’iy jazmliligi va jazmsizi bo‘ladi. Qat’iyilar yo to‘g‘ri, yo yolg‘on bo‘ladi. Yolg‘onlarining ba’zilari eshituvchilar zehniga ma’nosini bilan o‘rnashib qoladi, boshqalari esa kishi ongida narsalarning o‘xshashi – aksi bilan o‘rnashib qoladi. Mana shu narsa o‘xhatish – she’riy mulohazalar sanaladi».

Forobiy bu asarida she’r vaznlari, adabiy turlar va janrlar, she’rdagi «yolg‘on» – ko‘chimlar orqali yuzaga keladigan fantaziya kabilarning tabiatni va xususiyatlari haqida ta’rif beradi. Ayniqsa, she’riyat va shoir yoki umuman ijod ahli, ularning iste’dodi haqidagi Forobiyning aytgan gaplari bugungi adabiy jarayonda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. U yunon she’riyatiga tayangan holda so‘z yuritgan bo‘lsa ham, uning she’rni she’r qiladigan vositalar, she’riyatga qo‘ygan talablari hamma davrdagi barcha xalqlar she’riyatiga tatbiq qilinishi mumkin bo‘lgan qarashlardir. Uningcha, shoir ahli uch toifaga bo‘linadi.

Birinchi toifasi shular: shoirlar chindan ham tug‘ma qobiliyatli va she‘r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo‘ladi, tashbih va tamsilga layoqatli bo‘ladilar. Bir xil shoirlar she‘r san‘atidan etarli xabardor bo‘lavermaydi, balki tug‘ma qobiliyatining o‘tkirligi bilan qanoat hosil qiladilar. Ular o‘zlarining iste’dod darajalariga ko‘ra ish tutadilar. Ularda she‘r san‘atini o‘zlashtirib olish uchun kamolot etishmaydi. Kim o‘sha toifdagi odamning yozgan she‘rini ko‘rib, u qobiliyatli odam ekan, deb o‘ylasa, buni shunday tushunish kerakki, uning fe‘l-atvorida shoirlarga xos turq-ko‘rinish mavjudligi uchun shunday xulosaga kelgan.

Ikkinchchi toifasi quyidagilar: bu xil odamlar chinakam shoirlik san‘atini egallagan bo‘lishadi, hatto she‘riy ijodga xos xususiyatlaridan birontasi - u qaysi she‘r turiga aloqador bo‘lmashin – baribir, bu qonun-qoidalar undan qochib qutulmaydi. Ular she‘riyat san‘atida qo‘llaniladigan tashbih va tamsillarni judayam mahorat bilan ishlata-dilar. Bu toifa shoirlar chindan ham qobiliyatli shoirlar deb aytishga sazovordirlar.

Uchinchi toifasi quyidagilar: yuqorida aytib o‘tilgan ikki toifa shoirlarning fe‘l-atvoriga taqlib qiluvchilar bo‘ladi. Bu toifaga mansub odamlar ikkala toifa shoirlar yo‘lini – ijodini yod oladilar. O‘zlarida tug‘ma qobiliyati bo‘lmanan holda, she‘riy san‘at qonun-qoidalaridan xabardor bo‘ladilar, tashbih, tamsil (metafora)lar ortidan boradilar. Yo‘ldan adashadigan shoirlarning ko‘philigi ana shu tabaqa shoirlar ichidan chiqadi.

Umuman, Forobiyning mazkur risolasi o‘z davrigacha bo‘lgan adabiy jarayon qonuniyatları va yo‘l-yo‘riqlari, shoirlik iste’dodi va ijod mas’uliyati haqida to‘laqonli taassurot qoldiradi. Forobiyning «Fozil odamlar shahri», «Baxtga erishish haqida risola», «Jamiyatni o‘rganish haqida risola» kabi qator asarlari ijtimoiy hayot qurilishiga bag‘ishlangan. U Aristotel va Aflatuning, shuningdek, boshqa yunon faylasuflarining siyosiy va axloqiy g‘oyalariga va qadimgi Sharqning ijtimoiy g‘oyalariga tayanib, davlat va jamiyat qurilishining nazariyasini ishlab chiqdi. Fazilatli shaharlar tepasida faylasuf hukmdorlar

turadilar, ayni paytda ular diniy jamoa rahbarlari hamdir. Fazilatli shaharlarda jamiki aholi uchun chinakam baxtga erishish yo'llari ko'rsatiladi, bu shaharlarda yaxshilik va adolat hukmron bo'ladi, adolatsizlik, yovuzlik qoralanadi. Forobiy fazilatli shaharlarga johil shaharlarni qarama-qarshi qo'yadi. Johil shaharlarning hukmdorlari va aholisining chinakam baxt haqida tasavvurlari mutlaqo yo'q, bunday baxtga ular intilmaydilar. Ular faqat tana sog'lig'iga, tana lazzatida va boyligiga intiladilar.

Sog'lom va benuqson jamiyat hamda mamlakat, xalq va hukmdorlarning o'zaro muvofiqati mamlakatning iqtisodiy, ma'naviy va harbiy qudrati oshib borishiga omil bo'lishi haqidagi qarashlar Sharqdagi ko'p asarlarda aytib o'tilgan. Jumladan, «Oltin yorug'» asarida ham sog'lom mamlakat qanday bo'lishi kerakligi haqidagi o'gitlar, jumladan, xalq hukmdorning yo'l-yo'riqlaridan og'ishmasligi, jamiyi jonzotlarga yaxshilik qilish lozimligi kabi o'gitlar bor edi. Yoki «Qutadg'u bilig»dagi ideal hukmdorlar, xalq va mamlakat haqidagi qarashlar bilan Forobiyning bu boradagi g'oyalari o'rtasida shubhaisiz bog'lanishlar bor. Zotan, Forobiy o'z asarlarida arab, yunon, fors, hind va turkiy madaniyatni bir-biriga yaqinlashtirgan, omuxtalashtirgan olim edi.

Forobiy ayni paytda fanning ilohotchisi bo'lib ham maydonga chiqdi. U «Fanlar tasnifi haqida so'z» asarida pedagogika fanining islohotchisi sifatida ko'zga tashlanadi. U keng ommaga bilimni tarqatish, ma'rifatni rivojlantirish orqali odamlarda insoniy fazilatlarni rivoj toptirish g'oyasini ilgari surdi. U insonlarda axloqiy tarbiyaga alohida urg'u berdi. Uningcha, jamiyatning yuksak axloqiy qiyofasi uning gullab-yashnashi uchun asosiy omildir. Shuningdek, uning mazkur asarida ustozga qo'yilgan talablar ham e'tiborga molik. Ustoz uchun, – deydi Forobiy, – adolatparvarlik, talabchanlik, e'tiborlilik, iroda kuchi, sabr-toqat xislatlari muhimdir. Muallimning xulq-atvori, Forobiyning fikricha quyidagicha bo'lishi lozim: u o'ta qattiqqo'l ham, haddan ortiq erkatalib yubormasligi kerak, chunki qattiqqo'llik ta'lim oluvchida o'z ustoziga nisbatan ziddiyatni paydo qiladi, haddan ortiq

erkalatish oqibatida esa ustozni hurmat qilmay qo‘yadi. Forobiy musiqaga, matematikaga va fanning boshqa sohalariga oid ilmiy meros qoldirdi. Fanning barcha sohalariga oid 150 dan ortiq asarlari ma’lum.

Uslubiy tavsiyalar:

Iloji boricha ma’ruza oxirida 10 – 15 daqiqavaqtqoldirib, talabalarning ko‘nikmalarini mustahkamlash mumkin. Talabalar belgilangan vaqt davomida «adabiyot», «adabiyotni davrlashtirish» tushunchalarining klasterini yaratishi lozim bo‘ladi.

Klaster haqida ma’lumot: Klaster atamasi «g‘uncha, bog‘lam» degan ma’noni anglatib, talabalarning muayyan mavzu yuzasidan erkin fikrlashiga, o‘z munosabatlarini ochiq-oydin ifodalashiga imkon yaratuvchi, ta’limdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri.

Nazorat savollari:

1. *Somoniylar davlati haqida ma’lumot bering.*
2. *Xorazmiy – qomusiy olim.*
3. *Farg‘oniyning astranomiyaga oid asarlari.*
4. *Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asari tematikasi.*

G‘AZNAVIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRI ADABIYOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

REJA:

1. *G‘aznaviyalar hukmronligi davrida ilm-fan.*
2. *Qomusiy ilmlar taraqqiyotida Beruniy va Ibn Sinoning o‘rni.*
3. *Qoraxoniylar hukmronligi davrida adabiyot: Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yughnakiy ijodi.*

Tayanch so‘z va atamalar: *G‘aznaviyalar, qoraxoniylar, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yughnakiy, doston, hikmat.*

G‘aznaviyalar davlatining o‘z qo‘li ostida olib borgan siyosati ilmiy va madaniy muhitga keskin ta’sir o‘tkazdi. G‘aznaviyalar davlatining ilmiy, madaniy va adabiy muhiti XI asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy merosida namoyon bo‘ladi. Aytish mumkinki, G‘aznaviyalar davlatining butun yantuqlari, ilmdagi, adabiyotdagи muvaffaqiyatlarini belgilovchi omil – Beruniyning asarlaridir. G‘aznaviyalar sulolasida yaratilgan adabiyot alohida adabiy davrni hosil qilgани biz uchun muhim.

Beruniyning «Osor ul-boqiya» (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) asari G‘aznaviyalar davri adabiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘sildi. Mazkur asar tarixiy-etnografik asar bo‘lgani holda, qadimgi rivoyatlar, afsonalardan ham Beruniy mahorat bilan foydalandi. Asarning yana bir qimmatli tomoni shuki, O‘rta Osiyoning arablar istilosidan keyingi madaniy muhiti, ilmiy tafakkuri, ijtimoiy, siyosiy tarixi haqida ham ma’lum darajada ma’lumot beradi. Jumladan, Beruniy arablar kelgunga qadar Xorazmning o‘ziga xos ilmiy maktabi, yuksak madaniyati borligini ta’kidlaydi, Arablar istilosini esa Xorazmning an‘anaviy madaniyatini yo‘q qildi. Beruniy bu asarida bu

voqeaga quyidagicha sharh beradi: «Qutayba Ibn Muslim al-Bohiliy xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar».

Umuman, tarixiy asarlar tarkibiga adabiy parchalarni kiritish bilan Beruniy o'zining adabiyotga munosabatini ko'rsatib qolmadı, balki XI asrgacha Mavarounnahrdagi adabiy muhitning uzlusizligini dalil-ladi, o'z she'rlari bilan Mavarounnahr adabiyotiga katta hissa qo'shdi. Beruniyning «Osor ul-boqiya» asari Yevropada «Xronologiya» degan nom bilan ham yuritiladi.

Beruniy «Mineralogiya» kitobida Xorun ar-Rashid haqidagi hikoyalarni keltirsa, «Osor ul-boqiya»da rivoyat va afsonalarni ma'lum bir dalil sifatida keltiradi. «Mineralogiya» kitobidagi hikoyalarni qimmatbaho mineral toshlar munosabati bilan keltiriladi, ayni paytda Abbosiylar sulolasi hukmdorlaridan Xorun ar-Rashidning xarakteriga xos ayrim jihatlar, uning saxiy, mazlumlar dodiga yetadigan adolatli hukmdor ekani ochib beriladi.

Ma'mun Xurosandan qaytib kelib, Bag'dodga kirganda, Fadl ibn ar-Rabi uzuk uchun zumrad toshni sovg'a qilibdi. Bunaqa toshni haligacha biron odam ko'rmangan ekan. Ma'mun o'sha uzmrad toshni u qo'lidan-bu qo'liga aylantiribdi-da, atrofidagilarga aytibdi: «Bu toshdan chiroylisini ko'rmangan edim». Keyin u shunday hikoya qilib beribdi: Abu Muslim Ziyod ibn Solihni Xitoyga jo'natibdi, u esa Abu Muslimga uzuk uchun qimmatbaho toshni jo'natibdi. Tosh Abu Muslimdan Abul Abbas as-Saffohning qo'liga o'tibdi. As-Saffoh toshni Abdulloh ibn Aliga hadya qilibdi. Undan esa al-Mahdiga, keyin ar-Rashidga hadya qilinibdi. Ar-Rashid qo'ndoqli kamondan o'q otganda, tosh uzukdan tushib qolgan ekan. Bu joyni va butun atrofni titib, qidirib chiqishibdi, ammo toshni topa olmabdilar. Ar-Rashid qat-tiq xafa bo'libdi. Xazinabon yigirma ming dinorga oldingidan ham qimmatliroq toshni sotib olib, ar-Rashidga jo'natibdi va shu yo'l bilan unga tasalli bermoqchi bo'libdi. Ar-Rashid toshga qarab, shunday debdi: «Mening toshim bilan uning nima ishi bor ekan!» Shunda Ma'mun aytibdi: «Menga bu toshning hech qanday qimmati yo'q, uni qadrla-

shimdan hech qanday ma’no yo‘q». Ma’mun zumrad toshni al-Fadlga qaytarib yuborar ekan, uning chopariga shunday debdi: «Unga «Ey Abul Abbas, hokimiyatning nihoyasiga yetdi», deb ayt», deya tayinlabdi. Zumrad tosh al-Fadlning qo‘liga yetib kelgach, toshga tikilib qarab tutibdi-da, a’yonlaridan biriga aytibdi: «Bugundan e’tiboran, Ma’mun bir yil ham yashamaydi», debdi. Kech kirmasdanoq, bu gap Ma’munning qulog‘iga yetib kelibdi, ammo u bu gapni sir saqlabdi va bir yilgacha hech kimga bu haqda og’iz ochmabdi.

Abbos ibn Musabiyyani oxirgi yo‘lga kuzatib, otida kelayotgan ekan, Suriya darvozasida al-Fadlning o‘g‘illaridan biri uning qarhisidan chiqib qolibdi. Ma’mun al-Fadlning o‘g‘li bilan salomlashibdi va «Yaqinroq kel», deb iltimos qilibdi. Ma’mun egilib, uning qulog‘iga shivirlab aytibdi: Abul Abbosga, muddat o‘tib ketibdi, deb ayt». Olloh nomi bilan qasam ichamanki, Umar ibn Abdulaziz butun olamni egallagan bo‘lsa ham, bu toshlarni va shunga o‘xhash buyumlarni, asosan, bu dunyoning narsalarini qimmatli deb qaramas ekan. Uning o‘g‘li Abdulla uzuk oldi va uzuk uchun ming dirhamga tosh sotib oldi. Umar ibn Abdulaziz gapni eshitgan zahoti, o‘g‘liga shunday deb maktub yozibdi: «Sen uzuk sotib olganing va uzuging uchun ming dirhamga tosh sotib olganing haqidagi gaplar menga yetib keldi. Mening qarorim shuki, sen uzukni sot va puliga mingta och odamni to‘ydir; o‘zingga kumushdan uzuk va muhr yasattir. Uzukka shunday deb yozdir Ollohning qudratini biladigan odamni Uning O‘zi kechirsin!» Abdulla xalifa buyurganiday qildi.

Abu Rayhon Beruniyning «Osor ul-boqiya» asari tarkibida afsonalar va rivoyatlar ma’lum bir tarixiy voqeani dalillash yoki rad qilish uchun keltiriladi. Zotan, u bu asarining yozilish sabablarini ko‘rsatadi, ammo amalga oshirish nihoyatda murakkab bo‘lganini yozadi. Ayniqsa, qadimgi xalqlar va ularning yil hisoblari haqidagi rivoyatlar chalkashib ketgani, yolg‘on afsonalar va asossiz ma’lumotlarga to‘lib-toshib ketganini ta’kidlaydi. Ayni paytda, Beruniy rivoyat va afsonalarning haqiqiyalarini ajratib, saralab olish uchun imkonli boricha harakat qiladi. Beruniyning bu tamoyili ham tarixiylik va haqqoniylikka asoslanganini sezish qiyin emas. Yolg‘on va soxta rivoyatlar

qadimgi Sharq xalqlarining hisoblari haqidagi aniq ilmiy xulosalarga xalaqit berishi, aynilsa, yolg‘on xulosalarga olib kelishi haqida yoza-di. Beruniyning asosiy maqsadi turli xalqlardagi yil hisobiga aniqlik kiritish, ularda ilgari tadqiqotchilar yo‘l qo‘yan kamchiliklarni tuza-tish edi. Beruniy yil hisobi uchun rivoyat va afsonalar, hikoyatlarning niroyatda muhim dalil ekaniga ishonadi, ularga suyanadi, ishonchsiz, shubhali rivoyatlar va afsonalarni rad qiladi. U rivoyat va afsonalarni tanlashda o‘zi tayangan asoslangan usul haqida shunday yozadi: «Men tutgan yo‘l va belgilagan usul oson emas, balki uzoq va qiyin yo‘ldir. Xabar va rivoyatlarga ko‘plab kirib qolgan yolg‘on so‘zlarning ham-masi ham ravshan emas. Boshqa dalillar bo‘lmaganda ba‘zilarining yolg‘onligini bilib bo‘lmasdi. Odamlar hozir ham, o‘tgan zamonalarda ham shunday tabiiy hodisalarga duch kelgan, agar o‘shanday hodisalar uzoq zamonalarda yuz bergan deb hikoya qilinsa, albatta biz unga ishonmas edik. Xalqlardan biriga tegishli xabarlarining hamma-sini aniqlab bilishga inson umri kifoya qilmaydi-yu, hamma millatlar haqidagi xabarlarni bilishga qanday kifoya etsin?! Bu mumkin emas!»

Beruniyning rivoyat va afsonalarga bunday yondashuvidan o‘zi-ning pozitsiyasini aniqlashtiradi: u mazkur asarida nafaqat etnograf tarixchi, balki adabiyotshunos olim sifatida namoyon bo‘ladi. U dunyo xalqlari adabiy jarayonidan yaxshi xabardor, o‘z davridagi va o‘zidan oldingi adabiy jarayonning qonuniyatlarini biladi. Rivoyat va afsonalar xalqqa yaqin adabiy janr bo‘lgani uchun ham Beruniyning diqqatini ko‘proq tortgan. O‘z davriga yaqin bo‘lgan rivoyatlarga murojaat etish tarafdoi. Nima uchun u shunday fikrda? Chunki rivoyatlar zamondan uzoqlashgan sari asliyatdan, haqiqiyligidan uzoqlashadi. Beruniy bu hodisaning qonuniyat ekanini adabiyotshunos sifatida yaxshi biladi. Beruniyning afsonalarni saralab olish tamoyilini quyidagicha bayon qiladi: «Ish shu yo‘ldan boradigan bo‘lgach, u rivoyatlarning davrim-izga eng yaqin va eng mashhurini, so‘ngra yaqinroq va mashhurrog‘ini [birin-ketin] olishimiz lozim. Ularning ba‘zilarini o‘z arboblaridan qabul qilib, tuzatish mumkin bo‘lganini tuzatamiz, boshqalarini o‘z holicha qoldiramiz. Shunda biz keltirgan rivoyatlar haqiqatni qidiruv-chi va hikmatni sevuvchining boshqa rivoyatlar ustida ish yurgizishiga

yordamchi va bizga tuyassar bo‘limgan narsalarga erishish uchun yo‘lovchi bo‘ladi. Biz Xudoning xohishi va yordami bilan shunday qildik». Ko‘ryapmizki, Beruniy rivoyat va afsonalarni tanlash metodlarini ishlab chiqib bizga taqdim qilmoqda. Bu metod esa yana bir bor *tarixiylik* prinsipi badiiy asarni tanlash, o‘rganish, undan foydalanishga alohida e’tiborni tortadi.

Ibn Sino (to‘liq nomi – Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino; 980 – 1037). Ibn Sino o‘rtalasiga Sharq olamida tibbiyat, kimyo, astronomiya, mexanika, falsafa, psixologiya, adabiyot, musiqa kabi qator fanlarni puxta egallagan va bu fanlarga doim asarlar yaratgan ulkan olimdir. U fanning 29 sohasiga oid 450 ta asar yozgan bo‘lib, shundan 240 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning asarlari, asosan, arab tilida. U tug‘ilgan paytda Buxoroda Somoniylar hukmronlik qilardi. Qoraxoniylar sultanati Somoniylar sulolasini yiqitgach, ibn Sino Urganchga Xorazm hukmdorlari saroyiga (1002-yili) xizmatga bordi. Bu yerda u «tabiblar begi» degan nomga musharraf bo‘ldi. Mahmud G‘aznaviy saroyida xizmat qilishni rad etgach, Hamadonga ketdi. 1015–1024 yillari Hamadonda yashadi, amir Shamsiddin ad-Davlani shifolagandan keyin, vazir lavozimiga ko‘tarildi. Atrofida-gi unga nisabatan dushmanlik kayfiyatida bo‘lganlarning chaquvi bilan Shamsiddin al-Davla o‘z hukmronligi hududidan chiqarib yubordi. U yana qattiq betob bo‘lib qolgach, ibn Sinoni toptirib keldi va yana vazir lavozimiga tayinladi. Shamsiddin al-Davla vafot etgach, Isfahonda (1023 – 1037) umrining oxirigacha amir Aloud – Davla saroyida yashadi.

Ibn Sino qomusiy olim, noyob xotirasi, fikrining teranligi bilan alohida ajralib turardi. U, birinchi navbatda, dunyo tabobat ilmiga ulkan hissa qo‘shgan olimdir. Ibn Sino jahon tabobat ilmiga qanchalik hissa qo‘shgan bo‘lsa, badiiy ijod sohasida ham o‘z davrida katta meros qoldirdi. U faylasuf olim sifatida tanqidlarga ham uchradi, ayni paytda uning qarashlarini qo‘llab-quvvatlovchi (masalan, Nosiruddin Tusiy) mutafakkirlar ham bo‘ldi. Shuningdek, Umar Xayyom ibn Sinoni falsafa sohasida o‘zining ustozи deb bilgan.

Ibn Sinoning butun ilmiy faoliyatini quyidagi asarlarda jamlangan:

1. «Al Qonun fi-t-tibb» (Tib qonunlari) – o‘z davridagi tibbiyot ilmining nazariy va amaliy masalalarini bir tizimga solgan tibbiy qomus;
2. «Kitob ash-shifo» (Shifolash kitobi) – falsafiy qomus bo‘lib, to‘rt qismdan iborat: mantiq, tabiiy fanlar, matematikaga oid fanlar, metafizika (ya’ni ilohiyot);
3. «Kitob an-najot» (Najot kitobi) – «Kitob ash-shifo»ning qisqartirilgan shakli;
4. «Donishnoma» (Bilimlar kitobi) – fors tilidagi falsafiy asarlari, asarda nazariy falsafaning, jumladan, mantiqning ko‘plab masalalarini o‘rtaga tashlaydi;
5. «Risola al-iksir» (Eliksir haqida risola) – kimyo faniga bag‘ishlangan bo‘lib, metallarni o‘zgartirishning amaliy usulini tadqiq etgan;
6. «Al-adviyat al-qalbiya» (Yurak xastaliklari shifosi) – yurak xastaliklariga shifo berishga oid falsafiy-tibbiy asar, shuningdek, muallif ruh haqidagi qarashlari va mulohazalarini ham bu kitobda bayon qildi;
7. «Solomon va Ibsol», «Hayy binn Yaqzon» (Uyg‘oq o‘g‘li Tirik) – bu ikki asar adabiy-falsafiy qissalardir;
8. Ibn Sino va Beruniyning fizika (ya’ni tabiatshunoslik) va falsafaga oid yozishmalari – bu yozishmalarni olimlar «asr yozishmalari» deb ataganlar. Yozishmalarda Ibn Sino Aristotel (mil.avv. 384 – 322) ning tabiatshunoslik ayrim masalalariga oid ta’limoti haqida Beruniy bilan munozara qildi; bu masalalar – tana va moddalarning tabiiy o‘rni, tananining markazdan qochuvchi kuchi, eng mayda qismlarning bo‘linuvchanligi, olamlarning ko‘pligi, moddalarning o‘zidan o‘zi o‘zgarishi va boshqalar edi.

Ibn Sinoning tibbiyotga oid asari XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan va XV asrdan beri 40 marta chop etilgan. XVIII asrgacha Yevropaning hamma universitetlarida uning «Tib qonunlari» asaridan tibbiyot bo‘yicha darslik sifatida foydalanganlar.

Yevropaning buyuk faylasuf va madaniyat arboblari Rodjer Bekon (XIII asr), Dante (XIII – XIV asr), Leonardo da Vinci (XV – XVI), Mikelanjelo (XV – XVI), Vezaliy (XVI), Gyote (XVIII – XIX) kabilarning falsafiy qarashlariga va nazariyalariga IbnSinoning ta'siri juda kuchli bo'lgan edi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari asosan, uning «Tayr», «Solmon va Ibsol» kabi badiiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Ibn Sino Aristotelning qarashlariga ergashdi. Aristotel «Metafizika» asarida yaratilish haqida shunday g'oyani ilgari suradi: «Shakl buyumga haqiqiy mavjudlikni ato qiladi, materiya esa o'zida buyumning mavjudligi imkoniyatini qamrab oladi. Masalan, haykal haqiqiy buyum, ammo haykal yasalgan materialga shakl berilmasdan oldin, u layoqatga, haykal bo'lish imkoniyatiga ega edi». Ibn Sino metafizika predmetini tushunishda Aristotelga ergashgani bois, boshqa narsa sababidan mavjud bo'lgan borliq bilan o'zi sababli mavjud bo'lgan borliqning mutloq zarurligini farqlaydi. Ibn Sino olamning Yaratuvchi bilan birga abadiyligini tasdiqlaydi. Ibn Sino bu qarashi bilan oliy muhabbat obyekti – Yaratuvchi bilan ashyolar o'rtasidagi bog'liqlikni nazarda tutadi. Ibn Sinoning bu qarashi Aflatunning «Olam sevgi asosida vujudga keladi va shu qonuniyat bilan harakat qiladi» degan nazariyasiga hamohangdir.

Xullas, ibn Sino o'z falsafiy asarlarida qadimgi yunon falsafasini yangi g'oyalilar bilan boyitib, rivojlantirdi. Uning badiiy asarlari ham, shubhasiz, O'rta Osiyo falsafiy tafakkurini rivojlantirishga, axloqiy va ta'limiy g'oyalarni yoyishga katta xizmat qildi. Aytish mumkinki, ibn Sinoning barcha badiiy asarlari O'rta asr O'rta Osiyo adabiyotidagi bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Ibn Sinoning o'z davridan beri ko'pchilikning e'tiborini tortib kelgan asari «Hayyi bin Yaqzon» asaridir.

Qoraxoniylar davridan madaniy yodgoriklar kam saqlanib qolgan. Yozma adabiy yodgorliklar «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit-turk», «Hibatul - haqoyiq»dan tashqari, arxitektura va amaliy san'at namunalari – Buxorodagi Minorai Kalon, Navoiy shahri yaqinidagi Raboti Malik karvonsaroyi, O'zgan shahridagi ayrim maqbaralar Qoraxoniylar davridan etib kelgan.

Yusuf Hos Hojib va «Qutadg‘u bilig» dostoni. XI asrning qomusiy bilim sohibi, davlat arbobi Yusuf Hos Hojib turkiy tildagi ilk badiiy doston muallifidir. «Qutadg‘u bilig» (Saodatga eltuvchi bilim) dostoni barcha turkiy xalqlarga mushtarak bo‘lgan ma’rifiy-didak-tik asardir. Yusuf Hos Hojibning hayoti va ijodi haqida juda ham oz ma’lumotlar etib kelgan. Faqat, dostonning muqaddima qismida o‘zi tug‘ilgan zaminni quyidagicha tasvirlaydi:

*Munuqi turug ‘laq Quz O‘rdu eli,
Tub-asli, nasabdin yurumish tili.*

Tabdili:

*Buning tug‘ilgan eli Quz O‘rdudir,
Tub-asli, nasl-nasabidan tili so‘z ochdi.*

Ushbu satrlardan ma’lum bo‘lishicha adibning tug‘ilgan yurti qoraxoni hukmdorligining markazlaridan biri bo‘lgan Quz O‘rdu (Bolosog‘un)dir. Yusuf Hos Hojib «Qutadg‘u bilig» dostonida asarni yozib tugatgan yili va o‘zining yoshi haqida ham ma’lumotlar beradi:

*Tegurdi manga ellik yashim
O‘qir altmish emdi manga kel teyu.
Yil altmish eki erdi to‘rt yuz bila,
Bu so‘z so‘zladim man tutub jan sura.*

Ko‘rinadiki, shoир dostonni yozib tugatganida yoshi ellikkarda bo‘lgan, hijriy 462-yilda (1069–1070) «Qutadg‘u bilig» yozib bo‘lin-gan. Demak, shoирning yoshi ellikkarda bo‘lsa, hijriy 410-yillarda (1019–1020) tavallud topganligini aniqlash mumkin. Shuningdek, shoир keyingi satrlarda dostonni Bolosog‘unda yoza boshlagani, Qash-qarda yozib tugatganini ta’kidlaydi. Yusuf Hos Hojib o‘z asarini qoraxoni hukmdorlaridan bo‘lgan Tabg‘och Bug‘raxonga taqdim etadi. Hukmdor uni ulug‘lab «Hos Hojib» (mukarram, eshik og‘asi) unvoni ni beradi. Shundan so‘ng Yusuf Hos Hojib nomi bilan taniladi.

Yusuf Hos Hojibning hayoti hamda «Qutadg‘u bilig» dostoni A.Vamberi, Morik, V.Radlov, A.Bombachi, S.E.Malov, V.V.Bartold,

A.Samaylovich, N.A.Yudahin, N.A.Baskakov, A.N.Kononov, E.R.Teneshev, A.Valitova, I.V.Stebleva, S.N.Ivanov, M.F.Kuprulizoda, Rashid Rahmati Arat, Fitrat, Q.Karimov, B.To‘xiev, Z.Sodiqov singari yirik olimlar tomonidan puxta o‘rganilgan.

Yusuf Hos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostonini akademik tarzda bat afsil o‘rgangan, shuningdek, bolalarbop variantini yaratgan olim B.To‘xievdir. «Qutadg‘u bilig» (Baxt-saodatga eltuvchi bilim) 1069–1070 yillarda yozib tugatilgan. Asarni yozish uchun o‘n sakkiz oy vaqt sarflangan. Turkiy adabiyotdagi ilk-yirik, aruzda bitilgan badiiy doston. Doston aruzning mutaqorib bahrida, asosan masnaviy (ikkilik) shaklida yozilgan. Bundan tashqari dostonda murabba’, ruboiy, qasida janrlariga mansub namunalar ham mavjud. Ma’lumki, qoraxoniyalar hukmdorligi davrida turkiy til so‘zlashuv, ilm-fan, badiiy ijod tili si-fatida joriy qilingan. Shoirning o‘zi «Men turkcha so‘zlarni yovvoyi tog‘ kiyigi singari deb bildim, shunga qaramay ularni avaylab-asrab qo‘lga o‘rgatdim» deya yozadi. Bu davrda turkiy tilning mavqeい va «Qutadg‘u bilig» dostonining nafaqat adabiy asar, balki, o‘sha davr uchun ijtimoiy-ma’naviy qomus bo‘lganligini quyidagi satrlardan bilib olsa bo‘ladi:

*Har bir kend qishloq, shahar, o‘rda, saroyda,
Kitobga boshqacha ot qo‘yanlar.
Chinliklar «Adab ul-mulk» deb aytadilar.
Mochinliklar esa «Anis ul-mamolik» ataydilar.
Bu Mashriq elida ulug‘lar buni,
Chindan «Ziynat-ul umaro» deydilar.
Eronliklar buni «Shohnoma» deydilar,
Turonliklar «Qutadg‘u bilig» deb anglaydilar.*

«Adab ul-mulk» (Hukmdorlar odobi); «Anis ul-Mamolik» (Mamlakatning tartib usuli); «Ziynat-ul umaro» (Amirlar ziynati); «turkiy shohnoma». Dostonning uchta nushasi ma’lum. Bular: Hirot-Vena (uyg‘ur yozuvida); Qohira va Namangan (Arab yozuvida) nushalari. Dastlab, 1947 yilda dostonning 3 ta nushasini qiyosiy o‘rganib, tanqidiy matnini yaratgan turk olimi R.R.Aratdir. O‘zbek olimlaridan

Qayum Karimov 3 ta nushani solishtirgan holda, 1971-yili «Qutadg‘u bilig»ning tanqidiy matnini tayyorladi va nashr ettirdi.

Doston muqaddima va hotimadan tashqari 73 bob, 6500 baytdan iborat. Nasriy muqaddima tugagach, 77 baytdan iborat she’riy muqaddima keladi. So‘ngra 73 fasl nomining mundarijasi berilib, undan keyin yana unvonga va mavzuga o‘tiladi. 73 faslning dastlabki o‘n bit-tasi debochadan iborat bo‘lib, an’ anaviy hamd, sano, na’t, Qoraxonga madh, etti kavokib va o‘n ikki burj, tilning foydasi, kitob egasining uzri, e兹gulik, bilim va uquvning foydasi, kitob qahramonlariga nom berilishi va qarilikka o‘kinishdan iborat. O‘n ikkinchi fasldan bevosita voqealar bayoniga o‘tiladi. Asarda shoir axloq-odob, ilm-ma’rifat, bola tarbiyasi, o‘zni tuta bilish, so‘zlash odobi, so‘zning qadri, meh-mondorchilik qoidalari, inson ma’naviy olamining ko‘p masalalari yuzasidan orifona fikr yuritadi. Dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlarni jamiyatning moddiy ne’matlarini yaratuvchi toifalar sifatida alohida ta’riflaydi. (Huddi shu holatni Hazrat Alisher Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarida ham uchratish mumkin).

Doston qahramonlari: Asardagi to‘rt qahramon ideal orzu timsoli sifatida gavdalanadi: Kuntug‘di (chiqqan kun) – adolat, Oyto‘ldi (To‘lgan oy) – baxt va davlat, O‘gdulmish (Aqlga to‘lgan) – Aql, O‘zg‘urmish (uyg‘ongan) – ofiyat, qanoat timsoli. Bular o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan savol-javob, munozaralar jarayonida avom xalqdan tortib qoraxoniylar saltanatining eng oliy daraja hokimi – eliggacha bo‘lgan oraliqdagi barcha tabaqa va toifalarning axloq, odob, xatti-harakat, munosabat chegaralari haqida bahs beradi.

Yusuf Hos Hojib hikmatlaridan:

*Bu dunyo moli sho‘r suv kabidir, ko‘r,
Uni (kishi) qancha ichsa ham qonmaydi.*

*Sodiq kishi nimalar deydi, eshitgil,
Odamgarchilikning boshi sadoqatdir, bil*

*Kirib tur desalar, qadru qimmat talaydir,
Chiqib tur desa (lar), yuzinga (qarab) so‘kishdir.*

*Bilimli, dono juda yaxshi aytibdi,
Bilimli so 'zini inju, yoqut desa bo 'ladi.*

*Uqush ko 'rki so 'z-ul, bu til ko 'rki so 'z,
Kishi ko 'rki yuz-ul, bu yuz ko 'rki-ko 'z.*

*Zakovat qayerda bo 'lsa, ulug'lik bo 'ladi.
Bilim kimda bo 'lsa, buyuklik oladi.*

*Xizmat qil, (chunki) xizmat tufayli qul beglikka etadi,
Xizmati singmaguncha, kim tilagini topadi.*

Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodi: Shoirming oti Adib Ahmad, otasining ismi Mahmud Yugnakiydir. Adib tug'ilgan yurt Yugnak deb atalgan. Undan bizgacha yagona asar «Hibat-ul haqoyiq» (Haqiqatlar tuhfasi) ta'limiy-ma'rifiy dostoni etib kelgan xolos. Doston pandnomma asar bo'lib, Dod Sipohsolarbekka bag'ishlangan. U 14 bob, 256 baytdan iborat. «Qutadg'u bilig» dostoni kabi bu asar ham aruzning mutaqorib bahrida yozilgan.

Adib Ahmad Yugnakiy turk mashoyihi va iste'dodli shoiridir. A.Navoiy o'zining «Nasoyimul - muhabbat» (Muhabbat shabbodalar) asarida Ahmad Yugnakiyning turk elidan chiqqan «ziyrak va zakiy» kishi ekanligi, Bog'dod yaqinida maskan tutib, mashhur Imom A'zam saboqlariga piyoda kelib ketishi, ko'pchilik elning unga e'tiqod qo'ygani, hikmatli va nozik mazmunli misralari turk ulusida keng yoyilgani xususida xabar beradi. Adib Ahmadning tug'ma ko'rлиgi haqida dostondagi ma'lumotni A.Navoiy yanada aniqlashtirib, shoiring «ko'zları butov (yopiq, bitgan) ermishki, aslo zohir ermas emish. Basir (ko'rmaydigan) bo'lub, o'zga basirlardek andoq, emas ermishki, ko'z bo'lg'ay. Ammo bag'oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy (taqvodor, parhezkor) kishi ermish... Haq subhonahu taolo agarchi zohir ko'zin yopuq yaratqondur, ammo ko'ngli ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondur», – deydi. «Hibatul-haqoyiq» pandnomma asar bo'lib, Dod Sipohsalarbekka bag'ishlangan. Adib uning «Qoshg'archa» til bilan

yozilganligini alohida ta'kidlaydi. Shoir to‘g‘rilik va egrilik, odob bilan odobsizlik kabi mavzular ustida to‘xtalar ekan, turli badiiy tasvir vositalari – o‘xshatish, tazod, jonlantirish, takrir kabilardan ustalik bilan foydalangan.

Adib «o‘q yarasi, aqldan ozish, til jarohati va uni tiyish» haqida quyidagi fikrlarni bayon etadi:

Nekim kelsa erga tilidin kelur,

Bu tildin kim edgu, kim aqir bo‘lur...

(Ma’nosi: Kishi boshiga nima yomonlik kelsa, tili tufayli keladi, Tili tufayli birovlar ezgu, baxtli, birovlar faqir, xor-u zor bo‘ladi).

Asarda «Qutadg‘u bilig»dagi tasvir usullariga uyg‘un namunalar anchagina. Adib Yusuf Hos Hojib qo‘llagan «ko‘nilik (to‘g‘rilik) to‘ni», «muruvvat yo‘li», «ati (nomi) o‘luk» singari istioralaridan unumli foydalangan. «Hibatul-haqoyiq»da barcha o‘gitlar faqat muallif tilidan bayon qilingan. Ushbu asar 1951-yilda Arat Rahmatiy tomonidan bиринчи мarta Istanbulda, 1971-yilda O‘zbekistonda Qozoqboy Mahmudov tomonidan nashr etilgan.

Mahmud Qoshg‘ariy. «Devonu lug‘otit-turk» – qomusiy asar. Bu asardan faqat tilga yoki adabiyotga oid materiallar va dalillarningina emas, balki Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan qabilalar tarixi to‘g‘risidagi manba hamdir. Har bir qabilaning o‘scha davrdagi mavqeい, tarixi to‘g‘risida ham yetarli ma‘lumotlar beradi. Jumladan, o‘g‘uzlar, qarluqlar kabi yirik qabilalar to‘g‘risida o‘rni-o‘rni bilan aytilgan ma‘lumotlar bunga dalildir.

«Devonu lug‘otit-turk» adabiy manba sifatida ham qimmatli yodgorlikdir. Asardagi she’riy parchalar XI asrgacha bo‘lgan adabiy hayot to‘g‘risida to‘laqonli so‘z yuritishga imkon beradi. Bu she’riy parchalar ma‘lum bir so‘zning izohi uchun keltirilgan bo‘lsa-da, bu parchalar qadimgi turkiy adabiyotda, xususan, lirik va epik janrning rivoj topganidan dalolat beradi. Qoshg‘ariy keltirgan mazkur she’riy parchalar turli mavzuda – mehnat, yorning ta‘rif-tavsifi, turk bahodirlarining qahramonliklari, ezgulikka da’vat, vatanparvarlik va h. She’riy parchalarni Mahmud Qoshg‘ariy xalq og‘zidan yozib olgan. Ayni paytda

«Devonu lug‘otit-turk»dagi ba’zi she’riy parchalar ma’lum bir ijodkor qalamiga mansub ekanligini Qoshg‘ariyning ishorasidan bilish mumkin. Qoshg‘ariy ko‘p o‘rinlarda «shoir aytadi» iborasini ishlatadi va bir to‘rtlik keltiradi. Ular xalq orasida mashhur bo‘lganlari uchun ham Qoshg‘ariy ularning ismini aytib o‘tirmagan. Ba’zi shoirlarning (masalan, Cho‘chu) aytib o‘tadi.

O.Pritsakning aytishicha, u Qoraxoniylar sulolasiga mansub odam bo‘lgan. Siyosiy ta’qiblardan qochib, o‘n yilcha turkiy qavmlar yashaydigan o‘lkalarda u yerdan-bu yerga ko‘chib yurgan. Ana shu davrda u turkiylar haqida ko‘p material to‘plagan. Oxiri Bag‘dodda to‘xtagan. Bu davrda Bag‘dodni Saljuqiylar egallagan edi. Saljuqiylar ham turkiyzabon bo‘lgani uchun, Mahmud Qoshg‘ariy o‘zi to‘plagan materiallar saljuqiylarda qiziqish uyg‘otishini bilib, «Devonu lug‘otit-turk» asarini yozgan.

«Devon»dagi she’riy parchalar ko‘p turkologlar o‘rtasida mu-nozaraga sabab bo‘lib kelgan. Ko‘pchilik yevropalik turkologlar «Devon» da keltirilgan to‘rtliklarni dastlab turkiy xalqlarning qadimgi folkloriga mansub deb qaragan edilar. Jumladan, K. Brokkelman shunday fikrni aytgan edi. Ammo u «Devon»dagi ikkilik va to‘rtliklar unutilib ketgan ma’lum bir shoirlar ijodiga mansubligini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Uningcha, asardagi asar yozilgan davrdan ilgari mavjud bo‘lgan va islomga hech qanday aloqasi yo‘q. Brokkelman ham «Devon»dagi she’riy parchalar misralari teng bo‘g‘inli (yetti bo‘g‘indan o‘n to‘rt bo‘g‘inga) qofiyalangan she’rlar ekanligini e’tirof etadi.

V.V.Bartold esa «Devonu lug‘otit-turk»dagi she’riy parchalarga nisbatan tamomila boshqacha fikrda. Ya’ni, «Devonu lug‘otit-turk»dagi she’rlar orasida xuddi «Qutadg‘u biling» dagi singari, saroy adabiyotiga xos xususiyatlar bor. Buning isboti sifatida V.V.Bartold quyidagi to‘rtlikni keltiradi:

*Turkan qatun qutinga,
Tegur mendin qo ‘shug‘,*

*Ayg‘il sizing tabug‘chi
O‘tnur yangi tabug‘*

Malika (shoh) xotinga mendan maqtov, qasida (qo‘sish) yetkazgin, xodimingiz yangi xizmat bilan yo’llanadi, deb ayt. Mazkur to‘rtlik, garchi shaklan xalq og‘zaki ijodiga xos to‘rtlikni gavdalantirsa ham, aniq obraz (Turkon malika) mavjudligi, didaktik mazmun ifodalangani bilan individual she’riyatga mansub deb qaralsa maqsadga muvofiq bo‘ladi va V.V.Bartoldning qarashlari o‘rinli aytilgan bo‘ladi.

Ayni paytda «Devonu lug‘otit-turk»da shakl jihatidangina emas, balki mazmun tomonidan «Qutadg‘u bilig»ga monand didaktik xarakterdagи parchalar ham borki, barqaror adabiy muhit, ma’lum izga tushgan ijtimoiy hayotning aks sadosini ko‘rishimiz mumkin. Namuna sifatida «Devonu lug‘otit-turk»ning 1-jildidagi to‘rtliklarni keltiramiz:

*Ulug‘luq bo ‘lsa sen ezgu qilin,
Bo ‘lg‘il kishig beglar qatin yaxshi ulan.*

Daraja yoki martaba topsang, xulqingni chiroyli qil, amirlar ol-dida yaxshilik yetkazuvchi, xalqning ishlarini yaxshi qabul qiluvchi bo‘l.

*Kelsa qali yarlig‘ bo ‘lub yunchig‘ uma,
Keldur anuq bo ‘lmish ashig‘ tutma uma.*

Bechora, ojiz g‘arib mehmon kelsa, hozir bo‘lgan (o‘zingda bo‘lgan) narsani mehmonga tezlik bilan taqdim qil, kechiktirib, beparvolik qilib, mehmonga malol keltirma.

*Kelsa kishi etma angar o ‘rtar kula,
Baqqil angar ezgulugung ag ‘sin qula.*

Senga kular yuzli bir kishi kelsa, sen uning yuziga issiq kul sochma, yaxshilik qil, yoqimli qiliq bilan hurmatla.

«Devonu lug‘otit-turk»dagi she’riy parchalar yuzasidan yevropalik olimlar bildirgan mulohazalar anchayin diqqatga sazovor. Asardagi to‘rtliklar turkiy she’riyatning qadimgi namunalaridir degan K.Brok-

kelmanning fikrlari P.Peloning qarashlarini shubha ostiga qo‘ydi. P.Pelo moniylik she’rlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarda, qadimgi turkiy she’riyat qofiyali emas, balki alliteratsiyali she’r bo‘lgan degan xulosaga kelgan edi. Alliteratsiya – uning fikricha, misralar boshida keladi va she’rni bir tizimga soladi. Pelo «Devonu lug‘otit-turk»dagi to‘rtliklarning qofiyalanishini fors she’riyati ta’siri deb qaraydi. «Qutadg‘u bilig»ning she’r tuzilishiga fors she’riyatidagi qofiya o‘z izini qoldirgan va bu haqda yetarli fikrlar aytilgan. Moniylik oqimidagi she’rlarga e’tibor berilsa, haqiqatan, alliteratsiyaning misralar boshida qo‘llanganini kuzatish mumkin. Masalan, «Tong tangrisi» nomli madhiya alliteratsiya izchil qo‘llangan she’rning yaqqol namunasidir.

Uslubiy tavsiyalar:

Ma’ruza jarayonida keltirilgan ikkita adib o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni talabalar Venna diagrammasida aks ettirishi zarur. (ma’ruza oxirida 10 – 12 daqiqa vaqt ajratiladi). Yusuf Hos Hojib va Ahmad Yugnakiyning mushtarak (umumi) ahamiyatga ega fikrlarini (hikmatlarini) talabalar diagrammaning o‘rtasiga yozadi, faqat o‘zlari-gagina xos fikrlarini ikkita tomonga alohida-alohida yozadilar.

Nazorat savollari:

1. *Qomusiy olimlar haqida ma’lumot.*
2. *Qomusiy olimlar ijodida adabiyot va adabiyotshunoslikka oid qarashlar.*
3. *Yusuf Hos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostonidagi hikmatli so‘z va maqollar.*
4. *Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq»ning tuzulishi va mazmuni.*

OLTIN O'RDA O'ZBEK ADABIYOTI

REJA:

1. *Oltin O'rda davlatining vujudga kelishi.*
2. *Oltin O'rda davlati adabiy muhiti.*
3. *Mamluklar davlatining tashkil topishi.*
4. *Mamluklar davlati hukmronligi davrida ilm-fan va adabiyot.*
5. *Sayfi Saroiy hayoti va ijodi.*

Tayanch so'z va atamalar: *Oltin O'rda davlati*, «O'zbekiyon», *Mamluklar*, *Sayfi Saroiy*, «Suhayl va Guldursun».

1206 yilda Chingizzxon boshchiligidagi mo'g'ullarning ilk feodal davlati tashkil topgandan so'ng ularning istilochilik harakatlari avj oladi. Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlari, Tangut, Shimoliy Xitoy davlatlari bo'yindirilgach, Xuanxe daryosining shimolidagi yerlar ham mo'g'ullar qo'liga o'tdi. 1218-yilda Yettisuv mo'g'ullar ixtiyoriga o'tadi. 1219-yilda Chingizzxon boshchiligidagi 150 mingdan ziyod mo'g'ul askarlari O'rta Osiyoga bostirib kiradi. Muhammad Xorazmshoh o'z askarlarini bir joyga to'plamasdan, boshqa kichik qal'alariga bo'lib yuboradi. Bu esa mo'g'ullarning osonlik bilan mamlakatni bosib olishiga qulaylik tug'diradi. (Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T., «O'qituvchi», 1994, 418-bet).

Mamlakatdagi boshboshdoqliklarga qaramay, xalq o'z vatani, shahar va qishloqlarini istilochilardan mardona himoya qilish uchun butun kuchini safarbar qiladi. Muhammad Xorazmshoh 1220-yilda taxtni tashlab, qochib ketadi. Uning o'g'li Jaloliddin Manguberdi mamlakat mustaqilligi uchun astoydil kurashgan yirik sarkardadir. Mo'g'ullar Xo'jand, Buxoro, Samarcand, Termiz kabi shaharlarni istilo qilib, Urganch tomon yo'l oladi. Jaloliddin Manguberdiga saroy

ayonlari va ko'pchilik askar boshliqlari bo'y sinmagani bois, u Temur Malik bilan birgalikda kuch to'plab, qayta hujumga o'tish niyatida Xurosonga keladi. Chingiz qo'shinlari suv to'g'onini ochib yuborib, shaharni suv ostida qoldiradi. Mo'g'ullar bilan bo'lgan jangda hazrat Najmidin Kubro mardlarcha vafot etadi.

1221 yilda Xorazmning to'liq Mo'g'ullar tomonidan egallanishi bilan, butun O'rta Osiyo istilo qilib bo'lingan edi. Ammo, Jaloliddin Manguberdi bosqinchilarga qarshi kurashni davom ettirdi. U Temur Malik bilan birgalikda 1221–1231-yillar mobaynida Afg'oniston, Hindiston, Eron va Iroq hududlarida Chingiz qo'shinlariga qarshi shiddatli janglar olib bordi. Ma'lumotlarga ko'ra, Jaloliddin 1231-yilda Turkiston tog'larida vafot etgan.

Chingizxon nomi eng dahshatli, yovuz istilochi sifatida tarix sahifalaridan o'rin oldi. (Jo'ji keldi, jo'ji keldi, Chingiz bilan bo'ji keldi). Istilochilik oqibatida Buxoro, Samarcand, Urganch, Balx kabi yirik madaniyat va ilm-fan markazlari vayronaga aylantirildi. San'at asarlari, kutubxonalar, masjid va madrasalar yoqib yuborildi. Bunday yovuzlik adabiyotda o'z aksini topmay qolmadidi. Ilm-fan, san'at rivojiga faqat salbiy ta'sirini ko'rsatdi, xolos. «Guldursun» afsonasi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi erk uchun olib borilgan kurashlar haqidagi ma'lumot beruvchi badiyat namunasi hisoblanadi.

Oltin O'rda madaniy muhiti o'ziga xos tarzda rivojlanib bordi. Bu davlat hududidagi madaniy hayotda, xususan, yashash tarzida, diniy e'tiqodda, arxitekturada o'troqlashgan turkiy qavmlarning ta'siri katta bo'ldi. O'zbekxon davrida Oltin O'rda jamiyatining yuqori tabaqasi islom dinini rasmiy qabul qildi. Yuqori tabaqaning ko'zga ko'ringan vakillarini islom diniga jalb qilish ishlariga Oltin O'rda xonlaridan Berkaxon birinchi bo'lib asos soldi. Berkaxon tomonidan islom dinining qabul qilinishini XIV asrda yashagan mashhur arab tarixchisi ibn Xaldun quyidagicha tasvirlaydi: «U (Berka) islom dinini Shamsiddin Elbaxarziydan qabul qildi. Elbaxarziy esa Najmuddin Kubroning muxlislaridan bo'lgan shogird edi... Buxoroda istiqomat qilib turgan Elbaxarziy islom dinini qabul qilish to'g'risida Berkaga taklifnomasi yubordi. U (Berka) islom dinini qabul qildi va: «Mening

qo'l ostimdag'i boshqa erlarda ham diniy targ'ibot ishlarini bermalol olib borishingizga to'la huquq beraman», deb Elbaxarziy nomiga yorliq jo'natdi. Ammo u (Elbaxarziy) bundan bosh tortdi.

Berka Elbaxarziy bilan uchrashish uchun yo'lga chiqadi. Lekin Elbaxarziy o'zining yaqin odamlari iltimos qilmagunlaricha Berka uning huzuriga kirishiga ruxsat etmadi. Elbaxarziyning yaqin odamlari Berka kirishiga ruxsat olib berdilar. U Elbaxarziy huzuriga kirkach, islom diniga kertirgan iymonini yana takrorladi va shundan keyin shayx islom dinini oshkora targ'ib qilishni unga yukladi. Berka o'ziga qarashli xalqlar orasida islom dinini yoydi, o'z qo'l ostidagi erlarda masjid va madrasalar qurdirdi, olimlar va fiqhshunoslar (qonunshunoslar) ni o'z atrofiga to'plab, ular bilan inoqlashdi.

Aynan shu davlatda turkiy adabiyotga va turkiy adabiy tilga e'tibor kuchaydi. Garchi bu davrdagi adabiyot – turkiy adabiyot, til – turkiy til deb yuritsa ham, turkiy tilli xalqlar orasida alohida mavqeい tutgan har bir o'zbek kitobxoniga Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan asarlar juda yaqin. Shu o'rinda o'zbek mumtoz adabiyotini va o'zbek adabiy tilini davrlashtirish masalasiga e'tibor qaratish zaruratini aytib o'tmoqchimiz. Oltin O'rda o'zbek adabiyoti rivojida alohida bosqichni paydo qildi. Bu davr adabiyoti o'zidan oldingi va keyingi davr adabiyotini aslo takrorlamagan, aksincha, o'z qiyofasiga, mavqeiga ega bo'lgan adabiyotdir. Oltin O'rda davlatidagi ijtimoiy, siyosiy hayot madaniy hayotning tubdan yangilanishiga, o'ziga xoslik kasb etishiga xizmat qildi. O'rta Osiyodagi madaniy va adabiy hayot Oltin O'rdaga ko'chdi. Bu ko'chish tarix oqimining tabiiy samarasini bo'lgan edi. Shu bois «Oltin O'rda adabiyoti» degan terminni ishlatalish, Oltin O'rdada va Misr mamluklar davlatida yaratilgan adabiy jarayonga nisbatan shu termidan istifoda etish maqsadga muvofikdir.

Oltin O'rda adabiy muhiti shunisi bilan diqqatga sazovorki, *birinchidan*, o'zbek adabiyotiga yangi janr – noma janri kirib keldi; ikkinchidan, musulmon madaniyatini va islom dinini yoyish uchun o'zbek tilida birinchi marta payg'ambarlar tarixiga oid asarlar yaratildi. Nosiruddin Burxoniddin Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uzy» (710\1310 yil), Mahmud ibn Ali as-Saroyining «Nahjul-faro-

dis» («Jannatlarga ochiq yo‘l», 761/1361 yil) asarlari buning yorqin namunasidir. «Qisasi Rabg‘uziy» singari «Qisas ul-anbiyo»larining o‘zbek tilidagi ko‘plab nusxalari bugungi kunda Turkiya muzeylarida, kutubxonalarida saqlanmoqda. Bu asarlarning ko‘p qismi Oltin O‘rda davlati hukm surgan davrda yaratilgan. Mazkur «Qisas ul-anbiyo»larning aksariyati forschadan qilingan tarjimalardir. Turk olimi Ismat Jamil o‘g‘li «XIV asrga oid bir «Qisas ul-anbiyo» nusxasi ustida sintaktik tadqiqot» (Anqara, 1994) nomli asarida ana shu kitoblarning qo‘lyozma nusxalari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni bergen.

Ikkinchidan, Oltin O‘rda davlatidagi madaniy-adabiy hayotning takomili natijasida o‘zbek adabiyotiga yangi janr – noma janri kirib keldi.

Xorazmiyning birinchi marta o‘zbek tilida yaratilgan «Muhabbatnama» (1353) asari buning dalilidir. *Uchinchidan*, Oltin O‘rdadagi adabiy muhitning e’tiborga molik jihatlaridan yana biri tarjimachilikka alohida e’tibor berilganidir. Turli tillardan o‘zbek tiliga nodir asarlar ning tarjima qilinishi bevosita va bilvosita Chingizxon hamda uning farzandlari olib borgan siyosat, yerli aholiga bo‘lgan ehtirom samarasidir. Chingiziy hukmdorlar farmonlarini turkiy tilda e’lon qilganlari, eski uyg‘ur-turk yozuvi asosida mo‘g‘ul yozuvini yaratib, mo‘g‘ul davlatida yangicha madaniy taraqqiyotga asos solganlari buning yana bir dalilidir.

Chingizzon avlodlarining muruvvatpeshaligi va yerli aholiga xayrixoh munosabatlarini Oltin O‘rda xonlari davom ettirdilar. Oltin O‘rdada o‘zbek tilida yaratilgan har bir asarning yuzaga kelishida biron hukmdorning ta’siri bor. Qutbning «Xusrav va Shirin»i tarjimasi shahzoda Tinibekka bag‘ishlangan. «Muhabbatnama» aynan o‘zbek tilida Muhammad Xo‘jabekning homiyligi va taklifi bilan, «Qisasi Rabg‘uziy» Xorazm beklaridan To‘qbug‘abekning iltimosi bilan yozilgan va h. Bulardan tashqari, til jihatdan «Qisasi Rabg‘uziy»ga yaqin bo‘lgan «Tafsir» va «Siroj ul-qulub» asarlari ham Oltin O‘rda yaratildi. Albatta, Oltin O‘rda abadiy davlat bo‘lib qola olmadi. Shahzodalar o‘rtasidagi mulkparastlik, hukmronlikka intilish, Oltin O‘rdani ichdan emira boshladi. Oltin O‘rda, Tovka Temur va Shaybon

sulolalari o‘rtasidagi ixtiloflar XIV asrning 60-yillarida kuchaydi. Aslida tanazzul alomatlari Oltin O‘rda ikkiga – Ko‘k O‘rda va Oq O‘rda ga bo‘linib ketgan paytda boshlangan edi. Ayniqsa, Jonibek davrida (1340–1357) tanazzul tezlashdi.

Oltin O‘rda davlatining tanazzuliga yana bir sabab – Oltin O‘rdadagi iqtisodiy buhronlar, ishlab chiqaruvchi kuchlar izdan chiqib borayotgani, hunarmandlarning va boshqa tabaqa aholining katta qismi qashshoqlashuvi, faqat mahalliy bozorlar bilan chegaralanib qolingani edi. Shubhasiz, iqtisodiy va siyosiy zaiflashuv Oltin O‘rdaning adabiy hayotiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Oltin O‘rda adabiy hayoti iqtisodiy va siyosiy buhronlarga aralashib, tanazzulga yuz tutmasligi uchun vaziyatni ham, makonni ham o‘zgartirishiga to‘g‘ri keldi. Adabiy hayot tamomila o‘zga yurtga – Misrga ko‘chdi. Bu adabiyot ravnaqi uchun Misrda barpo etilgan turkiy qavmlar davlati asos bo‘ldi.

Mamluklar davlati. XII – XV, ayniqsa, uning birinchi davri (XII – XIV) Misr va Suriya tarixida o‘ziga xos yorqin bir davrni tashkil etadi. Bu o‘ziga xoslik, birinchidan, mamluk sultonlarining nasl-nasabi qullar (mamluklar)ga borib taqalishidadir. Mamluklar yoshligida qullar bozorida sotib olinib, maxsus harbiy tarbiya olgan, ulardan ko‘plari o‘zlarining shaxsiy fazilatlari, ayniqsa, jasorati va sodiqligi uchun yuqori harbiy mansablarga ko‘tarilib, hatto lashkarboshi va amirlar darajasiga etishgan. Yana bir o‘ziga xosligi, XII asrning ikkinchi yarmi – XIV asrlarda Misr va Suriyada (Shomda) hukm surgan mamluk sultonlari Oybek at-Turkmaniy, Qutuz, Beybars, Hala‘un, Muhammad Nosir va boshqalar arab qavmiga emas, balki turkiy elatlarga, Dashti Qipchoqda ko‘chib yurgan qipchoq, o‘g‘uz va boshqa turkiy qabilalarga yoki mo‘g‘ul istilosidan qochgan xorazmliklarga taalluqli ekanini o‘sha davrning mashhur tarixchilari al-Mahriziyy, Ibn al-Iyyaslar ko‘rsatib o‘tgan. Sultonlar saroyida va devonxonalarida qadimgi turkiy tilining o‘g‘uz-qipchoq shevasi keng iste’molda bo‘lgan. XV asrda esa Misrda Kavkazdan chiqqan mamluklar hukmdorlik qilgan. Mamluk sultonlari davrida Misr kuchli davlatga aylanadi. Ayni ular Falastinda salbchilarining qolgan kuchlarini tor-mor qilib, min-taqadan butunlay yo‘qotganlar, ayniqsa, butun musulmon dunyosini

qaqshatgan mo‘g‘ullarni sultanati chegarasida to‘xtatib, Ayn Jalun degan joyda ularga katta zarba etkazib, mag‘lubiyatga uchratishi, xalqlar xotirasida unutilmas voqeа bo‘lib qoldi. Al-Mahriziy va Ibn Iyyas tarixiy xronikalarida, misr lashkarlari boshida turgan amir, bo‘lajak Misr sultoni Qutuz, Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdini jiyani deb taxmin qilingan.

Ayn Jalun jangida xorazmliklar alohida jasorat ko‘rsatganligi to‘g‘risida tarixiy ma‘lumotlar bor. Bog‘dodagi abbosiyilar xalifaligi mo‘g‘ullar zerbasi ostida yemirilganidan keyin (1260) Misr musulmon dunyosining madaniy markaziga aylanadi. Bu yerga har tomonidan adiblar va olimlar to‘planishi adabiy-madaniy hayotning jonlanishiiga olib keldi. Mamluk sultonlari ilm, adabiyot, dinga katta hurmat va e‘tibor bilan qarashar edi. Ularning davrida Misrda, ayniqsa, Qohirada katta qurilishlar olib borilgan, masjid, madrasa, xonaqohlar qurilgan. Mamluklar davrida qurilgan hashamatli binolar hanuz Qohiraning qadimgi mahallarida saqlanib kelmoqda va yodgorliklar si-fatida himoyaga olingan. Mamluklar sultonlari ochgan madrasalarda Qur‘oni karim, hadis, fiqh islomning to‘rt mazhabi talqinida maxsus tayinlangan mudarrislar tomonidan o‘rgatilardi. Xonaqolar g‘ariblar va so‘fiylar uchun boshpanagina bo‘lmay, balki bu erda diniy va dun-yoviy kitoblarni qiroat qilishar edi, jumladan, Abu Ali ibn Sinoning «Ash-Shifo»sini o‘qishardi. Mamluklar sultanati davrida ko‘p ilmiy kitoblar yozildi, birinchi musulmon ensiklopediyalari tuzildi. Umuman olganda, bu davrdagi adabiyot umumiylilik tushunchasiga ega bo‘lib, yangi zamon adabiyotidan farqli o‘laroq, o‘ziga bor yozma mahsulotni qamrab olardi va badiiy ijod bilan bir qatorda diniy-falsafiy, tabiiy fanlar, filologiya, tarix, jug‘rofiya va boshqa fanlarga mansub risolalardan tashkil topgan edi. She’riyat ham, umuman, badiiy ijod bilim yetkazuvchi omil hisoblanardi. Bu davr ayniqsa, o‘zining ensiklopedik asarlari bilan tanildi. Ularning mualliflari o‘z ishlarini devonxonalardagi kotiblarga foydalanishi uchun yozgan, zamonaviy ibora bilan ularning kasbiy malakasini va mahoratini oshirishga qaratilgan edi. Shuningdek, ular tor doiradan chiqib, keng o‘qimishli

doiralarga ham mo‘ljallangan va kompilyatsiya uslubida tuzilib, turli sohalarda mavjud bo‘lgan bilimlarni jamlagan asarlardir.

Birinchi musulmon ensiklopediyalardan eng mashhurlaridan quyidagilarni eslab o‘tsak bo‘ladi:

1. «Nihayat al-arab fi funun al-adab» Adab ilmlarida maqsadning nihoyasi». Muallifi Shahobiddin Ahmad an-Nuvayriy (1279 – 1332). Ensiklopediya 30 tomdan iborat, besh qismga bo‘lingan. Birinchi qism – samoviy jismlar va yerning tavsifi, ikkinchi qism insonga bag‘ishlangan, uchinchchi qism – hayvonot olami, to‘rtinchisi – o‘simliklar, beshinchisi esa, xo‘jalik masalalariga bag‘ishlangan, devon xodimlariga hujjatlar tuzishda qimmatli maslahat va tavsiyalar beriladi.

2. Shihab ad-Din al-Umariyning (1301–1348) «Masalik al-absar fi mamalik al-amsar» «Yirik markazlardagi mamlakatlarga nigoh tashlash yo‘llari» nomli ensiklopediyasi 20 qismdan iborat bo‘lib, adabiyot, tarix, jug‘rofiyalardan turli ma’lumotlarni mujassamlashtirgan asar edi.

3. Shihab ad-Din al-Qalqashaadiyning (1355–1418) 12 toqli ensiklopediyasining nomi «Subh al-aasha fi sinaat al-insha (Insho yozishda ko‘zi ojizga tong nuri). Asar tuzilishidan muallifning maqsadini bilish mumkin. Asarda adabiyot, adabiyotshunoslik, ilm al-balog‘aga, adibning ma’suliyatiga ko‘p o‘rin berilgan. Ishda hujjatlar tuzish, diplomatik yozishmalar shakli, tarixiy xronikalar yaratishi borasida maslahatlar va tavsiyalar berilgan, shuningdek, turli mamlakatlar va mintaqalar, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari to‘g‘risida ham qiziqarli ma’lumotlar bor. Al-Qalqashandiy ma’lumotlarni boshqalar dan kompelyatsiya usulida jamlash bilan qanoatlanmasdan, o‘z davri to‘g‘risida ko‘p yangi ma’lumotlar qoldirgan. Jumladan, mamluk sultonlari va o‘rta osiyolik hokimlar o‘rtasidagi yozishmalarni keltirgan, adabiyotning nazariy masalalarini ko‘targan, umuman, ilm-fan borasida o‘zining munozarali fikru qarashlarini jasurona ifodalagan. Uning ushbu shoh asarining 1913 – 1920-yillarda Qohirada nashr etilgan bir nushasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining kutubxonasida nodir kitoblar bo‘limida saqlanmoqda.

Biz o'sha davrda yaratilgan musulmon ensiklopediyalar ichidan faqat eng mashhur uchtafiga to'xtadik. Bularning yoniga Tunisdan chiqqan va Misrga kelib ijod qilgan Ibn Xaldun (1332–1406) asarlari ham qo'shiladi. Ibn Xaldunning «Muqaddima»sida falsafiy, tarixiy va ijtimoiy masalalar inson va jamiyat munosabati xususida so'z yuritiladi. Shuning uchun ham Ibn Xaldun bиринчи arab sotsiologi degan nom olgan. Qolaversa, u haqiqiy mavsuiy (ensiklopedik) olim sifatida filologiyaning ham eng muhim masalalarini ko'rib chiqqan va bu borada bir nechta asarlarni, jumladan, grammaticaga oid «Mufassal» nomli asarini yaratgan. Yana bir mavsuiy bilimlar sohibi – Abd al-Rahmon as-Suyuti (1445 – 1505) 350 ga yaqin asarlarni tarixdan, dindan, adabiyotdan, tildan yaratdi. Mamluklar sultanati davrida yozilgan ilmiy risolalar soni yuzdan oshib, umumiylashtirishmusulmon madaniyatining salmoqli qismini tashkil qiladi. Uslub jihatdan musulmon ensiklopediyalar IX asrdan rivojlanib ketgan «adab» nomli adabiy janr uslubiga yaqin turadi va undan keng qamroviligi bilan ajralib turadi. «Adab» adabiyotning asosiy qonunlaridan biri – bu bilimni, ma'rifikat va ilmni hamda odob to'g'risida nasihatlarni qiziqarli usulda kitobxonga yetkazishdir. Ilmiy adabiyot uslubiga bunday qarashni boisi bu – turli bilim sohalarda (tarixga, jug'rofiyaga, tabiiy fanlarda) yozilgan kitoblarga keng doiralarda qiziqish kuchayib, ularning ommaboproq yozishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shuning uchun ilmiy mavzudagi asarlarga nasihatgo'ylik ohanglari bilan ko'ngil ochar unsurlar kirganiga ajablanmasa bo'ladi. Qiziqtiruvchi unsurlar – bu badiiy ijod bo'lib, ularning qamroviga afsonalashgan tarixiy misollar, she'r (shu jumladan muallifni o'ziniki), turli rivoyatlar, hikoyatlar, asotirlar kirar edi. Ensiklopediyalarda ham badiiy ijodga ilmiy mavzular bilan bog'langan holda yetarli o'rinnajratilgan. Masalan, an-Nuvayriy ensiklopediyasida quyoshga ilmiy tafsif berib, unga she'riy tafsif ilova qiladi:

Ko'rdingmi quyoshni, chiqqanida ko'zni qamashtiradi uning nurlari

Qizil va sariq ranglarda jilvanadi u go'yo shikoyat qilgandek uygusiz tundan

Chiroyli kelinchak u, o'sha kechasi

Qo'lida ushlagan ko'zgusi – to'lin oy edi.

Bu qit'ada badiiy vositalarga – o'xshatish, istiora, majozga ko'p o'rin berilgan. Xuddi shuningdek, u oyga, tunga, Nil daryosiga Misr diyori tavsifiga ilmiy va badiiy tavsif beradi va turli rivoyatlar, hikoyalar, she'rlarni jalg etadi. Masalan, to'lin oyni inson ruhiga salbiy ta'sir etishini zamonaviy tibbiyot ham tan olgan. An-Nuvayriy bu to'g'risida rivoyat keltiradi: «hikoya qilishadiki, ko'chmanchi arab bir kishini oyga tikilganini ko'rib, tikilmagin unga, unda nuqsonlar bor. Agar eshakda nuqsonlar bo'lsa, uni qaytarib bermas edingmi? – dedi. U so'radi: Ular (nuqsonlar) qanday? U javob berdi: «U umrga zavol bo'ladi, ajalni yaqinlashtiradi, dinni buzadi, yo'lni yoritadi, o'g'riga yo'l ko'rsatadi». Mamluklar davridagi she'riy ijodga kelsak, bu sohadaka ko'rinarli o'zgarishlar ro'y berdi. Bu ta'sirlari o'zgarishlar shakliy izlanishlarda o'z ifodasini topdi: «tashtir», «tahlis» kabi yangi shakllar, aruzning yaxlit vaznda va qofiyada yozilgan baytlari o'miga asoslangan. She'rning turli shakllari – muvashshah, zagal, mavval, dubayt kabi shakllar xalq she'riy ijodiyotidan kirib keldi. Mumtoz she'riyatidagi an'anaviy vaznlar tovil, komil, bosit o'miga yengil vaznlar – ramal, hafif, rajazning qisqartirilgan qofiyali ko'rinishlari paydo bo'ldi. She'rning tili ancha soddalashib, unga real hayotda uchraydigan oddiy kundalik iboralar, boshqa tillardan so'zlar kirib keldi, hazil-mutoyibaga moyillik sezildi. Bu chekinishlar yangi davrning ba'zi adabiyot-shunoslari tomonidan arab she'riyati mamluklar davrida inqirozga uchradi, deb ta'kidlashga imkon berdi (Masalan, Hanna al-Fahuriy yoki Mahmud Ribdaviy). To'g'ri, Abbosiylar davridagi gullab-yashnagan saroy mumtoz she'riyati haqiqatan inqirozga uchradi. Ammo mamluklar davridagi she'riyat yorqin iste'dodlardan xoli emas edi, ular ham arab adabiyoti taraqqiyotiga o'z ulushini qo'shdi. Biz eng avvalo shoirlar al-Busiriy (1212 – 1296), ash-Shab az-Zarif (1263–1289), Safiddin al-Hilli (1278 – 1349), Ibn Nubatalarni (1287–1366) nazarda tutamiz. Al-Busiriyning mashhur «Qasidat al-burda» (Plash Qasidasi) butun arab dunyosida tarqalib, she'riyatda al-madh al-nabavi (payg'ambar madhi) janrini rivojlantirib berdi. Muhammad payg'ambariga atalgan 162 baytdan iborat bu qasida jahonning ko'p tillariga

ingliz, fransuz, hind, fors, turk, nemis (olmon) va o‘zbek tillariga tarjima qilingan. Qasidaning mashhurligi uni afsonaviy yaratilishi bilan bog‘liq. Og‘ir kasal va yarim badani shol bo‘lib qolgan shoir qasidani yozganidan keyingi kuni butunlay sog‘ayib ketadi. Bu hodisa «Qasidat al-burda»ga odamlar nigohida «ilohiylik» sifatini berdi va uning og‘izdan-og‘izga o‘tishiga, unga o‘nlab sharhlar yozishga, unga taqlid qilishga olib keldi. Qasida shifobaxsh qudratga egaligi to‘g‘risidagi afsona bizning asrimizgacha yetib kelgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida «Qasidat al-burda»ning 30 tadan ortiq qo‘lyozmasi saqlanmoqda, ular har xil manbalarda va kotiblar ularni xatosiz yozgan. Qasida o‘zbek tiliga tarjima qilinganligiga qaramay, uning mazmuni va badiiy xususiyatlari hanuzgacha ilmiy jihatdan tahlil qilinmagan. Vaholanki, qasida e’tiborga loyiqidir. U an’anaviy mumtoz qasida janriga to‘la amal qilib yozilgan, o‘zida unga xos unsurlarni mujassamlashtirgan va ichki janrlarga (ya’ni vasf, madh, fahr, hijolarga) bo‘lingan. O‘z majmuasiда ular payg‘ambar hayotini yorqin va shoirona obrazlarda tasvir etgan. An’ana, ayniqsa, vasf qismida seziladi, shoirning asosiy maqsadi – madhgaga o‘tishidan oldin, manzaralar vasfida hayol parvozi baland va keng tarqaladi. Sahro bo‘ylab sayohat, yo‘lda ko‘rgan-o‘tganlar vasfi, tabiat manzaralari, hayvonot olami, ov qilish marosimi, so‘ng payg‘ambar ishtirok etgan janglar vasfi, bog‘ va qasrlar ko‘rinishi, chashmalarda suvlarning jilvalanishi, bazmlar tavsifi jonli mazaralar-da berilgan.

Qasidaning so‘nggi baytlarida payg‘ambar hayotida ro‘y bergen hodisalar, uning da‘vatlari, olib borgan kurashlari, janglari – hammasi o‘z ifodasini topgan. Qasidada ishlatilgan majoziy obrazlar, so‘z san’atidagi chiroqli o‘xshatish, iste’ora, tazod, tajnis va boshqa tasviriy-ifodaviy vositalar al-Busiriy she’riy mahoratda qanchalik yetuk ekanligidan dalolat beradi. Al-Busiriyning boshqa asarlari ahamiyatga molik bo‘lsa ham, bitta «Qasidat al-burda» asarining o‘zi unga so‘nmas shuhrat olib kelganini qayd qilish lozim.

Mamluklar davrining iste'dodli shoirlaridan yana biri Safiddin al-Xilliy (1278–1349) hisoblanadi. Shoirlik mahoratida uni hatto XI asrda yashagan mashhur arab shoiri al-Mutamabbiy bilan taqqa-slashadi. Al-Xilliy ranglar to‘g‘risida yozgan bayti hozirgi Suriya bayrog‘ining ranglariga asos bo‘ldi: Oq – hayrli ishlarimiz, qora – qilmishimiz, Yashil – o‘tlog‘imiz, qizildir bizning umidimiz. Tabiat manzaralarini vasf etishda zamonasida unga teng keladigan shoir yo‘q edi. Uning she’rlari, dabdabalik, samarasiz so‘z o‘yinlari, mavhumlikdan xolidir. Shoir qasidaning an’anaviy shaklini o‘zgartirib, jur’at bilan ularning muvozanatini buzdi, yangi shakllar – tashtir, tahmis hamda xalq og‘zaki ijoddan keng foydalanib, muvashshah, humo shakllarini ijodiyotga kirgizdi va novator shoir sifatida arab she’riyati sahifalarida iz qoldirdi. U an’anaviy qasida qoidalariga sun’iy yondashish o‘rniga, haqiqiy lirik she’rlar yaratdi. Safiddin al-Xilliy qatoriga Abu an-Nubata, Shab az-Zariflarni ham qo‘ysak bo‘ladi. Ular ham o‘ziga xos ijodi bilan hanuzgacha arab kitobxoni ko‘ngliga yo‘l topib kelmoqda. Shuning uchun barcha eslab o‘tgan shoirlarimizning asarlari to‘plamlarda Misr, Suriya, Livanda nashr etilib kelmoqda, yangidan tadqiqqa tortilmoqda, tahlil etilmoqda. Mamluklar sultanati davridagi adabiyot to‘g‘risida so‘z borar ekan, uning har bir jihatini qamrab olish amri mahol. Uning bir qatlamini nasrnavislikda o‘z ifodasini topgan hikoyatlar, rivoyatlar tashkil qilsa, yana bir qatlamini shu davrda yozib olingan xalq ijodi tashkil qiladi. Undan tashqari, XIII asrda yaratilgan ikki tomli «Zohir Beybars sirasi» (xalq romani) bir o‘zi ham muhim katta madaniy-adabiy hodisa sifatida baholanmoqda. Misr xalqining quldan chiqqan, kelib chiqishi ko‘chmanchi qipchoq qabilasidan bo‘lgan sulton Beybars to‘g‘risida xalq romanini yaratishi, uning ahlu zakovatiga, jasorati va olib borgan samarali faoliyatiga bergen bahosigina bo‘lib qolmay, sharq xalqlarning o‘zaro munosabatlarining yorqin dalilidir. Mamluklar davridagi adabiyotning yorqin namunalari bilan tarjimalar va tadqiqotlar orqali arab adabiyotshunoslarimiz va tarjimonlarimiz tomonidan tanishtirish o‘zbek o‘quvchisi oldida arab adabiyotining yaxshi tanilmagan qirralarini ochib berar edi.

Sayfi Saroyi. O'zbek va fors-tojik tillarida asar yozish an'anasi ning boshlovchilari sifatida Sayfi Saroyining ham tabarruk nomi turadi. XIV asrda yashab, ijod qilgan Sayfi Saroyi o'zbek va fors-tojik tillarida yozilgan dilbar asarlar muallifi, o'z davrining iste'dodli tarjimonи sifatida ma'lum va mashhurdir. Bu zullisonayn ijodkor qalamiga mansub asarlardan bir necha javobiya she'rlar, «Suhayl va Guldursun», Shayx Muslihiddin Sa'diy «Guliston»ining o'zbek tiliga qilingan tarjimasi bizgacha yetib kelgandir. Garchi bugungi adabiyotshunoslik Sayfi Saroyi qalamiga taalluqli asarlarning barchasini qo'lga kiritmagan bo'lsa-da, shoir merosidan ma'lum bo'lgan namunalarning o'zi ham uni XIV asr o'zbek dunyoviy adabiyotining iqtidorli vakili sifatida qadrash imkonini beradi. Sayfi Saroyining o'zbek tilidagi asarları adabiyotshunoslari tomonidan tahlil etilib, tegishlicha baholangan. Uning fors-tojik tilidagi asarlaridan bizgacha yetib kelgan ayrim namunalar xususida esa yuqoridagi mulohazani aytib bo'lmaydi. Yoxud masalaning bu tomoni negadir Sayfi Saroyi ijodi tadqiqotchilari e'tiboridan soqit qolib kelayotir. Jumladan, biz ta'kid etgan mavzu Sayfi Saroyi hayoti va ijodi haqida maxsus asar yozgan tatar adabiyotshunosi X.Y.Minnegulov tomonidan ham unutib qoldiriladi. Xolbuki, tadqiqotchi Sayfi Saroyining fors-tojik tilidagi bisoti ustida ham mulohaza yuritishi lozim edi. Xusan, uning qalamiga mansub kitobning shu ijodkor adabiy faoliyatini atroficha qamrab olishga mo'ljallanganligi ham shuni taqozo etadi. Biroq salmoqli risola muallifi bu haqda hech narsa demaydi. Bu adabiyotshunos bir necha yillardan beri XIV–XV asrlar adabiyoti bilan qiziqadi, uning vakillari haqida o'z mulohazalari bayon etib keladi. Bunisi quvonchli voqeа, albatta. Xusan uning tomonidan Sayfi Saroyining hayoti va adabiy faoliyatiga doir salmoqli ilmiy tadqiqotlar e'lon qilinishi maqtovga molikdir. Muqaddima, xotima va olti bo'limdan tashkil topuvchi ushbu kitobda muallif o'z oldiga Sayfi Saroyi ijodining o'rganilish tarixi, adabiy merosining hajmi va mundarijasи, ijodkor hamda tarjimon sifatidagi mazmundor faoliyati, murojaat etgan adabiy janrlari, badiiy mahorati muammo-lari singari xilma-xil mavzularni tadqiq etishday ulkan va mas'uliyatlari vazifani qo'yadi. Ilmiy asar o'z muallifining jiddiy izlangani, boy ad-

abiylumotlar toplashga bo'lgan urinishi, durustgina ilmiy tadqiqot yuritish ko'nikmasi borligidan dalolat beradi. Kitobning fazilati aytiganlar bilan yakunlanmaydi, albatta. Ayni paytda mazkur risola bir qator nuqsonlardan ham xoli emas. H.Y.Minnegulov qarashlaridagi bahs talab o'rinalar tadqiqotning kirish qismidayoq ko'zga tashlanadi. Negadir, u Sayfi Saroyi haqida o'zbek adabiyotshunosligi, rus sharqshunos olimlari amalga oshirgan ilmiy ishlarni tan olmaydi. Shuning uchun ham u kitobning muqaddimasidayoq tatar o'quvchilariga Sayfi Saroyini «yangi ochilgan yozuvchilardan biri» sifatida taqdim etadi (turk-tatar adabiy tilining rivojiga ulkan ulush qo'shgan ijodkor tarzida baholaydi). Kitob muallifi ijodkorming o'zbek adabiyoti vakillaridan biri ekanligini umuman inkor etadi. Buni uning «turk-tatar» birikmasiga bergen izohida ham ko'rsa bo'ladi. H. Minnegulov kitobning izohlar qismida ayrim fikrlarga aniqlik kiritishga harakat qiladi. Masalan, u kitobning o'sha bahsida «turk-tatar» birikmasi va uning qo'llanishi ustida mulohaza yuritar ekan, quyidagi xulosalarga keladi. Asrlar davomida turkiy xalqlar tomonidan bunyod etilgan madaniy obidalariga nisbatan (eng qadimgi yozma yodgorliklar bundan mustasno) aralashiga turkiy xalqlaming mushtarak merosi sifatida qarash va ularni umumlashtiruvchi atama bilan ifodalash yaramaydi. Shuning uchun Ural, O'rta Osiyo, Kichik Osiyo, Kavkazorti mintaqalarida yaratilgan asarlarga nisbatan «turk-tatar», «turk-o'zbek», «turk-ozarbayjon», «turk-usmonli» kabi muayyan xalqqa mansublik birikmalardan foydalanishni yoqlaydi. Umuman olganda, tadqiqotchi tanlagan yo'naliish yomon emas va uning talay flkrlariga qo'shilsa bo'ladi. Darhaqiqat, har bir yurt, turkiy til va adabiyotning mushtarak jihatlari bilan yonma-yon o'zigagina xos bo'lgan rivojlanish yo'li, taraqqiyot qonuniyatlari, obidalari haqida gap ketganda, o'shanday aniqlikka amal qilgan tarzda mushohada yuritish, uni yozuvda aks ettirish ma'quldir. Lekin tarixiy vaziyatning talab va taqozosiga ko'ra, o'rta asrlarda, hatto undan so'nggi davrlarda ham turkiyda so'zlashuvchi qabilalar, hatto forsiy najot aholi bilan aralashdi, yurt dushmanlariga qarshi birgalikda kurashdi, o'z taqdirini belgiladi, hamkorlikda madaniy obidalar bunyod etdi. Aniqrog'i, har bir xalq o'z holi qudratiga ko'ra, o'sha

obidalarga hissasini qo'shdi. O'sha asarlami baholash paytida bu tarixiy haqiqatdan ko'z yumish va birlikda yaratilgan ma'naviy obidani birgina xalqqa nisbat berish to'g'ri bo'lmaydi. Sharq adabiyotining zabardast tadqiqotchisi E.E.Bertels xuddi mana shunday bahstalab masala ustida fikr yuritib: «Klassik til deb ataluvchi tilda, ya'ni dariy yoki forsiy tilda yaratilgan ulkan adabiy merosga har qanday holda ham har ikki xalqning haqqi bordir va bu adabiyotni ulardan biriga mansub deb bilishga urinish ikkinchisiga nisbatan adolatsizlik bo'lur edi» – deb yozgan edi.

Sayfi Saroyi XIV asr o'zbek dunyoviy adabiyoti tarixida eng avvalo, zabardast shoir sifatida qadrlidir. Uning bizgacha yetib kelgan tarqoq nazmiy merosi muallifning yaxshigina salohiyatidan xabar beradi. Sayfi Saroyi zamonasining farzandi. Ammo donishmand va ilg'or qarashlar egasi, dunyo va uning voqealariga aql ko'zi bilan qarashga, uni kuzatish, baholash, munosabat bildirishga qodir kishi edi. Shuning uchun uning adabiy merosi o'ziga zamondosh bo'lgan ta'b sohiblari asarlaridan tubdan farq qilmaydi. Balki o'shalarga hamohanglik, yaqinlik kayfiyati ustun turadi. Sayfi Saroyi g'azaliyotining yetakchi mavzuuni ishq-muhabbat talqini tashkil qiladi. Shu bosh va an'anaviy mavzuda asarlar yaratish jarayonida u o'zi yashayotgan zamon illatlarini turli ramz va ishoralar yordamida aks ettirib qoldirishga erishadi. Shuningdek, oljanob insoniy fazilatlami ulug'lash, dunyo va uning ne'matlardan bahramand bo'lishga undash, umrni zoe o'tkazmaslik, ilm-fan, kasb-hunar o'rganishga da'vat singari ilg'or g'oyalar targ'ibi ham Sayfi Saroyi ma'naviy merosining mag'z-mag'ziga singib ketgan. Shoir she'rлarining yetakchi qahramoni – oshiq. U o'z yorining samimiyy shaydosi va hamdamidir. Oshiq uchun dunyoda yagona buyuk mayjudot bor, u ham bo'lsa mahbubadir. Uning nazdi va nazarida biror-bir kishi shu mahbubaga teng kelolmaydi. Mana, o'sha sodiq qahramon – oshiqning bu boradagi xulosasi:

*Ul yuzi oykim, jahoniydur,
Bu zamon xo'blarinining xonidur.
Yosamin tan, qomati sarvi ravon,
Zulfi jannat bog'inining rayhonidur.*

*Kirpugining o'qina jonlar nishon,
Qosbi yosining jahon qurbanidur.
Shams aning har kun yoqasindan tug'ar,
Ul sababdin bu jahon nuroniydur.*

Jahoning fayz-u shukuhi, ko'rki va tarovati ham o'sha oy yuzli, sarv qomat, zulfi rayhon, kiprigi o'q yor borligi uchun. Aks holda bularning hammasi, ya'ni dunyoning borligi mazmunsizdir. Sayfi Saroyi qalamidan ruh olib, qizg'in harakat qiluvchi oshiqning atrof-muhit, uning voqeа-hodisalariga nigohi mana shunday. Shu tufayli Sayfi Saroyining nomi tabarruk, asarlari tildan tushmay keladi. Biroq shoир asarlarda harakat qiluvchi kuyunchak qahramon – oshiqning holati, kayfiyati birday ko'tarinki emas. Ba'zan u norozi qiyofada, yordan shikoyat qiluvchi kayfiyatda ham namoyon bo'ladi. O'shandaу ruhiyatdagi yor o'z ma'shuqasiga murojaat etadi, uni insofga chاقiradi.

*Ayo, ey dilbari manzur, bu ko'rkingga bo'lib mag'rur,
Ko'ngullar qilmagmi ranjur, kechar bu xusn davroni.
Bu muddatni g'animat bil, bu fursatda vafolar qil,
Bu izzat biria bo'l ko'p yil, xaloyiqning sevar joni*

Yor ishvalarini ko'rgan, dunyo va uning nayranglari xususida tasavvuri tobora boyigan oshiqning o'z ma'shuqasiga munosabati voqealar rivoji davomida ancha dadillashadi. Endilikda oshiqning ma'shuqasiga murojaatida nasihat o'rnini ginaxonlik, uni bevafolkida ayblast egallay boshlaydi. Shoир satrlaridagi norozilik ruhiyasining qamrov doirasi ham kengayib, ijtimoiy mohiyat kasb eta boshlaydi. Uning qalamidan chiqqan adabiy parchalaiga ijodkor yashagan zamon voqealar nuqtai nazaridan qaraydigan kitobxon misralardagi zorlanish, shikoyat ohanglari ikki shaxs: oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi sodir bo'ladigan voqeа bo'lmay, balki minglab, millionlab kishilar ohu fig'oni ekanligini osonlikcha his etadi.

*Odati budur hamisha bu bevafo ma'shuqaning
Kim aning vaslin tilasa, ul firoqinda tutar,
Bu falak javri bekin Sayfi Saroyi bag'rini,
Ul yuzi oy hajr o'tining ixtiroqinda tutar.*

Zamonadan cheksiz jafolar ko'rgan oshiqning o'tli fig'oni, hasratli nafasi tobora balandlashadi. U tengsizlik, haqsizlik, jabr-u zulmning kuchayganidan iztirobga tushadi, vafo o'rniga jafoning peshvoz chiqqanidan to'lg'onadi, ruhan eziladi.

*Tortib zamona xo 'blarining javrini mudom,
Ko 'rdungmi hech birinda bulardin vafo ko 'ngul,
Kuydum sening bila necha kez fursat o 'tina,
Yillar chekib sening bila javr-u jafo ko 'ngul.
Qozi evi ne yerda, ajab, mufti qaydadur,
Bilg 'ay edim sening birlan xush mojaro, ko 'ngul.*

Fursat, kechayotgan hodisalar, adolatsizlikning avjga chiqishi javobiya-g'azal qahramoni ko'zini ochib, jur'atining kuchayishiga, sabr kosasining lim mo-lim to'lishiga olib keladi. Asta-sekin hurkovich, andishali, dadil gapirishdan hayiqadigan oshiq o'mini jiddiy, rostgo'y, haqiqattalab, g'azabli shaxs egallay boradi.

*Yo rab, chi kunam zodi safar nest maro,
V-az oqibati xesh xabar nest maro.
Har chand ki, ba dargohi tu shoista nayam,
Miskini tuam, digar kase nest maro.*

(Mazmuni:

*Yo rab, ne qilay safar ozuqasi yo 'q manda,
Taqdirim oqibatidan ham xabar yo 'q manda.
Garchi sening dargohing uchun noloyiqman,
Sening miskiningman, o 'zga kishi yo 'q manda)*

Mazkur ruboiy satrlarida ifodalangan mazmun kishini fikrlashga, Sayfi Saroyi tarjimai holi manzaralarini eslashga undaydi. Shoir yurti Xorazmda nochorlik, zulmning kuchayishi uni vatanini tark etishga majbur qilgan. Iqbol, ro'shnolik izlab u Oltin O'rdaga qarab yo'lga chiqqan. Bu tasodify hodisa emas edi. Xorazm ma'lum muddat O'zbekxon va uning o'g'illari Tanibekxon, Jonibekxonlar ta'sirida bo'lgan. Sayfi Saroyi esa markazga intilgan. Ko'rindiki, u safar

mashaqqatlarini boshidan kechirgan. Qo'nim topib, o'z salohiyatini namoyish etishga qadar g'aribona turmushga chidagan. Ajab emas, o'sha lahzalar satrlarga ko'chgan bo'lsa. Sayfi Saroyining «Suhayl va Guldursun» asaridagi mana bu misralar ham bizning mulohazalarimiz foydasiga xizmat qiladi.

*Temur Urganja tortib keldi lashkar,
Ko 'rib ko 'z-ko 'r, bo 'lib qoldi qulog-kar.
Qo 'zutti jang bila olamda to 'fon,
Oqitti suv tekin yer uzra ko 'p qon*

Bunday ayanchli ahvolga Sayfi Saroyining befarq qarashi aslo mumkin emas edi. Ayniqsa, To'xtamishxonning fojiali o'limi shoirni izardi tushirgan. O'sha mash'um lavhalar keyinchalik «Suhayl va Guldursun» dostoni misralarida muhrlanib qolgan. Shoirning fors-tojik tilidagi boshqa bir to'rtligida ham uning tarjimai holiga oid lavhalar ko'zga tashlanadi. Sayfi Saroyi umr yo'lidan uning zamon zayli, turmush taqozosi tufayli Qamishli qishlog'idan Saroya borib qolganligi, «Saroyning shoiri, elning gadoyi» bo'lib yashaganligi ma'lum. Shoir ishoralariga, uning satrlaridagi kayfiyat, ohangga jiddiyroq e'tibor qilib, qulog solinadigan bo'lsa, o'z yurtidan o'zga yurtlarga borishning muallif istak va irodasidan tashqari, bir holatda sodir bo'lganligining guvohi bo'lish mumkin. Mana bu to'rtlikda ham o'shanday norozi qiyofadagi jafokash bir shaxs namoyon bo'ladi.

*Yo rab, tu maro rahi saodat binamoy,
Digar madavon dar ba daru boy ba boy.
Yo zoviyai hirsi vujudam bar band,
Yo qulfi mubimmoti murodam bikushoy*

(Mazmuni:

*Yo, rab, sen menga saodat yo 'lini ko 'rsatgil,
Yetar, endi meni uyma-uy, joyma-joy choptirma.
Yo vujudim hirsłari yo 'lini batamom bog 'la,
Yo murodim muhimmotlari qulfini ochgil.)*

Sayfi Saroyi qalamidan chiqqan fors-tojik tilidagi nazmiy bisotning bir necha she'rdangina iborat bo'lishiga aql bovar qilmaydi.

Ularning yana anchagina miqdorda borligi shak-shubhadan yo‘q. Xususan, Shayx Muslihiddin Sa’diyday fors-tojik adabiyotining zabardast bir arbobi asarini o‘zbek tiliga o‘girish uchun jur’at qilish katta tayyorgarlik, jiddiy sinovlardan o‘tilgandan so‘nggina sodir bo‘ladi-gan hodisa hisoblanadi. Fikrimizcha, Sayfi Saroyi o‘shalarni his etgan, shu sharaflı vazifani uddalash uchun o‘zida tayyorgarlik va yetarli imkoniyat borligini tushungan holda ishga kirishgan. «Guliston» muqaddimasida o‘rtaga qo‘yilgan masalani oydinlashtirishga ko‘maka-lashuvchi ishoralar mavjud. «Ilk yoz kunlaridan bir kun, – deb yozadi Sayfi Saroyi o‘sha muqaddimada, bo‘ston ichinda gullar orasinda bir necha zarif olimlar bilan o‘turub, insho ilmindan bahs qilib, abyoti g‘arib va ash’ori ajib o‘qudum esa ul olimlarning ulusi aruz ilminda bir mushkul baytning taqattu’in savol etti. Filhol javobin eshitib aytti: «Ey adibi g‘arib, senga bir muvofiq nasihatim bor. Qabul qilsang, xayr bo‘lg‘ay». Ayttim: «Buyurung». Aytti: «Shayx Sa’diy «Guliston»ini turkiy tarjima qilsang, bir sohib davlat er otina, yodgoring jahonda qolsun deb». Ana shu tariqa yaxshilik yodgor qoldirish istagi bilan qalam ushlagan Sayfi Saroyi o‘z zimmasiga tushgan ishning mas’uliyatini ham his etadi. Masalan, mana bu satrlarda shoirning o‘sha holati ifodasini topgan.

*Eygu oti yodi biria ko ‘p zamон,
Toza bo ‘Isun bu Gulistoni jинон.
Bu guliston bog ‘boni ul adib,
Kim Saroyi Sayferur nazmi g ‘arib*

Albatta, bu misralar sharqona kamtarlik maylidan ham xoli emas. Ya’ni, Sayfi Saroyi o‘z qobiliyat va imkoniyatlari ustida kamsuqumlik, xokisorlik bilan mushohada yuritadi. Buyuk daho egasi nazdida o‘z salohiyatining «g‘arib» ko‘rinishini odilona tan oladi. Butun asar tarjimasi davomida Sayfi Saroyining jiddiy bir holatda ishlaganligi namoyon bo‘ladi. Aslida, o‘sha jiddiyat, so‘z oldidagi mas’uliyat burchini yurakdan his qilish oqibatida «Guliston» tarjimasi ko‘ngildagiday chiqqan. Ayniqsa, asardagi parchalarning ohangdor, silliq aks-sado berishini zo‘r qoniqish bilan qayd etishga to‘g‘ri keladi. Bularning

barchasi jamlanib, Sayfi Saroyining fors-tojik adabiyotiga bo'lgan baland rag'bati, ixlos va e'tiborini ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, Sayfi Saroyi o'z zamonasining zullisonayn ijodkori, tojik-u o'zbeklar birodarligi qasriga munosib g'isht qo'ya olgan adibdir.

Uslubiy tavsiyalar:

Ma'ruza oxirida 10 – 15 daqiqa vaqt qoldirib, talabalarga mustaqil ijodiy ishlashi uchun imkoniyat yaratiladi. Maqsad, darsni mustahkamlash orqali talabalarning mazkur mavzuga oid bilim va ko'nikmalarini sinab ko'rish. Odatda, axborot, ma'ruza xarakteridagi mavzularni o'tib bo'lgandan so'ng «Sinkveyn» usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. «Sinkveyn» qisqa gapda katta o'quv axborotini o'z ichiga olgan matn. «Sinkuyun» – fransuzcha so'z bo'lib, «besh» degan ma'noni anglatadi.

Dastlab, «Sinkveyn» usuli talablari doskaga yoziladi, uni barcha talabalar yozib olishadi va bir varaq qog'ozga javob yozishadi. (Javob yozilgan varaqada talabaning ismi sharifi ko'rsatiladi). Keyin o'qituvchi tomonidan javoblar yig'ib olinadi. Bundan so'ng doskada mavzu yuzasidan tuzilgan «Sinkveyn» usulidagi savollarga butun talabalar ishtirokida javoblar beriladi va mavzü xulosalanadi. Sinkveyn usuli talablari:

Birinchi qatorda mavzu bir so'z bilan ifodalanadi.

Ikkinci qatorda mavzu 2–3 ta so'z bilan ifodalanadi.

Uchinchi qatorda mavzu bir nechta so'z yoki gap bilan ifodalanadi.

To'rtinchi qatorda mavzuga oid tayanch so'z va iboralar keltiriladi.

Beshinchi qatorda mavzu mazmuniga xulosa qilinadi.

Nazorat savollari:

1. «O'zbekiyon» atamasi haqida ma'lumot bering.
2. Oltin O'rda davlatida rasmiy va adabiy til?
3. Ilm-fan va adabiyotning Misrda rivojlanishi.
4. Oltin O'rda hukmronligi davrida Xorazm adabiy muhiti.

AGIOGRAFIK ASARLAR – BADIY NASR NAMUNASI SIFATIDA

REJA:

1. *Agiografik asarlar haqida ma'lumot.*
2. *Rabg 'uziy va uning «Qissasi Rabg 'uziy» asari.*
3. *Mahmud Ibn Ali Kardariy Saroiy va uning «Nahj ul-farodis» asari.*

Tayanch so'z va atamalar: *Agiografiya, agiografik asar, Nosiriddin Rabg 'uziy, «Qissasi Rabg 'uziy», Kardariy Saroiy, «Nahj ul-farodis».*

«Agiografiya» termini ma'nosiga e'tibor qaratilsa, agiografik asarlar faqat xristianlik va islom davri adabiyoti mahsuli emas, balki boshqa dinlar ta'sirida yuzaga kelgan asarlarga ham tegishli bo'lib, har bir diniy oqim ma'lum bir o'lkada o'z mavqeini mustahkamlab, omma orasiga kirib yoyilib boradi, avliyolarning hayotiga oid har xil naqlarni paydo qiladi, diniy-falsafiy oqimlar madaniy jarayonga, ijtimoiy hayotga o'z ta'sirini o'tkazadi. Dalil sifatida «Osnovi duhovnoy kulturi» (ensiklopedicheskiy slovar pedagoga) lug'atidan «Agiografiya» terminiga berilgan izohning qisqacha mazmuni bilan tanishaylik:

«Agiografiya – avliyolarning hayoti haqidagi qissalar, muqaddaslikning ilohiy, madaniy, psixologik, ijtimoiy va tarixiy jihatlarini o'rGANISH bilan shug'ullanadigan fan... Avliyolarning hayotiga oid voqealar badiiy asarlar sifatida qaraladi, chunki bu asarlar ma'lum adabiy qonunlar bo'yicha yozilib, o'z tipologiyasiga, tuzilishiga, ilgari surgan masalalariga ega». Demak, agiografik asarlarni badiiy asarlar sifatida o'rGANISH o'zini oqlaydi.

O'zbek adabiyotida va o'zbek islom manbashunosligida agiografik asarlarga keyingi yillarda alohida e'tibor berila boshlandi. Agiog-

rafik manbalarning o‘zbek adabiyotshunosligi va manbashunosligida-
gi o‘rnı haqida professor N.Komilov, professor U.Uvatov va tarix
fanlari doktori I.Ostonaqulovlarning olib borgan tadqiqotlari alohida
ahamiyatga ega. I.Ostonaqulov XVIII asrda yashagan Muhammad
Siddiq Rushdiyning «Tazkiratu-l-avliyo» asarini maxsus tadqiq etib,
noyob agiografik asar sifatida ilm ahliga taqdım etdi. U agiografik
asarlarning yetakchi maqsadi haqida so‘z yuritar ekan, buyuk insonlar
riyoza bilan egallagan ma’naviy hol va maqom orqali inson nafsinı
tarbiyalashdan iboratligini alohida ta’kidlaydi. Buyuk mutasavviflar-
ning agiografiya janridagi asarlari va bu asarlarning ma’naviy jara-
yonga qo‘shtan hissasi haqida boshqa ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan.
Jumladan, Xoja Muhammad Porso (vafoti 1419 yil)ning «Risala-yi
qudsiya» (Muqaddas risola), «Fasl ul-hitob» (Tushunarli nutq), «Tah-
qiqat» (Haqiqatni izlash), «Silsila-yi tarixi xodjagan» (Xojagon tariqati
silsilasi) asarlari singari XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyodagi agiog-
rafik asarlarning mazmuni, mundarijasi haqida alohida ishlar mavjud.

Nosiriddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziy – Rabg‘uziyning asl
ismi Nosiriddin bo‘lib, Xorazmning raboti O‘g‘uz degan joyida ya-
shab ijod etgan. U o‘zbek nasriy adabiyotining birinchi yirik namunasi
«Qisasi Rabg‘uziy» (Qisas ar-Rabg‘uziy) nomli asar muallifi, atoqli
shoir va olimdir. Otasi Burhoniddin O‘g‘uz rabotining qozisi bo‘lgan.
«Qisasi Rabg‘uziy» asari hijriy 710, milqdiy 1310 yilda yozib tugal-
langan bo‘lib, jami 72 qissadan iborat. Rabg‘uziy anbiyolar-payg‘am-
barlar hayotidan hikoya qiluvchi qadimiy Sharq qissa va afsonalarini
qayta ishlab, manzarali lavhalar, jonli tasvirlar, xiyla pishiq, his-ha-
yajon va kechinmalarga boy obrazlar hosil qilgan, kerakli o‘rinlarda
she’riy parchalar qo‘llagan. Asarda e’tiqod va imonga sodiqlik, pok
insoniy axloqning badnafslik, xirs-u hasad, qonxo‘rlik va nohaqliklar
ustidan g‘alabasi tasvirlanadi. Rabg‘uziy o‘zining «Qissas ul-anbi-
yo» (yoki «Qisasi Rabg‘uziy») asari bilan XIII – XIV asrlarda o‘zbek
nasrini o‘z davrida yuqori cho‘qqiga olib chiqdi. Undagi qissalarda
Shish, Muso, Iso, Sulaymon, Nuh, Dovud, Muhammad kabi payg‘am-
barlar; Horut va Morut kabi farishtalar, Qobil va Hobil kabi shaxslar
haqida turli-tuman sarguzasht voqealar hikoya qilingan. Asarning eng

qadimgi qo‘lyozmasi XIV asrning 40-yillarida – mualif hayotligida ko‘chirilgan bo‘lib, u Londondagi Britaniya muzeysiда saqlanadi.

«Namrud hikoyati»da Namrud makr-u hiyla bilan to‘rtta karkas bolasi yordamida osmonga chiqib tushgani, «Nuh payg‘ambarning kema safari hikoyati» da esa qanday qilib qaldirg‘och odamlarni ilon-larga yem bo‘lishidan saqlab qolganligi hikoya qilinsa, «Uzum hikoyati» da Nuh alayhissalom va shayton orasidagi voqeа tasvirlanadi (unda Shayton uzumni tulki, sher va to‘ng‘iz qoni bilan sug‘oradi). «Uchar otlar hikoyati»da Sulaymonning qanday qilib uchar otlarni qo‘lga kiritgani haqida («Ey, Samandun, Sulaymon o‘ldi, devlar qu-tuldi», degan so‘zlar ham shu hikoyatdan olingan), «Bilqis hikoyati» da Sulaymon va Bilqis orasidagi mojarolar haqida gap boradi. (Bilqisning otasi Ahmad podsho, onasi farishta edi. Bilqis Sabo shahrida hokim edi, Hudhud uning husni jamoli, shon-u shavkatlarini ta’rif va tavsif qiladi. Bilqis Rafi degan vazirini, Tab’ degan kanizini Sulaymon huzuriga yuboradi) va hokazo.

Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziyning payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan «Qisasi Rabg‘uziy» asari ilk yirik hajmli turkiy nasr namunasi sanaladi. Hozircha ma’lum adabiy dalillarga ko‘ra, dastlabki turkiy g‘azal ham mana shu asar tarkibida uchraydi. Bulardan tash-qari, Ali degan shoir tomonidan 1223-yilda o‘g‘uz lahjasida «Qisasi Yusuf» dostoni yaratilganki, bu ham qur’oniy mavzularga murojaat va doston janri taraqqiyotini belgilaydi.

Yuksak iste’dod sohibi bo‘lgan taniqli adib, iste’dodli shoir Nosiriddin Rabg‘uziy o‘zbek mumtoz adabiyotining ulkan namoyandalardan biridir. Uning turkiy xalqlar orasida «Qisas ul-anbiyo» nomi bilan mashhur bo‘lgan «Qisasi Rabg‘uziy» asari yozuvchi ma’naviy merosidan bizgacha yetib kelgan yagona adabiy manba sanaladi. Mazkur asar yirik hajmli turkiy nasrning birinchi namunasidir. Yangi adabiy manbalarning kashf qilinishi bunday ta’kidga tahrir kiritishi ham mumkin. Nosiruddin Rabg‘uziyning hayoti va ijodi haqida juda oz ma’lumotlarga egamiz. «Qisasi Rabg‘uziy»dagi ayrim parchalar adib tarjimai holiga doir ishoralarga egaligi bilan alohida ahamiyatga molik. Jumladan, asar muqaddimasida «Qisasi Rabg‘uziy» Xorazmdagi Raboti o‘g‘iz degan joyning qozisi Burhoniddin o‘g‘li Nosurid-

din tomonidan e'tiborli mo'g'ul beklaridan hisoblanib, islom dinini qabul qilgan Nosuriddin To'qbug' abek iltimosiga ko'ra, yozilganligi e'tirof etiladi. Adib Nosuriddin To'qbug'ani: «Toj ul-umaro va muhibbul ulamo beklar urug'i, yigitlar arig'i, ulug' otlig', qutlug' zotlig', ezgu xulqlig', islom yorig'lig', mo'g'ul saniglig', musulmon dinlig', odamiyalar inonchi, mo'minlar quvonchi, hikmati adiz, aqli tegiz begimiz» (Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Birinchi kitob. Toshkent: «Yozuvchi», 1990, 10-bet) – deb ulug'laydi.

Nosuriddin Rabg'uziy asarning muqaddimasida uning yozilish sabablarini ham bayon etgan: «... Payg'ambarlar qissalariga g'oyat rag'batim bor. Tekma yerda, tekma kim ersada bilinur ba'zisi mustaqim bor, ba'zisi nomustaqim. Bir anchasi muqarrar va bir anchasi mubattar bor. Bir ozining so'zları kesuk bor, bir ozining maqsudlari o'ksuk. Emdi saning zimmangdan chiqqan, qalamungdan oqqan, kito-batma saning, iboratma saning bo'lib «Qisas ul-anbiyo» bo'lsa, o'qu-mog'qa kerakliq, o'rganmog'qa yorog'liq bo'lg'ay erdi, teb iltimos yanglig' ishorat bo'ldi ersa, nechama o'zumni ul ishga loyiq, ul amalga muvofiq ermasin bilmish erkan o'zumni og'irlab nafs saqlamish bo'lub o'g'ur bo'lsun teb, bu og'ir ishga o'gradim. Izi izza va jalladan tamom bo'lguga tafqiq (Alloh taolo uning kamchiliklarini bekitsin va unga rahm qilsin) tilab kitob boshladimiz». Ko'rinaridiki, ijodkor g'oyat ulug' ishga kirishadi. Payg'ambarlar qissalariga bo'lgan rag'bati turli joylarda, turli kishilar tomonidan hikoya qilinadigan, ba'zilari mustaqil, ba'zilari esa mustaqil bo'lмаган; ba'zilari parchalar holida bo'lgan va shunga o'xshash Allah elchilari to'g'risidagi badiiyat namunalarini yig'ib, kitob holiga keltiradi.

Asar muallifining bundan ko'zda tutgan maqsad-muddaosi quyidagicha muxtasar badiiy ifodalangan: «Bunda maqsad payg'ambar qissasi erdi va lekin Odamdin burunroq yaratilgan bor uchun andin boshlasamiz foydasi ortuqroq bo'lg'ay, deb tartib uza yaratilganlardan og'oz qildimiz. Ertikliga ung'ay, istakliga tebray bo'lsun teb «Qisasi ar-Rabg'uziy» ot berdimiz»

Nosuriddin Rabg'uziy asarning yozilish tarixi haqida quyidagicha ma'lumot beradi:

*Ushbu tugattim bu kitobnl, ey yoronlar, yer yuzi,
Bir yil ichra kechdi oning yoy, qishi, yozi, kuzi.
Oy qo'pordim, uzum uzdim, so'zni tuzdim tunla men,—
Erta turdum, xoma urdum, emganib tun-kunduzi.
Y yetti yuz o 'ii yilgakim bitildi bu kitob,
Tug'mish erdi ul ugurda hut-saodat yulduzi*

Nosuriddin Rabg‘uziy ushbu asarni bir yillik tinimsiz ijodiy mehnati natijasida vujudga keltirganini she’riy parchada e’tirof etadi. Hijriy 710-yilning hut oyida kitob nihoyasiga yetkazilgan. Hut hijriy-shamsiy taqvimning so‘nggi oyi sanaladi. Buni milodiy hisobga aylantiradigan bo‘lsak, 1332-yilning fevral-mart oylariga to‘g‘ri keladi. Biroq ayrim ishlarda, jumladan, E.Fozilov «Qisasi Rabg‘uziy» kitobiga yozgan so‘z boshisida asar hijriy hisob bilan 710-yilning hut oyi va milodiy hisob bilan 1310-yilda yozilgan, deya ta‘kidlaydi. Bunday xatolik hijriy-qamariy yilni melodiya aylantirishdan kelib chiqqan. Afsuski, o‘rta umumiyy ta‘lim maktablari darsliklarida ham bunday yanglish raqam tuzatilmagan.

«Qisasi Rabg‘uziy»ning eng qadimgi qo‘lyozma nusxasi XV asrda ko‘chirilgan bo‘lib, u Britaniya muzeyida saqlanadi. XV—XVI asrlarda ko‘chirilganligi taxmin etilgan asarning xuddi shunday yana bir nusxasi Sankt-Peterburgda mavjud. Shuningdek, «Qisasi Rabg‘uziy» XIX asrning II yarmi va XX asrning boshlarida Qozon va Toshkentda bir necha marta toshbosma usulida nashr qilingan. Asarning to‘la matni 1959-yilda Qozon shahrida rus turkshunos olimi N.I.Ilmenskiy tomonidan chop etildi. 1990—1991-yillarda E.Fozilov, A.Yunusov, H. Dadaboyev, Y.Shokirov kabi olimlarimizning sa'y-harakatlari bilan «Qisasi Rabg‘uziy» ikki kitob holida sharh-u izohlar va lug‘at bilan ta‘min etilib Toshkentda nashr yuzini ko‘rdi. Mazkur mo‘tabar adabiy yodgorlik V.Radlov, V.Tomsen, P.Melioranskiy, S.Malov, V.Kotvich, A.Fon, Gaben, G.Romstedt, A.Kononov, P.Sime, Basim Atalam, E.Najib, Rahmati Arat singari sharqshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortgan va ularning bir qator ilmiy ladqiqotlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

«Qisasi Rabg‘uziy» 72 qissadan tarkib topgan. Asar hamd, na’t, muqaddima, lirik kechinmalar va xotima kabi tarkibiy qismlardan ibo-

ratdir. Qissalar nasrda, ulardan joy olgan ba'zi lirik kechinmalar, hikoyatlarning xulosalari va asar xotimasi nazmda ijod etilgan. Nosuriddin Rabg'uziy Qur'oni karimda payg'ambarlar haqida kelgan qissa va hikoyatlarni qayta ishlab, sayqal berib, takomillashtirgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, ijodkor Qur'oni karimda mavjud bo'limgan qissalarni yozishda bir qator mumtoz sarchashmalardan, jumladan, Abu Is'hoq Nishopuriyining «Qisas ul - anbiyo» asaridan va islom diniga oid boshqa manbalardan foydalangan (O'zbek adabiyoti tarixi, 1-tom, Toshkent, 1978, 180-bet).

Asarning ilk qissasi olam, turli mavjudotlar, ins-u jin, dev, parilarning yaratilishi haqidadir. Ushbu qissada Tangrining buyukligi ulug'lanadi. Yozuvchi olamning yaratilishini quyidagicha muxtasar bayon qiladi: «Xabarda andog' kelun yakshanba kun ko'klami yaratti, dushanba kun oyni, kunni, yulduzlarni yaratti, falak ichinda turitti, seshanba kuni olam xalqidan qush-qurtlarni, farishtalarni yaratti, chahorshanba kun suvlarni yaratti, yerlarni, bulutlarni chiqardi, yig'ochlarni, o't-o'lanlarni yaratti, undirdi. Ro'zilarni ulashturdi. Panjshanba kuni ujmoh (jannah), tamug'ni (do'zax, jahannam), rahmat va azob farishtalarini, hurlarni yaratti. Odamni yaratti. Shanba kuni narsa yaratmadи. Bu qamug' narsalarni taqi ming muncha narsalarni ko'z yumub ochg'uncha yaratg'u yarog'i bor erdi...». Mumtoz adabiyotda juda ko'p e'tirof etilgan mazkur fikrlarni Nosuriddin Rabg'uziy juda ixcham ifodalagan. Bunda Yaratuvchi zoti va sifatlarining cheksiz ekanligi va buyuk yaratuvchanlik xususiyati yaqqol ko'zga tashnadi. Asardagi qolgan qissalar Odam, Nuh, Muso, Iso, Ya'qub, Yusuf, Dovud, Sulaymon, Muhammad alayhissalom kabi payg'ambarlarga bag'ishlangan. «Qisasi Rabg'uziy»dagi Shis, Muso, Solih, Yusuf, Muhammad alayhissalom va boshqa payg'ambarlar haqidagi qissalar hajm jihatidan ancha katta bo'lib, ular bir necha fasl-bo'limlardan tarkib topgan. Shuningdek, asarda kichik hajmli qissa-hikoyatlar ham bor.

«Qisasi Rabg'uziy»da dastlab payg'ambarlarning fazilat, kashf-u karomatlari bayon qilinib, so'ngra aksariyat holatlarda o'sha Alloh elchilarini ulug'lovchi she'rлar keltiriladi. Keyin esa nasrda nabi-yu rasullarning sarguzashtlari hikoya qilinadi. Bu holat deyarli barcha

qissalar uchun mushtarakdir. Jumladan, «Qisasi Odam safiy alayhis-salom» asarida bu ilk payg‘ambarning tuproqdan yaratilgani, yuksak ko‘kka otilgani, ujmoh (jannat) ichiga kirgani, Havvodek juft berilgani, iblis vasvasasiga ilingani, yorug‘ jannatdan ayrılib, qorong‘u dunyoga kelgani kabi sarguzashtlari bayon etiladi. Shundan so‘ng zikri o‘tgan voqealarning ixcham bayoni aks etgan she’riy parcha keltiriladi. Ana shunday tafsilotlardan keyin Odam alayhissalom haqidagi qissaning mazmunini hikoya qilish boshlanadi. Alloh Odamni yaratishni istadi va Jabroilga borib yerdan bir hovuch tuproq olib kelishni buyuradi. Jabroil yerdan tuproq olmoqchi bo‘lganida, yer unga mendan tuproq olmagil deb ont beradi. So‘ngra shu maqsad bilan Isrofil, Mekoil yerga keladi, har ikkalasiga ham yer Jabroil bilan bo‘lgani kabi ont beradi. So‘ngra Azroil kelib: «Saning ontingdan manga mavlo taolo yorlig‘i azizrak turur», – deb, yer yuzidan bir hovuch tuproq oladi. Alloh taolodan nido keladi: «Ey Azroil, nihoyat qattiq ko‘ngilluk er-mishsan. Taqdir andoq qildim, qamug‘ tanligi laming jonin senga oл-ding‘ayman».

Ko‘rinadiki, Rabg‘uziy o‘z asarida nega islom diniga ko‘ra bar-chaga mavjudotlarning jonini olish Azroilga topshirilgan, degan va butun insoniyatni qiziqtiradigan savolga lo‘nda hamda ishonarli javob aytadi. Umuman olganda, ushbu qissada shu tarzdagi juda ko‘p savol-larga asosli javoblar beriladi. Jumladan, Odamning tuproqdan yaratili-shiga shu ma’danning kamtarinligi, tavoze‘ qilib turishi bois bo‘lgan-ligi e’tirof etiladi. Shuningdek, Odam alayhissalom jannatda turli noz-ne’matlarni ko‘radi. Ammo o‘ziga o‘xhash mavjudot yo‘qligidan ko‘ngli to‘limgani uchun Alloh Odamni uzoq uxlatib, uning so‘l qovurg‘asidan Havvoni yaratadi. Zikri o‘tgan jarayon qissada ishonarli badiiy lavhalarda ifodasini topgan. Rabg‘uziy agar Parvardigor Odamni uzoq vaqt uxlatmasa, qovurg‘asi og‘rirdi va Havvoni o‘ziga dushman deb bilardi, – deya o‘zi qalamga olgan tafsilotlarga ishonzhlizoh beradi. Shunday qilib, qissada Odam alayhissalomga borliqdagi barcha mavjudotlaming nomlarini bilish nasib etganligi, uning jufti bilan jannatdagi hayoti, Odam, Havvo, Iblis, tovus va ilonga jannatdan chiqish haqida yorliq kelishi hamda boshqa voqealar tizimi o‘quvchini ishonarli darajada badiiylashtiriladi.

Qissalarning o‘ziga xos xususiyatlari ularning hajman katta-kichikligi, tarkibida hikoyat, rivoyat, g‘azal va boshqa she’riy shakllar namunalarining turli miqdorda uchrashi kabi tashqi belgilardayoq namoyon bo‘ladi. Ba’zi qissalarda payg‘ambarlarning ibratli hayotiy lavhalari bayon etilishi bilan bir qatorda zaminiy voqealar tasviriga urg‘u berilsa, ba’zilarida ko‘proq hozirjavoblik, donolik, ilm-ma’rifatni ulug‘lash, ma’naviy-ma’rifiy fazilatlar ifodasi yetakchilik qiladi.

Xususan, Sulaymon payg‘ambar va Luqmoni hakim haqidagi qissalarda axloqiy-ta’limiy qarashlar ifodasiga urg‘u berilganligi kuzatiladi. Sulaymon Dovud payg‘ambarning o‘g‘li bo‘lib, Dovud yalavoch (payg‘ambar) o‘z o‘g‘lini duo qiladi: «Iziyo (Egam) meni haqimda ko‘p lutf-u karam qilding, o‘g‘lim Sulaymon ham andoq-o‘q qilg‘il». Qissada bayon qilinishicha, Sulaymon payg‘ambar Mag‘rib-dan Mashriqqacha bo‘lgan keng dunyoning yagona hukmdoriga aylanadi. U jamiki hayvonot-u parrandalarning tilini biladi. Dev-u parilar, ins-u jins barchasi Sulaymonning tasarrufida edi. Hattoki, qachon Sulaymon tog‘dan kechar bo‘lsa, o‘sha tog‘dagi oltin, kumush, xullas, qanday ma’dan namunasi bor bo‘lsa, barchasi tilga kirib: «Men mundamen, kerak bo‘lsa olgil», – derdi. Hatto, dengiz ham xuddi shunday qilar edi.

Sulaymonning qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan ulkan naqshinkor taxti mavjud bo‘lgan. Rabg‘uziyning ta’kidlashicha: «Taxt bir yig‘och yer ichinda erdi. Ul taxtini oltin, kumush birla qilmish erdi.» Mana shu ulkan taxtni el ko‘tarib yurardi. Mazkur qissa ichida Sulaymon payg‘ambar bilan bog‘liq ravishda uning shaxsi, fazilatlarini ochishga xizmat qiluvchi qissachalar ham keltiriladi. Ular orasida «Sulaymonning qarinchqa (chumoli) bilan so‘zlashgani», «Sulaymon va uchar otlar». «Sulaymon va Bilqis» hikoyalari alohida ahamiyatga ega. Shularga ko‘ra, Sulaymon bir kun taxtida o‘tirganida, el uning taxtini ko‘taradi. Askarlari esa taxt ostida yurar edilar. Shunda Mindir ismli qarinchqa (chumoli): «Ey qarinchqalar, qoching, evlaringizga kiring, Sulaymon cherigi sizlarni bosib halok qilmasun», – deydi. Shunda Sulaymon payg‘ambar bu murojaatga qiziqib qolib, qarinchqa bilan savol-javob qiladi. Ular orasida bo‘lib o‘tgan gaplar g‘oyatda ta’sirchanligi bilan kishi e’tiborini o‘ziga jalb qiladi. «Qarinchqa aydi:

«Mavlodin ne tilading?» Sulaymon aydi: «Andoq mulk tiladimki, mandin o‘zga kim ersa bo‘lmasun». «Bu so‘zdin hasad isi kelur, manga bo‘lsun, o‘zgalarga bo‘lmaq‘ay. Toqi ne tilading?» Ko‘rinadiki, qarinchqa xudbinlikka qarshi va o‘zaro tenglik tarafdiridir.

Ikkinchidan, bunda Allohning barcha maxluqotni teng qilib yaratgani ta’kidlanadi. Keyingi savolga Sulaymon quyidagicha javob beradi: «Yelni tiladimki, manga musaxxar qildi, minib yururman. Astxardin Shomga, Shomdin Astxarga bir oylik yer turur. Kunda borurman ham kelurman». Qarinchqa aydi: «Manisi ul bo‘lur. Sening ilkingdaki mulkning qamug‘i yel turur. Ani minguncha ma’rifat markabini minsang, senga yaxshiroq bo‘lur. Ko‘z yumub ochg‘uncha bir soatda Arshga tekkay erding. Ikkinchidan, asardagi qarinchqa obrazida orif kishi siymosi mujassamlashtirilgan. U hukmdor sifatida barchani ma’rifatl bo‘lishga da’vat etadi. Zero, ma’rifat kishini saodatgachorlaydi. Qissadagi «Sulaymon va Bilqis» hikoyatida esa payg‘ambarning dono, tadbirkor, ma’rifatli hamda islam dini targ‘ibotchisi ekanligi badiy ifodasini topganligi bilan diqqatga molikdir. Hajman ancha qisqa bo‘lgan Luqmoni hakim qissasi ham Sulaymon hikoyati kabi xalq og‘zaki ijodi ta’sirida yozilgan. Undagi hikoyatchalarda hozirjavoblik va donolik ulug‘lanadi. Shunday hikoyatlardan birida tasvirlanishicha, bir kun Xojasi Luqmonga bug‘doy ekishni yuboradi. Luqmon borib arpa ekadi. Luqmon aydi: « Arpa eksa, bug‘doy unmasmu? » Xojasi aydi: «Unmas». Luqmon aydi: «Andoq bo‘lsa sen ham yomonlik ekib, yaxshilik umid etmagil». Hikoyat juda qisqa bo‘lishiga qaramay, unda g‘oyatda katta hayotiy mazmun mujassamlashtirilgan. Jamiyatdagil illatlar juda qisqa munozaralarda fosh etilgan hamda zolimlarniadolatli bo‘lishga, aks holda xalqdan ham, Yaratuvchidan ham umid qilmaslikka chaqirilgan. Asarda bulardan tashqari, juda ko‘p axloqiy-ta’limiy hikoyatlar, latifalar mavjud. Rabg‘uziy asarda o‘z davrining iste’dodli ijodkori va katta hayotiy tajribaga ega donishmandi sifatida namoyon bo‘ladi. U «Qisasi Rabg‘uziy» dan joy olgan hikoyatlami yozishda Qur’oni karim, boshqa diniy kitoblar, xalq orasidagi mashhur hikoyatlar, naql, rivoyatlarga tayanib ish ko‘radi. Shuningdek, asarida xalq og‘zaki ijodi hamda yozma badiiy adabiyot an‘analarini qorishiq bayon qilishga harakat qiladi. «Qisasi Rabg‘uziy» dan o‘rin ol-

gan hikoyalarining qobig‘i diniy ko‘rinsa-da, ular zamirida hayotiy voqelik o‘z ifodasini topadi. Nosuriddin Rabg‘uziy o‘zining katta yozuvchilik mahorati bilan mavzu jihatidan rang-barang yo‘nalish-dagi hikoyat, rivoyat va latifalarni yagona maqsadni yuzaga chiqarish uchun yo‘naltiradi. O‘zidagi donishmandlikni payg‘ambarlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ma’lum bir ketma-ketlik asosida ochib berishga xizmat qildiradi. Ulardagi rang-barang obrazlar ham yozuvchi maqsad- muddaosini o‘quvchiga yetkazishga qaratiladi. Asardagi hazrati Yusuf alayhissalom qissasi o‘zining badiiy jihatdan barkamolligi, pishiq yaratilganligi, hajman kattaligi bilan yozuvchining yirik so‘z san’atkori sifatida ko‘rsatish huquqini beradi. Shuningdek, «Qisasi Rabg‘uziy»ning hikoyat, latifa va qissalari tarkibiga o‘zbek, arab, fors tilida yozilgan she’riy parchalarning kiritilganligi asar muallifining bilimdonligi hamda katta shoirlik iste’dodidan dalolat beradi.

Rabg‘uziyning she’rdagi mahorati, ayniqsa, tabiat manzaralaring badiiy tasvirini chizishda ravshan namoyon bo‘ladi. Jumladan, hazrati Yusuf qissasi tarkibida kelgan g‘azalda shoir bahor manzaralaring mukammal turkiy tasvirini bergen, deyish mumkin. Mazkur she’r turkiy g‘azalning ilk namunasi ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Unda ijodkorning tashxis badiiy san’atidan mohirona foydalanganligi ko‘zga tashlanadi:

*Kun hamalga kirdi ersa , keldi olam navro ‘zi,
Kechti bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi.
Kun kelu ming ko‘rki ortib, tirilur o‘lmish jahon,
Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi
Tong otarda esnayur to ‘rt bulungdin shamol, ziyo
Kin tuzar kindik yipor, yizmanur yobon yozi
Yorligi epgun-bag ‘irdin obug ‘i yoshil, qizil,
Orasi butoq, yaburg‘oq, tol chechaklar tub tuzi
O‘rlasa bulutlari gulchirar bog ‘-u bo ‘ston,
Tol yig‘ochlar yeng solishur o‘ynayurtek qo ‘y-ko ‘zi
Kirshani qor qani englik boqsa tog ‘lar surati,
To ‘nliqi tantsuq yipordin Rum, Xitoy atlas, chuzi
Lola sag ‘roqin icharda sayrar usruk sanduvoch,
Turna un tortib o‘tarda sahrshur baqlan qo ‘zi*

*Ko 'kda o 'ynar qo 'l solishur qug'-u qoz qiz qarlig'och,
 Yerda yugrub just olishur os, tiying, kish qunduzi.
 Tol yig 'ochlar minbarinda to 'ti qush majlis tutar,
 Qumri, bulbul muqri bo 'lib un tuzar tun kunduzi.
 Yag 'iz yer , ko 'k megizlik yashnayur maydon bo 'lub,
 Og 'rushim oytak chechaklar tegrasinda yulduzi.
 Huri in ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur,
 Yoz uza mundog ' g 'azallar aymishdi Nosir Rabg 'uziy.*

«Qisasi Rabg 'uziy»da badiiyat namunalari g 'oyat yuksak bo 'lgan she'riy parchalarni yana ko 'plab uchratish mumkin. Ulardan shoir ba 'zan payg 'ambarlarni tavsiflashda, asar o 'qishliligin oshirishda, gohida esa qissalardagi voqealarga o 'zining shaxsiy hissiy munosabati ni ifodalashda foydalangan. Xulosa qilib aytadigan bo 'lsak, «Qisasi Rabg 'uziy» XIV asrda vujudga kelgan o 'zbek nasrining ilk yirik namunasi sifatida mumtoz adabiyotimiz tarixida o 'ziga xos mavqega ega adabiy yodgorlik sanaladi. Unda qalamga olingen mavzular mumtoz ijodkorlar asarlaridagi ilohiy timsollari ramziy-majoziy xususiyatlarini teran anglashga imkon yaratadi. Asardagi she'riy parchalar turli adabiy janrlar, ayniqsa, g 'azalchilikning turkiy badiiy so 'z san 'ati tarixidagi tadrijiy taraqqiyotini ko 'rsatishda qimmatli manbadir.

Mahmud ibn Ali Kordariy Saroiy (XV asr). «Nahju-l-farodis». Asarning muallifi Mahmud ibn Ali Oltin O 'rda poytaxti Saroy shahrida yashagani uning taxallusidan ma 'lum bo 'ladi. Saroyining hayoti, ijobdi to 'g 'risida batafsil ma 'lumotlar hozircha ma 'lum emas. Undan birgina asar «Nahj-ul-farodis» (Jannatlarning ochiq eshigi) bizgacha yetib kelgan. Bu asar hijriy 761 (milod. 1360) yilning bahorida yozib tugatilgan. Shuningdek, muallif kitobni tugatgandan keyin oradan ikki kun o 'tgach, «dorulfanodan dorulbaqoga rixlat qilgani», bu kitobdan ko 'p allomalar foydalanganlari kitob so 'nggida bayon qilingan. Mazzkur asarning muallifi masalasida ko 'p bahslar bor. Davlatshoh Samarcandiy «Tazkirat ush-shuar» (Shoirlar bo 'stoni) asarining Alisher Navoiyga bag 'ishlangan qismida quyidagi «mulamma» (qit 'a)ni kelтирди:

*Turkiysin ko 'rub qilurlar erdi tarku tavba ham,
 Gar tirik bo 'lsalar erdi Lutfiy birlan Kardariy,*

*Bovujudi forsi dar junbi she'ri komilash,
Chist ash'ori Zahiru kist bori Anvariyy?*

Bu mulammadagi «Kardariy» taxallusli shoir hozirgacha bir qancha munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Maqsud Shayxzoda «Tazkirachilik tarixidan» maqolasida quyidagicha fikrni aytgan edi: «Mazkur qit'ada zikr etilgan Kardariy Xorazm o'lkasining Kardar qishlog'ida hijriy 761\milodiy 1359 – 1360-yilda vafot etgan Mahmud ibn Ali degan shaxs, «Nahj-ul-farodis» nomli diniy-axloqiy asar muallifidir. Umrining bir qismini Oltin O'rda poytaxti Saroy shahrida o'tkazgan. Asarning bir necha nusxalari saqlanib qolgan. Bu asarning Kardariy tirik vaqtida xorazmlik kotib ko'chirgan nusxasi Xorazm shevasi va adabiy lahjasining tarixini o'rganishda juda katta ahamiyatga egadir. Har holda Davlatshoh turkiy nazm ustasi deb ko'rsatgan Kardariy degan shoir ana shu Mahmud ibn Alidan boshqasi emas». Nemis olimi N.Xofman ham Kardariy shaxsi haqida o'zining olti jildlik «Turk adabiyoti» kitobida ham ma'lumot bergen. Uning fikricha, «bu shoir...mashhur turkigo'y shoir Mahmud ibn Ali as-Saroyi Bulg'oriy Kardariydir. Kardar Xorazmdan bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuaro»sidagi qit'asida uni tilga olgan. Tarixda Kardariy taxallusli shoirlar bir emas, bir necha bo'lgan. Lekin uning turkiy tilda yozilgan «Nahj-ul-farodis» asari bizga ma'lumdir».

Saroyi to'g'risidagi ma'lumotlar hozircha ma'lum emas. Davlatshoh Samarqandiy bergen ma'lumot Kardariyning Lutfiy darajasi-dagi shoir ekanini ko'rsatadi. Ammo boshqa tazkiralarda Kardariy to'g'risida hozircha ma'lumotlarni achratmadik. Ehtimol, Oltin O'rda adabiy muhitida yashab ijod qilgan aksariyat shoirlar, tazkiraga kirmagan, ular to'g'risidagi ma'lumotlar uzuq-yuluq, Temuriylar sulolesi bilan Oltin O'rdadagi ijtimoiy va siyosiy munosabatlar adabiy jarayonga, xususan, Kardariy singari mashhur shoirlarning tazkiralardan o'rin olishiga monelik qilgan bo'lishi mumkin. «Nahj-ul-farodis»da uning biron bayt she'ri ham uchramaydi.

«Nahj-ul-farodis» to'rt bobdan va har bir bob o'nta fasldan – jami qirq fasldan iborat. Bu asar «qirq hadis» ni sharhlagan va har bir hadisga oid hikoyatlar bilan bezalgan asardir. Bu asar «Qisas ul-anbiyo» turkumiga mansub bo'lsa ham, payg'ambarlar tarixi bayonida afsona-

lar emas, balki tarixiy voqealar, rivoyatlar asosiy o‘rin egallaydi. Qolaversa, «Nahjul-farodis»ni yozishda muallif turli ishonchli manbalarga tayangani uchun ham asarga ko‘p allomalar murojaat etganlar.

«Nahj-ul-farodis»da eng diqqatga sazovor dalil – bu hadislardir. Birinchi bobning birinchi faslidagi hadisga e’tibor qarataylik. «*Imom Bag’oviy rahmhi «Mashobih» otlig’ kitobinda bu hadisni keltirmish: Payg’ambarimiz as. aydi: Tangri taolo. Ismoil payg’ambar as. o‘g‘lanlarindin Quraysh qabilasini odurdi. Yana Quraysh qabilasidin Xoshim atlig’ kishining o‘g‘lanlarini odurdi. Yana Xashim atlig’ kishining o‘g‘lanlarindin meni o‘durdi, chiqardi. Bu ma’nidan otru Payg’ambar as.qa Mustafa at berildi. Mustafa arab tilincha odrulmish temak bolur* – Imom Bag’oviy rahmatullohi «Mashobih» degan kitobida quyidagi hadisni keltirgan. Payg’ambarimiz shunday aytgan ekan: Tangri taolo Ismoil payg’ambar o‘g‘illaridan Quraysh qabilasini tanlab oldi. Yana Quraysh qabilasidan Hoshim degan odamning o‘g‘illarini tanlab oldi. Yana o‘scha Hoshim degan odamning o‘g‘illari orasidan meni tanlab olib, o‘rtaga chiqardi. Shu sababdan Payg’ambara Mustafoga ismi berildi. Mustafoga – arab tilida tanlab olgan ma’nosini bildiradi». Hadisning manbai (*Bag’oviyning «Mashobih» asari*) ishonchli ekani ko‘rinib turibdi.

«Nahj-ul-farodis»ning birinchi bobida Muhammad alayhissalomda payg’ambarlik sifatlarining zohir bo‘lishi va uning dini islom yo‘lidagi faoliyati bayon qilingan. Bobda hadislardan, Bag‘aviyning «Mashobih» asaridan tashqari, shayx Imom Ishoq Quloboziyining «Ta’rif» kitobidan, Imom Sog‘oniyning «Mashoriq ul-Anvor» asaridan, Imom Abul Muhammad Ispijobiyning «Tafsir»idan, Imom Abul Alayh Ushiyining «Nishobul-Axbor» kitobidan, Shayx Abu Yazid Bustomiy, Abdulloh ibn Ma’sud kabilarning so‘zlaridan foydalangan. Barcha ulamo va fuzalolarning Muhammad a.s.ga tug‘ilgan paytidanoq payg’ambarlik sifatlari va fazilatlari ato qilinganini bayon qiladilar.

«Nahj-ul-farodis» tarixiy asar emas, payg’ambar tarixi boshdan-oxirigacha bayon qilinmagan. «Nahj-ul-farodis» – agiografik asar, payg’ambar hayotining eng muhim nuqtalariga e’tibor qaratgan. Jumladan, Olloha Taolo Muhammad a.s.ga payg’ambarlik sifati-

ni topshirishi, musulmonlikni ilk bor qabul qilgan Xadicha, Ali, Abu Bakr va Zayd to‘g‘risidagi qiziqarli voqealar, payg‘ambar a.s.ning Makkadan Madinaga borishi, uning mo‘jizalari va boshqa ko‘p voqealar «Nahj-ul-farodis»ni qiziqarli badiiy asar sifatida yaratishga asos bo‘lgan. Jumladan, mazkur asarning birinchi bobি, to‘rtinchи faslidan «Payg‘ambar a.s.ning Makkadan Madinaga chiqmoq bayoni ichinda turur» nomli voqeaga e’tibor qarataylik. Bu voqeа imom Abul Alayi Ushiyining «Nishob ul-axbor» kitobidan bir hadisni keltirish bilan boshlanadi. Hadis ma’nosи quyidagicha: «Qaysi bir mo‘min va muvahhid g‘ariblikda o‘lar bo‘lsa, Haq Taolo o‘sha qulga shahidlar savobi ro‘zi qilur, yana qabr azoblaridan saqlaydur». Shundan so‘ng quyidagi voqeа keltiriladi:

Kunlarning birida Abu Jahl qurayshlarni yig‘di. Bir uy bor edi. O‘sha uyni dor ul-nadvo der edilar. Qachon biron maslahat qilishga to‘g‘ri kelib qolsa, o‘sha uyga yig‘ilishar edilar. Shu orada Iblis o‘zini bir qari chol suratiga o‘xshatib. Ularning orasiga kirdi. Qurayshlar so‘radi: «Ey chol, sen kimsan?» Iblis javob berdi: «Men shayx Najdiyman, Najd elidan bir cholman. Eshitdimki, sizlarning bir mashvaratingiz bor deb. Men ham ular orasida bo‘layin, ularning so‘zlarini eshitayin, bilayin, deb keldim». Abu Jahl xursand bo‘ldi. Shundan so‘ng Abu Jahl gap boshladi: «Ey quraysh qabilasi, Muhammadning ishi kundan-kunga ziyoda bo‘lib bormoqda. Qo‘rqamanki, buning natijasida ko‘p odamlar yig‘ilishib, bizlarga zaxmat etkazadilar deb. Endi bundan so‘ng ishni bir yoqli qilsak». Jumla xalq bu gapni ma‘qul ko‘rdi. Shundan so‘ng Abu Jahl Xashshom degan kofirga aytdi: «Yo Xashshom, sening ra‘ying qanday **agar** bu Muhammadni o‘ldirsak?» Xashshom aytdi: «Mening ra‘yim shuki, bu Muhammadni tutsak, bir quturgan tuyaga bog‘lasak, sahroning bu boshidan – u boshigacha sahroda kezsak, o‘shanda u halok bo‘ladi». Shayx Najdiy aytdi: «Bu ra‘y behuda». So‘radilar: «Nega behuda» Shayx Najdiy aytdi: «Uning do‘satlari bor, qabilasi bor. Bu ishdan ular xabar topadilar, borib, Muhammadni xalos qiladilar». Ma‘qul ko‘rdilar. Shundan keyin bir kofir aytdi: «Mening ra‘yim shuki, o‘sha Muhammadni bir uyga qamab, o‘sha uyning tuynugini, eshigini berkitsak, Muhammad o‘sha uyda ochlikdan o‘ladi». Shunda shayx Najdiy aytdi: «Bu ish ham yaramay-

di, shuning uchunikim, do'stlari bilib qoladilar va eshikni olib, chiqarib oladilar». Abu Jahl so'zлади: «Mening ra'yim shuki, har bir qabiladan bittadan yigit chiqsa, ular kechasi yotgan yerga borsalar, qilich bilan hammasini chopib tashlasalar. Agar diyet tilasalar, jamiki qabila yig'ilishib, diyet bermak oson bo'ladi». Shayx Najdiy aytdi: «Valloh, bu ra'y nihoyatda to'g'ri». Har bir qabiladan bir yigitni oldilar. O'tkir qilich bilan kelib, o'ldirmoqqa kelishib oldilar. Jabroil kelib, aytdi: «Yo Muhammad, kofirlar bu kecha kelib, seni o'ldirmoqchi bo'ldilar. Senga ishorat shu bo'ladiki, bu kecha chiqsang, Madina tarafga borsang, u yerda kofirlarni islomga da'vat qilsang». Payg'ambar a.s. bu ahvolni Abu Bakrغا aytdi. Abu Bakr shunday javob berdi: «Yo Rasululloh, nega siz yolg'iz borar ekansiz?! Men ham siz bilan birga borayin». Payg'ambar a.s. xursand bo'ldi.

O'sha kecha Payg'ambar a.s. va Abu Bakr tunda chiqib, ertalbagacha yo'l yurdilar. Tong otdi, kofirlar qarasalarki, Muhammad bilan Abu Bakr yo'q. Bildilarki, ular qochib ketibdilar. Abu Jahl nido qildi: «Kimki Muhammad bilan Abu Bakrni tutib keltirsa, yuzta tuyani suyunchi qilib beraman». Uch kungacha sahroni kezib chiqdilar, ammo topmadilar. O'sha kecha Abu Bakr bir soat Payg'ambar a.s. ning o'ng tomonida yurdi, keyin bir soat chap tomonida yurdi, bir soat oldida yurdi, bir soat orqasida yurdi. Payg'ambar a.s. aytdi: «Yo Abu Bakr, to'rt tomonimda yuribsan. Nimaga bir tomonimda yurmaysan?» Abu Bakr aytdi: «Yo Rasululloh, dushmanlardan qo'rqaman. Nogohnon dushmanlar o'qi o'ng tomonidan kelib qolsa, avval dushman o'qi menga tegsin, sizga tegmasin. Chap tomonga o'tib yuribman, buning ma'nisi shuki. Agar dushmanning o'qi chap tomonidan kelsa, menga tegsin, sizga tegmasin». Payg'ambar a.s. aytdi: «Yo Abu Bakr, hech qo'rquamaginki, Tangri Taolo biz bilan birgadir». Shu lahzada Tangri Taolo Abu Bakrning ko'nglida xotirjamlik paydo qildi. Shundan so'ng, Payg'ambar a.s. ko'rsaki, bir otliq ko'rindi. Qachon o'sha otlik yaqin kelganda, ularga tomon kelayotganini bildilar. Payg'ambar a.s. aytdi: «Ey Rabbiy, uni ushla!» Shunday deb aytgan zahoti, otning to'rt oyog'i yerga botib ketdi. Otliq chaqirdi: «Ey Muhammad! Meni qo'yib yubor! Men ruju qilayin, senga zaxmat yetkazmayman». Payg'ambar a.s. aytdi: «Yo Rabbiy! Agar rost aytayotgan bo'lsa, Sen ijozat bergen»,

degan edi, o'sha zahoti otning oyoqlari yerdan chiqdi, o'sha otliq qaytib ketdi. Shundan keyin ikkovi ancha yurdilar. Payg'ambar a.s.ning muborak oyoqlari xastalandi, yura olmay qoldi. Abu Bakr Payg'ambarni orqasiga ko'tardi. Ertalabgacha yurdilar. Tong otdi. Ko'rsalar-ki, yuz otliq tog' etagiga yetib kelibdilar. O'sha tog'ning etagida bir g'or bor edi. O'sha g'orga kirmoqchi bo'ldilar. Abu Bakr aytdi: «Yo Rasululloh, men oldin kirayin, ko'rayin, odamzodga ozor beradigan jonivorlar bo'lmasin tag'in». Abu Bakr kirdi, qaradi. Undan keyin Payg'ambar a.s. kirdi. Abu Bakr qarasaki, bir teshik bor ekan. Oyog'ini o'sha teshikka qo'ydi, toki o'sha teshikdan ilon kirib, Payg'ambar a.s. ga zaxmat etkazmasin deb. Bir ilon keldi, o'sha teshikdan chiqmoqqa qasd qildi, Abu Bakrning oyog'iga kallasini tegizdi. Abu Bakr yo'l bermagan edi, Abu Bakrning oyog'ini chaqdi. Zahri qattiq ta'sir qildi. Abu Bakr oyog'ini olmadi, toki Payg'ambar a.s.ga zarar keltirmasin deb. Payg'ambar: «U ilon Payg'ambar a.s.ga salom bermoq uchun chiqayotgan edi», dedi. Qarasaki, Abu Bakrning ko'zidan shashqator yosh oqardi. Payg'ambar a.s. aytdi: «Yo Abu Bakr, oyog'ingni ko'tar, ilondan yo chayondan qo'r qmagin, Haq Taologa tavakkul qilgin, Haq Taolo biz bilan birgadir».

Shundan keyin kofirlar Payg'ambar a.s.ning izidan ketdilar, g'or og'ziga yetib keldilar. Haq Taoloning amri bilan o'rgimchak g'or og'ziga to'rini to'qidi. Kofirlar aytdilar: «Agar bu g'orga Muhammad kirganda edi. Bu o'rgimchak uyi buzilgan bo'lardi. Bu erda yo'q», deb ortlariga qaytayotganlarida, Abu Jahl aytdi: «Xotirimga shunday kelurki, Muhammad shu yaqin orada turibdi. Bizga sehr-jodu qilyapti, shu bois ko'r mayapmiz». U bir kofirga aytdi: «Tush, bu g'orga kirgin». Umayya ibn Xalaf aytdi «Muhammad tug'ilmasdan oldin o'rgimchak bu inini to'qigan. Muhammad bu yerga kirganda edi, bu o'rgimchak ini buzilmasmidi?!» Shunday qilib, Abu Jahl va uning do'stlari qaytib ketdilar.

Payg'ambar a.s. va Abu Bakr o'sha g'orda uch kun turdilar. Uch kundan keyin chiqib Madina tarafga yo'l oldilar. Oziqlar tugadi. Undan so'ng bir arab qabilasiga keldilar va aytdilarki: «Sizlarga sotgani go'sht yoki xurmo bormi? Sotib olardik». Chodirdan bir ayol chiqdi, oti Ummi Muid edi. Aytdi: «Yaxshi mehmon ekansizlar. Sizlarni

mehmon qilar edim, lekin qahatchilik yili bo'ldi, uyimda hech narsa yo'q. Erim Abu Muid qo'ylarni o'tlatgani olib ketgan. Qo'ylarimiz bu yerda bo'lsa edi, sizlarga sut bergen bo'lardim». Payg'ambar a.s. aytdi: «Yo Ummi Muid! Chodir yonida yotgan qanday qo'y?» Ummi Muid aytdi: «Bu qo'y juda oriq qo'y, hech suti yo'q. Qo'ylar bilan bora olmasdan, bu yerda yotibdi». Payg'ambar a.s. aytdi: «Yo Ummi Muid, ijozat berarmisan uni sog'moqqa?» Ummi Muid aytdi: «Ijozat beraman, agar sut chiqsa sog'ing». Payg'ambar a.s.: «Qo'yni menga olib kelinglar!» deb buyurgan edi, olib keldilar. Payg'ambar a.s. «Bismillahi-r-Rahmanir-Rahim» deb muborak qo'lini qo'yning eliniga tegizdi. Darrov qo'yning elini kattalashib, qo'y semirdi. Shundan keyin Payg'ambar a.s. aytdi: «Yo Ummi Muid! Uyda karson bor bo'lsa, olib kel». Ummi Muid bir karson keltirdi. Payg'ambar a.s. muborak qo'li bilan sog'di, karson to'ldi. Payg'ambar a.s. ikki qo'li bilan u karsonni ko'tardi va Ummi Muidga ichirdi. Ancha ichgach, to'ysi. Keyin Abu Bakrga ichirdi. Undan keyin o'zi ichdi. Payg'ambar a.s. ikkinchi marta sog'di. Karsonni to'ldirdi, Ummi Muid uyida qoldirdi, ketdilar.

Kechqurun Abu Muid keldi. Qarasa, uyda bir karson sut turibdi. Taajjublandi, aytdi: «Yo Ummi Muid! Bu qanday hodisa? Qo'ylar uzoqda edi, uyda sog'iladigan qo'y yo'q edi. Bu sut qaydan keldi?» Ummi Muid javob berdi: «Biznikiga bir mehmon keldi, nihoyatda muborak mehmon, ko'r kam yuzli, shirin so'zli, o'rtalbo'yli kishi ekan. Bu oriq qo'yga muborak qo'lini tekizgan edi, qo'y shunchalik semirdiki, ko'rsang, elini katta bo'lib ketdi. O'z qo'li bilan sog'di, bir karson to'ldi. Uni hammaga o'z qo'li bilan ichirdi, keyin o'zi ichdi. Ikkinci marta sog'di, bir karson to'ldi, unisini uyga qoldirib ketdi». Abu Muid aytdi: «Men eshitdimki, Makkada bir payg'ambar chiqibdi deb, Muhammad der ekanlar. Xaloyiqni Haq yo'liga undar deb ayturlar. Bu aytganing o'sha bo'lsa kerak. Bunday mo'jiza payg'ambarlar dan o'zgasida bo'lmas. Agar Tangri umr bersa, boraman». Yana Ummi Muidga aytdi: «Menga u odamning sifatini yaxshilab aytib ber. Agar borsam, yanglishib qolmay. Yaxshilab bilib olayin. Yigit kishimi yoki qarimi?» Ummi Muid aytdi: «Yigit kishi. Mo'ylovi qora, ochiq yuzli, qiyofasi haybatli, juda uzun bo'yli ham emas, kalta bo'yli ham emas, o'rtalbo'yli dir. Qoshlari ochiq, juda semiz ham emas, oriq ham emas,

o'rtachadir. Vazmin odam, serharakat emas. Tishlari seyrak, yuzi to'lin oyday porlagan. So'zlaganda, ochiq, dona-dona gapiradi, pala-partish so'zlamaydi. Kafti katta, ko'zları pastga ko'proq boqadi, yerga qaraydi. Bir oz boshini orqaga tashlab, ko'kka boqar. Soqoli o'rtacha, uzun ham emas, ko'sa ham emas. Qattiq yurmas ekan, yurganda, ohista yurar ekan».

Payg'ambar a.s. Makkadan chiqqanda Abu Bakrqa, Madinaga qanday borish kerak, deb maslahat solgan edi. Abu Bakr aytdi: «Ikkita tuya sotib oldim, sakkiz yuz yarmoqqa. Biriga siz minasiz, bittasiga men minaman, ketaveramiz». Payg'ambar a.s.aytdi: «Bizga bir qu-lovuz¹ kerak». Abu Bakr aytdi: «Abdulloh otlig' odam bor, u Madina yo'llarini yaxshi biladi». O'sha Abdullohni darrov olib keldilar. Yana Abu Bakrning bir ozodi bor edi, Amir degan. Abu Bakr unga aytdi: «Sen ikki tuya bilan Abdullohni olib, Savr otli tog' etagida g'or bor, biz chiqqandan so'ng uch kun o'tgach, o'sha yerga kelasan». Ular uch kundan keyin keldilar. Abu Bakr bilan Payg'ambar a.s. bir tuyaga mindilar, ular ikkalasi bitta tuyaga mindilar. Ular ketib, Madinaga ya-qinlashdilar. Bir yahudiy Payg'ambarning yo'lini to'sdi. Keyin borib, Madina xalqiga xabar berdi. Madinada ko'p sahabalar bor edi, ba'zisi Madinadan, ba'zisi Makkadan. Umar *razhu* Madinada edi. Hamma sahabalar sevindilar. Payg'ambar a.s. Madinaga kelganidan bir-birlari ga xabar berdilar. Hammalari qurollandilar, urushga borayotganday kofirlarni qo'rqtish uchun. Payg'ambar a.s.ning istiqboliga chiqdilar. Payg'ambar a.s. sahroda bir yig'och narida manzil qilib turar edi. Madinadan chiqqanlar u yerda Payg'ambar a.s.ga duch keldilar, u bilan ko'rishdilar. Hamma sahabalar sevindilar. Shundan keyin Payg'ambar a.s.ga Enshor qabilasi aytdiki: «Yo Rasululloh, biznikiga manzil qilsangiz bo'ladimi? Bog'chalarimiz, yerlarimiz keng», dedilar. Payg'ambar a.s. aytdi: «Manovi Qashva otlig' tuyaga minayin, hech kimsa zaxmat tortmasin. Qaysi eshik oldida bu tuya cho'ksa, men o'sha uyga tushaman». Hamma sahabalar rozi bo'ldilar.

Juma kuni edi. Payg'ambar a.s. Qashva otlig' tuyasiga mindi. Hamma sahabalar otlandilar. Ko'pchilik yayov chiqib turgan edilar. Madina shahrida Payg'ambar a.s.ning jamoliga mushtoq bo'lganlar

¹ Qulovuz – yo'l boshlovchi.

ko'p edi. Payg'ambar a.s.ni ko'rmasdan, sahabalar oldida imon kelti-rib turar edilar. Jamiki xaloyiq Madinaga yuzlandilar. Qaysi qabiladan Payg'ambar a.s. o'tar bo'lsa, o'sha qabilaning ulug'i chiqib, Payg'ambar a.s.dan iltimos qilsa, Payg'ambar a.s. ularga xayr va barakot bilan duo qilur edi va yana aytar edi: «Mana shu Qavsa otlig' tuyam qaysi eshikda cho'ksa, men o'sha xonadonda mehmon bo'laman». Madinaning jamiki ulug'lari, mo'minlari orzu qilar edilarkim, Payg'ambar a.s.ning tuyasi bizning eshigimiz oldida cho'karmikan, shunday bo'larmikan, deb. Tuya hech cho'kmas edi, o'tib ketaverar edi. Anchaga qadar bordi, Ayyub Ansoriy eshigiga cho'kdi. Payg'ambar a.s. ham tuyadan tushdi, masjidga kirdi. Hamma sahabalar ham kirdilar, juma namozini ado etish uchun. Payg'ambar a.s. minbarga chiqib, xutba o'qidi. Minbardan tushib, imomatlik qildi. Hamma sahabalar iqtido² qildilar. Namozdan chiqib, Payg'ambar a.s. Ayyub Ansoriy uyiga kirdi. Ayyub Ansoriy shod bo'ldi.

Hamma sahabalar uylariga borib, kuchlari etgancha Payg'ambar a.s.ga hadya tayyorladilar. Zayd ibn Sobit aytur: «Men olti yashar edim. Onam bir idishga non to'g'radi, non ustiga sarig' yog' qo'shdi, yana ozgina sut qo'shdi, keyin idish ustini yopdi. Keyin menga aytdiki, o'g'lim, bor, Ayyub Ansoriyning uyiga kirgin, Payg'ambar a.s.ga salom ber, aytginki, onam sizga taomni hadya qilib berdi, deb. Men onam aytganiday qildim, Payg'ambar a.s. menga aytdi: Tangri Taolo senga barakot bersin, dedi. Hamma sahabalar yig'ildilar, u hadyani tanovul qildilar».

Ayyub Ansoriyning onasiga zaifalar kelib so'rardilar: «Payg'ambar a.s. qaysi taomni yoqtiradi? Biz o'sha taomni tayyorlab olib kelaylik». Ayyub Ansoriyning validasi shunday deb aytar edi: «Payg'ambar a.s. bizga hech buyurmaganlarki, falon taomni pishiring, deb. Oldiga qanday taom kelsa, hech ayb topmasdi. Agar kerak bo'lsa tanovul qilardi, agar keraksiz bo'lsa, totib ko'rар va yoronlariga ayturkim: Sizlar tanovul qilinglar, deb. Bir kun taom pishirdik, hech tatib ko'rmadi. Men va o'g'lim nihoyatda qayg'urdik. Men aytdim: Yo Rasululloh, hamisha taom pishirsak, tanovul qilar edingiz, doim qolgan taomni sizning muborak qo'lingiz tegdi, deb tabarruk qilib yeyar edik. Bu

² Iqtido – ergashish, iyarish.

kun nima bo‘ldiki, bu taomni yemadingiz, deb so‘ragan edim, menga shunday dedi: Ey Ayyubning onasi, bu taomda sarimsoq hidi burnimga keldi, men Haq Taologa munojot qilaman. Og‘zim sassig‘i bilan qanday qilib munojot qilayin?! Bu taomni o‘g‘ling Ayyub bilan tanoval qilinglar, deb aytdi».

Shundan keyin Madina ichida qancha musulmonlar, mo‘minlar bor bo‘lsa, hammasi Payg‘ambar a.s.ga kelib, salom qilib, bayot berdilar. Payg‘ambar a.s. qo‘li bilan o‘sha bayot berganning qo‘lidan ushlab, aytar edi: «Haq Taolo farmonidan chiqmagaysan, Haq Taoloning rasuli Muhammad Rasululloh farmonidan chiqmagaysan. Qaysi ishga amr etsa, qilgaysan, qaysi ishdan qaytarsa, qaytgaysan...», deb aytsa, o‘sha bayot bergenlar «qabul qildik», deb aytar edilar. Shundan keyin xotinlar yig‘ildilar, oqshom Ayyubning onasi oldiga keldilar va aytdilar: «Payg‘ambar a.s.dan izn so‘ragin, bizlar ham Payg‘ambar a.s.ning muborak jamolini ko‘raylik, juftlarimiz bayot bergenlari kabi, bizlar ham bayot beraylik», dedilar. Ayyub onasi Payg‘ambar a.s. hazzratlari oldiga kirdi. Ijozat so‘ragan edi, Payg‘ambar a.s. ijozat berdi. Ayyubning onasi bu xotinlarni boshlab kirdi. Avval Ummi Sa‘d otlig‘ayol Payg‘ambar a.s.ga salom berdi, Payg‘ambar a.s. alik oldi. Shundan keyin so‘radi: «Ey zaifa. Isming kim?» Ayol javob berdi: «Yo Rasululloh, ismim Ummi Sa‘d». Payg‘ambar a.s. so‘radi: «Otangning ismi kim?» Ayol javob berdi: «Otamning ismi Ra‘fdir». Payg‘ambar a.s. so‘radi: «Menda qanday hojating bor?» Ummi Sa‘d aytdi: «Yo Rasululloh, Tangri Taoloni Bir-u bor deb imon keltirdik, sizni Haq Taoloning rasuli deb bildik. Endi juftlarimiz sizga bayot berdilar, bizlar ham keldik sizga bayot bermoqqa», dedi. Payg‘ambar a.s. aytdi: «Shukrkim o‘sha Tangrigakim, sizlarni Islomga ko‘ndirdi». Shundan keyin aytdi: «Ey zaifalar, hammangiz kelinglar, oldimda o‘tiring», degan edi, hammalari Payg‘ambar a.s. oldida o‘tirdilar. Payg‘ambar a.s. oldiga bir piyola bilan suv qo‘ydi, muborak qo‘lini suvgaga botirdi, zaifalarga aytdi: «Erkaklardan bayot olsam, qo‘llarini tutib bayot olurman, ammo siz – zaifalarning qo‘llarini tutmoq bo‘lmas. Qachon men qo‘limni bu piyoladan chiqarsam, sizlar qo‘llaringizni botirgaysiz», dedi. Shundan keyin Payg‘ambar a.s. aytdi: «Ey zaifalar, Tangri Taoloni bilgandan keyin, Tangriga o‘rtoq bo‘lib qo‘silmagaysiz» degan

edi, ular «qabul qildik», deb javob berdilar. Yana Payg‘ambar a.s. ayt-di: «Ey zaifalar, erlaringizning mollaridan o‘g‘irlamagaysiz, zino qilmagaysiz, o‘g‘illaringizni o‘ldirmaysiz, boshqadan tug‘ilgan o‘g‘lonni erlaringizga: «Buni men tug‘dim», deb aytmaysiz, o‘lim-yitimda faryod qilib yig‘lamaysiz, to‘ningizni yirtmagaysiz, sochlaringizni yulmagaysiz, yuzlaringizni yulmagaysiz, begona erkaklar bilan xilvat yerda so‘zlashmagaysiz», deb aytgan edi, zaifalar: «Hammasini qabul qildik», dedilar. Payg‘ambar a.s. piyoladan qo‘lini chiqardi. Bu zaifalar qo‘llarini o‘sha piyolaga botirib, qo‘llarini yuzlariga surtar edilar. Shundan keyin Payg‘ambar a.s. ijozat berdi, zaifalar chiqdilar.

Shundan keyin Makkadan ko‘p sahabalar kela boshladilar. Payg‘ambar a.s. Madina xalqiga aytdi: «Makkadan kelganlarni qadrlanglar, yerini, yurtini tashlab, bizning suhbatimizda bo‘lmoq uchun g‘ariblikni ixtiyor qilib keldilar. Ularni lutfu karam bilan qarshi olsalaringiz», dedi. Madinada turganlarni Makkadan kelganlar bilan qarindosh qildi. Makkadan hijrat qilib kelganlarga muhojir, deyilur, Madina xalqi Makkadan kelganlarga yordam berdilar, qarshi oldilar, lutfu karam ko‘rsatdilar, ularga ansoriy, deyilur.

Mazkur faslni to‘liq keltirishimizdan maqsad – «Nahj-ul-farodis» da Muhammad a.s. hayotida yuz bergen voqealarning, bir tomonidan, voqeiy hikoyaga mansubligini ko‘rsatish, ikkinchi tomonidan, didaktik adabiyotga xos barcha xususiyatlar bu asarda o‘z ifodasini topganiga ishor qilishdir.

Agar «Nahjul-farodis»ni janr nuqtai nazaridan belgilash talab etilsa, bu asar bir necha janrlarni – tarixiy voqealar hikoyat, rivoyatlar zaminida berilganini nazarda tutgan holda, didaktik janrga mansub deb qarash mumkin. Zotan, hadislarni keng sharhlash asosida yuzaga kelgan hikoyat va rivoyatlarning har biri ma’lum bir g‘oyani – to‘g‘rilik, halollik, rahm-shafqat kabi fazilatlarni shaklantirishga xizmat qiladi. Insoniyatni ma’rifatga chorlash, komillik sari da’vat qilish kabi fazilatlarni Mahmud Ali har bir bobda ilgari suradi.

Mahmud Ali bu bobda Muhammad a.s.ning vafotiga qadar bo‘lgan bayon qilar ekan, doimo ma’lum bir voqeani biron manbadan keltirilgan iqtibos yoki hadis orqali tasdiqlab boradi.

«Nahjul-farodis»ning ikkinchi bobida xalifa Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali va to‘rtala imom – Imomi A’zam, Imom Shofe’, Imom Malik, imom Ahmad va «ahlı bayt» Fotima, Hasan va Husaynga oid voqealar bayon qilingan. Bobning har bir fasli bir xalifaga – birinchi fasl Abu Bakr (Siddiq)ga, ikkinchi fasl – xalifa Umarga, uchinchi fasl – xalifa Usmonga, to‘rtinchi fasl – xalifa Aliga bag‘ishlangan. Qolgan fasllar Fotima, Hasan va Husayn, Imom A’zam Abu Xanifa, Imom Shofe’, Imom Malik, Imom Ahmad Xanbalga oid voqealarni o‘z ichiga oladi.

Asarda Abu Bakr Payg‘ambarning eng yaqin do‘sti, shijoatli sahobasi ekanligi Imom Sog‘oniyning «Mashoriq ul-anvor» nomli kitobidan keltirilgan hadis orqali dalillanadi. Faqat Abu Bakrga masjidga istagan darvozadan kirish uchun imtiyoz berilgani to‘g‘risidagi hikoyat yoki Abu Bakr yettita zaif qulni sotib olib, ular jon saqlab qolishlari uchun uyiga olib kelib, rahm ko‘rsatgani to‘g‘risidagi hikoya ham ibratli, ham islom endigina hayotga kirib kelayotgan paytda islom fidoyilarining jonbozliklarini hayotiy voqealar orqali dalillaydi.

Xalifa Ali – jasoratli, dushmanlarga ayovsiz, farzandlariga esa mehribon ota. U hatto vafotidan keyin ham birinchi naavbatda, inson sifatida, qolaversa, shijoatli va qahramon amirul-mo‘minin sifatida ulug‘lanadi. Alining vafotidan keyin ham ulug‘langaniga oid ikki rivoyatni Mahmud Ali keltirar ekan, o‘z davridan keyin ham xalq orasida ulug‘ bir zot sifatida e‘tirof etilishga loyiq inson sifatida talqin qilinganini ko‘rsatadi.

Rivoyatlarga ko‘ra, Ali o‘g‘illari Hasan bilan Husaynga shunday vasiyat qiladi: «Mening dushmanlarim ko‘p. Men kofirlarning va dushmanlarimning o‘n ming bahodirini o‘ldirdim, ularning avlodlari ham menga dushmandirlar . Agar meni oshkora dafn qilsangizlar, dushmanlar meni qidiradilar. Men ~~vafot~~ etganimdan keyin, tun yarmida hamma haloyiq uyquga ketgandan so‘ng, bir tuyaga yuklab, Kufadan olib chiqinglar. Ikki yig‘och yo‘l yursangizlar. Sahroda Izzi degan bir tepalik bor, o‘sha tepani qazisangizlar, u yerda bir tosh lavha chiqadi. Lavha yuzasiga bu yerda Odam alayhissalom va Nuh payg‘ambar yotgan yerlaridir, deb yozilgan. Men o‘sha ikki payg‘ambar yoniga dafn qilsangizlar», deb vasiyat qiladi. Hasan bilan Husayn otalari vasiya-

tini bajo qildilar, hech kimsaga o'sha joyni aytmadilar. Oradan ancha vaqt o'tgach, Ja'far Sodiq xizmatkori bilan u yerga borib ziyorat qilganda, xizmatkori so'radi: «Ey payg'ambarzoda, bu kimning ziyoratgohiki, siz uzoq joydan kelib, bu joyni ziyorat qilgani keldingiz?» Jaf'ar Sodiq aytdi: «Ey xizmatkor! Bilgin, ogoh bo'lginki, bu joy amr ul-mo'minin Ali ibn Abu Tolibning qabridir. Dushmanlardan qo'rqib, shu paytgacha hech kimga aytmagan edik. Endi dushmanlarning bironiasi qolmadi, endi istagimiz shuki, Haq Taolo bu qabrni ziyorat qilishni mo'minlar orasida oshkora qilsak». Xalifa Alining bu tarzda talqin qilinishi shubhasiz, xalq orasida ham uning to'g'risida rivoyatlar keng tarqalganiga bir ishoradir. Odatda, inson o'zi bilmagan, ammo bilihga qiziqqan narsalar to'g'risida ko'p mulohazalar qiladi, rivoyatlar paydo bo'ladi va hokazo. Xalifa Ali to'g'risida turli mandalarda qoldirilgan rivoyatlar shundan dalolat beradi.

Don Mak Kerridan: Azob – uqubat – islom shiasining asosiy mavzularidan biridir. Buning uchun asos bo'lib, Ali va uning ikki o'g'li – Hasan va Husaynning taqdiri bilan bog'liq hodisa xizmat qiladi. Suriya hukmdori Muoviyaga xalifa Alining hokimiyatiga xavf soldi. Ali Muoviyaga qarshi unchalik zo'r bermasdan (Alining ba'zi izdoshlari aynan shuni istagan edilar) lashkarini boshlab borayotganda, Ali o'z tarafdorlari tomonidan o'ldirildi. Ular hozirgacha xorijiyalar nomi bilan yuritiladi. Alining o'g'li Hasan otasi o'rnini egalladi, ammo Muoviyaga tomonidan mag'lub qilinib, o'ldirildi. Shundan keyin xalifalik taxtiga Husayn o'tirdi. 680-yili Karbalo dashtida Muoviyaning qo'shini ustun keldi, Husayn jangda halok bo'ldi.

Uslubiy tavsiyalar:

Darsda tanqidiy fikrlarning turi bo'lmish FSMU (fikr, sabab, misol, umumlashtirish) usulidan foydalangan holda talabalar uchun ahamiyatli bo'lgan muammoni o'rtaga tashlab, bahs-munozara vaziyatini yaratish va tanqidiy mulohazalarga keng o'rin berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu usul to'rt bosqichda o'tkaziladi:

I bosqich.«Fikringizni bayon qiling» deb nomlanadi. Bunda har bir talabaga tarqatilgan oddiy qog'ozga Rabg'uziy va Kardariy Saroiy

haqida bilgan fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib berish topshiriladi.

Masalan: Birinchi talaba: «Qisasi Rabg‘uziy» asari qissa va hikoyatlardan iborat.

Ikkinci talaba: Diniy hikoyat va afsonalardan iborat bo‘lgani uchun.

Uchinchchi talaba: Olam va odamning yaratilishi bilan bog‘liq hikoyalar borligi uchun.

To‘rtinchi talaba:

II bosqich. Bu bosqichda har bir talabaga FSMU usulining to‘rtta bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:

F – fikringizni bayon qiling

S – fikringiz bayoniga sabab

M – sababingizni misol bilan isbotlang

U – fikringizni umumlashtiring

III bosqich. Har bir talaba o‘z qog‘ozlarini to‘ldirib bo‘lgach, o‘qituvchi ularni bir nechta guruhlarga bo‘ladi va har biri yozgan qog‘ozdagi fikr va dalillarni umumlashtirib bir qog‘ozga yozishadi.

IV bosqich. Bu bosqichda guruh a’zolarining Rabg‘uziy va Kardariy Saroiy haqidagi barcha fikrlari o‘rganilgach, bosqichning har biri bo‘yicha umumlashtirilib, himoya qilinadi. Himoya vaqtida guruh vakillari o‘z yozganlarini isbotlashlari, nima uchun shu fikrga kelganliklarini bayon qilishlari kerak.

Yakunlovchi bosqichda o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bayon qilingan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi.

Nazorat savollar:

1. «*Qissai Rabg‘uziy*» qissalarida keltirilgan payg‘ambarlar obrazlari.
2. «*Qissai Rabg‘uziy*» hikoyatlarini sanang.
3. *Mahmud Ali Kardariy as-Saroyi haqida keltirilgan ma'lumotlar?*
4. «*Nahjul-farodis*» qachon yozilgan? Asar necha bobdan iborat?

TEMURIYLAR DAVRI ADABIYOTI

REJA:

- 1. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatga asos solinishi.*
- 2. Amir Temur davrida ilm-fan taraqqiyoti.*
- 3. Atoiy hayoti va ijodi.*
- 4. Lutfiy hayoti va ijodi.*

Tayanch so‘z va atamalar: *Temuriylar davlati, sarbador, tuyuq, tarjima adabiyot, Atoiy, Lutfiy.*

Mo‘g‘ullarga qarshi ozodlik harakatlari Movarounnahr va Xurosonning turli hududlarida davom etdi. Mahmud Torobiy rahbarligidagi xalq qo‘zg‘olonlaridan tortib, Oltin O‘rda xonlari zulmiga qarshi murosasiz kurashlarda namoyon bo‘lgan norozilik harakatlari, tarixda «Sarbadorlar» nomi bilan mashhur bo‘lgan xalq harakatining vujudga kelishiga asos bo‘ldi. «Sarbador» so‘zining ma’nosи «Boshimizni dorga tikdik» bo‘lib, istilochilarga qarshi jiddiy va murosasiz kurash boshlanganining isboti edi. 1381-yilda 43 yil umr ko‘rgan Sarbadorlar davlati sohibqiron Amir Temur davlatiga qo‘silib ketdi. Shunday qilib, poytaxti Samarcand bo‘lgan markazlashgan Amir Temur davlatining vujudga kelishi mo‘g‘ullar istilosiga barham berdi. Temuriylar davrida siyosiy-ijtimoiy ahvolning barqarorlashuvi natijasida madaniyat, ilm-fan, adabiyotshunoslik ancha ravnaq topdi. Professor A.Hayitmetov buni shunday izohlaydi: «Ulug‘ davlat arbobi va lashkarboshisi Amir Temur hamda uning xalaflari hukmuronligi davrida O‘rta Osiyoda kuchli va yagona davlat vujudga keldi. Bu davrda tarixda birinchi marta Movarounnahr va Xurosondagи o‘zbek qabilalari bir xalq, bir millat sifatida o‘zaro birlasha boshladilar. O‘rta Osiyoda katta etnik guruhni tashkil etgan bu xalq Temur va temuriylarni har

tomonlama suyab turgan asosiy kuch edi...» (Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent: 1993, 97-bet).

Amir Temur Qora, Egey, O'rtayer dengizidan to Hindistonning sharqigacha, Mo'g'iliston va Xitoygacha, Hind okeanidan to Ural tog'larigacha, Moskva ostonasidan Dnepr bo'ylarigacha bo'lgan juda katta hududni qamrab olgan buyuk sultanatga asos soldi. Amir Temur 1405-yilning 18-fevralida Xitoya lashkar tortib borayotganida 69 yoshida vafot etadi. Sohibqiron o'miga amirzoda Pirmuhammad vali-ahd qilib tayinlanadi. Ammo, Temurning o'g'llari buyuk sultanatning parchalanib ketishiga sababchi bo'lishadi.

Temur davlati parchalanib ketgach, temuriylarga faqat Xuroson va Movarounnahr qoladi.

Xurosonni 1409 – 1447-yillarda o'g'li Shohruh Mirzo, Samarqand poytaxti bo'lgan Movarounnahrni o'g'li Ulug'bek Mirzo 1409 – 1449-yillarda boshqaradi.

Bu davrda madaniyat, adabiyot, tarjima adabiyot, adabiyot-shunoslik ancha rivojlandi. «Muhabbatnama» muallifi Xorazmiy, Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Horazmiy, Atoiy, Sakkoki, Gadoiy, Lutfiy, Hofiz Xorazmiy kabi so'z ustalari yetishib chiqishdi. Shuningdek, adabiyot olamida adabiy tur va janrlar ancha takomillashdi. Turkiy adabiyotda Nosiriddin Rabg'uziy asarida ilk bor uchragan g'azal namunasi, bu davrga kelib badiiy adabiyotning yetakchi janriga aylandi. G'azalning asosiy mavzusi sevgi-muhabbat bo'lgan bo'lsa, endilikda mavzu doirasi ancha kengaydi. Adabiyotda tasavvufning tajalliy etishi natijasida majoziy obrazlar, ko'plab timsollar, ilohiy va majoziy ishq, zohir va botin tushunchalar keng yoyildi. Birgina Navoiyning o'zi turkiy va forsiyda 300 dan ortiq g'azallar ijod qilgan. Xazoin-ul maoniy» devonidan shoirning 2600 dan ortiq g'azali o'rindigan.

Bu davrda faqat turkiy adabiyotda shakllangan janr, tuyuqning vujudga kelishi she'rxonlarga yanada ko'proq badiiy zavq bag'ishladi. Tuyuq bandi to'rt misradan iborat, radif va qofiyalar o'mida omonim so'zlar qo'llanadigan, tajnis san'ati asosiga qurilgan sof turkiy janrdir. Asosan a-a-b-a tarzida qofiyalanadi. (Boshqa shakllari ham mavjud).

Tuyuq qat’iy ravishda ramali musaddasi maqsur (foilotun, foilotun, foilon) vaznida yoziladi. Dastlabki tuyuq namunasi turkiy adabiyotda XIV asr shoiri Burhoniddin Sivosiy devonida uchraydi. Bundan tashqari, lirik turning musaddas, musamman, mustazod, tarje’band, tarkiband, qasida, marsiya, soqiylnoma, lug‘z (chiston), muammo, noma, munozara, doston, hikoya, masal kabi janrlarda ham barakali ijod qilindi. Xorazmiy «Muhabbatnama» asari orqali turkiy adabiyotda nomaliga janriga asos soldi. Bu turdag'i asarlarda epik voqelik, histuyg‘ular ifodasi orqali berilishiga ko‘ra, nomaliga liro-epik turga yaqinlashdi. «Yusuf va Zulayho», «Gul va Navro‘z», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ai Sayyor», «Gulshan-ul asror», «Hayrat-ul abror», «Lison-ut tayr», «Shayboniynoma», «Saddi Iskandariy» singari dostonlar masnaviy shaklida yozildi. A. Navoiyning «Hamsat-ul mutahhayrin», «Holati Sayyid Hasan Ardascher», «Holati Pahlavon Muhammad» asarlari o‘zbek adabiyotida nasriy-memuar asarlarning shakllanganini ko‘rsatadi.

Tarjima adabiyot ham adabiy aloqalarning bir ko‘rinishi bo‘lib, bu sohada ham arzigulik ishlar amalga oshirildi. Qutb Xorazmiy Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» dostonini, Sayfi Saroyi Shayx Sa’diyning «Guliston»ini «Gulsiton bit-turkiy» nomi bilan o‘zbek tiliga tarjima qilishgan. Mavlono Lutfiy esa Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini tarjima qilganlar.

XIV – XV asrlarda turli adabiy tur va janrlarda adabiy-badiiy asarlarning vujudga kelishi, adabiyotshunoslik fanining ham taraqqiy etishiga, adabiy tanqid ya’ni «na’qada ilmi» ning paydo bo‘lishiga olib keldi. Shuningdek, aruz vazni, qofiya, muammo janri va adabiyotning boshqa dolzarb masalalari haqida bir kecha asarlar vujudga keldi. Shayx Ahmad Taroziyining she’riy janrlar, san’atlar, qofiya, muammo hamda turkiy aruzga doir risolalarini o‘zida mujassam etgan «Funun-ul balog‘a» kitobi, Sayfi Buhoriyning «Aruz» risolasi, Kamoliddin Husaynning muammo haqidagi risolasi, Alisher Navoiyning «Mezonul avzon», «Majolis un-nafois» va «Risolai muammo» asarlari, Boburning «Muxtasar», Hiloliyning «Risolai qofiya» kabi asarlari shular jumlasidandir.

Atoiy hayoti va ijodi. (XIV asr oxiri XV asr birinchi yarmi). Biz Atoiy nomini asosan, Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», hamda «Muhokamat-ul lug‘atayn» asarlari orqali bilardik. Atoiyning zamon-doshi bo‘lgan Yusuf Amiriyl ham o‘zining «O‘q va Yoy» munozarasida uning nomini tilga oladi. Adabiyotshunoslarimizdan A.Fitrat, H.Zarif, A.Rustamov, N.Mallaev, E.Ahmadho‘jaevlar shoir haqida tadqiqotlar olib borganlar.

1948-yilda nashr etilgan «O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi»ning I tomida Atoiy haqida qisqacha ma’lumot berilib, jumladan shunday deyiladi: Atoiy Balx shahridan bo‘lib, qaysi yilda tug‘ilib, qachon va-fot etgani ma’lum emas. Uni Ulug‘bek saltanatining so‘nggi davrida va Abdullatif saroyida (XV asrning birinchi yarmida) yashab ijod et-gan deb qaraydilar».

1959-yilda nashr etilgan 4 tomlik «O‘zbek adabiyoti»ning I to-mida quyidagi ma’lumotni o‘qiyimiz. «Atoiy ijodining barq urgan davri XV asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Atoiy Toshkent bilan Sayram oralig‘idagi bir qishloqdan bo‘lib, nasab jihatidan Ahmad Yassaviy qarindoshi Ismoil ota avlodlaridan bo‘lganligini so‘zlaydilar. Shoir taxallusining Atoiy bo‘lishi ham uning Yassaviy tariqatini elga yoyuvchi so‘fiylardan, ya’ni Mansur ota, Zangi ota, Sulaymon Hakim ota, Anbar ota, Ibrohim ota kabi mutasavvuf otalar oilasidan chiqqanligini tasdiqlaydi».

Atoiy haqida Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» asarida quyidagi ma’lumotni uchratamiz: «Mavlono Atoiy Balxda bo‘lur erdi... Ismoil ota farzandlaridandur. Darveshvash, hushxulq, mun-basit (quvnoq) kishi erdi». «Nasoyim ul-muhabbat»da esa quyidagi ma’lumotlarga duch kelamiz:... Ismoil ota...zohiran...Xo‘ja Ahmad Yassaviyning Ibrohim ota ismli inisining o‘g‘lidir».

Nasl-nasab nuqtai nazaridan Ahmad Yassaviy avlodidan bo‘lgan Atoiy tasavvuf targ‘ibotchilari izidan bormadi. Aksincha, dunyoviy ishlar bilan shug‘ullanib, Navoiy ta‘biri bilan aytganda «Hushxulq va munbasit» kishi bo‘lib etishdi. Undan bizgacha yagona bitta devon etib kelgan bo‘lib, 260 g‘azalni o‘z ichiga olgan.

G‘azallari: «Jamolin vasfin», «Hosili umrum..», «qon bo‘ldi ko‘ngul..», «Manga», «Ey do‘st», «qora ko‘zlar», «Ul Sanamkim» va hakozo.

Lutfiy. 1366-yili Hirot shahri yakinidagi Dehikanor degan joyda oddiy oilada dunyoga keladi. Navoiyning «Majolis-un nafois», «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Holati Pahlavon Muhammad» kabi asarlarida, shuningdek, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuar», Hondamirning «Habib-us siyar», «Makorim-ul ahlok» Abdulla qobuliyning «Tazkirat ut-tavorih» singari asarlaridagina Lutfiy haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan, xolos. Fors adabiyoti vakillari haqida ma'lumot beruvchi Vola Dog‘istoniyning «Riyoz ush-shuar», («Shoirlar bo‘stoni») asarida Lutfiy haqida quyidagicha yozadi: «Mavlono Lutfiy: Zikri vay dar «Majolis»i Amir Alisher shuda. Dar turky va forsy she'r meguftast».

A.Navoiy «Majolis un-nafois»da Lutfiyni shunday ta'riflaydi: «O‘z zamonining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko‘proq erdi va turkcha devoni ham mashhurdir». «Majolis-un nafois»da Lutfiyning quyidagi go‘zal bayti keltirilgan:

*Noziklik ichra belicha yo‘k tori gisuyi,
O‘z haddini bilib, belidan ultirur quyi.*

(Izoh: gisu-soch tolasi, soch o‘rimi).

«Nasoyim ul-muhabbat»da «to‘qson to‘qqiz yoshida olamdan o‘tdi, qabri Dehikanordadir: o‘z maskani erdi» deya ma'lumot beriladi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «mavlono» so‘ziga shunday izoh berilgan: «musulmon sharqida olim va fazil kishilarni, ustozlarni ulug‘lab, ularning nomlariga qo‘shib ishlatiladigan so‘z».

Lutfiy taxallusining ma’nosи – latif, go‘zal lutfli, shirinsuxan demakdir. Shoirning ismi Lutfulla bo‘lgan, shu bois Lutfiy taxallusini olgan, degan qarashlar ham mavjud. Ayrim adabiyotshunoslar uning oti Mulla Umar bo‘lgan, deb ham tahmin qilishadi. Ahmad Taroziy Lutfiyni «Shoshiy» degan. Bu ishoradan adibning asli Toshkentdan

ekani ma'lum bo'ladi. Lutfiy 1465-yili 99 yoshda Hirotda vafot etadi. Dehikanor qishlog'ida dafn etilgan.

Merosi: lirik devon (1ta); Sharafiddin Ali Yazdiyning 1437-yil (25 yilda) bitgan «Zafarnoma» asarini Shohruh Mirzoning taklifi bilan o'zbek tiliga she'riy yo'l bilan tarjima qilgan. Lirik devonining qadimgi nusxasi 1511-yilda Hirotlilik Mahmudbek tomonidan ko'chirilgan bo'lib, Londonda, Britaniya muzeyida saqlanadi. XIX–XX asrlarda ko'chirilgan nusxalari O'zR FA sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Lutfiyning poetik mahorati. Mumtoz she'riyatda ma'noni bo'yitish, uning ta'sir kuchini oshirmoq uchun badiiy san'atlardan umli foydalaniladi. Mumtoz she'riyatda ma'shuqa bilan bog'liq eng ko'p qo'llaniladigan tashbehlar: bo'y, qomat-sarv daraxti; soch-sumbul, mushk; qosh-yoy, kamon; kiprik-o'q; g'amza-qilich, xanjar; tishlar-inju; lab-la'l, obi hayot.

Lutfiy she'riyatida ilohiy ishq bilan dunyoviy ishq deyarli har doim yondosh yuradi. Lekin baribir unda dunyoviylik belgilari ko'proqdek tuyulaveradi:

*Agar sen bo'lmasang guldek chamanda
Kishi netgay ushal bayt ul-xazanda?*

(Izoh: bayt ul-hazan-g'amhona, g'am uyi).

Navoiy Pahlovon Muhammadning qaysi turkigo'y shoir yaxshiroq she'r bitgan degan savoliga: «Mavlono Lutfiy holo musallam-durlar va bu qavmning ustodi va malik-ul kalomidurlar» deb javob bergen. Haqiqatan o'z davrining «Malik ul-kalomi» bo'lgan Lutfiy o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotining keyingi bosqichi uchun samarali hissa qo'shgan adiblardandir.

Uslubiy tavsiyalar:

O'qituvchi mavzuni «Lutfiyni bilasizmi?» savoli orqali «Aqliy hujum» tarzida boshlagani ma'qul. Talabalar adib va uning ijodini A. Navoiyning «Majolis-un nafois», «Muhokamat-ul lug'atayn» asar-

lari orqali, shuningdek, Lutfiyning lutfiga sazovor bo‘lgan «Orazin yopqoch...» g‘azali orqali bilishlarini aytishi mumkin. Shundan so‘ng o‘qituvchi talabalarga Lutfiyning tug‘ilgan yurti, yili qaysi manbalar orqali ma‘lumotlar yetib kelganligi, g‘azallari haqida to‘xtalib o‘tadi. Shu o‘rinda muayyan bir g‘azalini doskaga yozib, oldin lug‘at tuzib sharhlasa, shu asosda poetik tahlil qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Agarda talabalarning g‘azalni sharhlash va poetik tahlil qilish malakasi bo‘lsa, unday holda guruhdagi talabalarning sonidan kelib chiqqan holda, aytaylik, 4 ta guruhgaga bo‘lgan holda darsni davom etirish mumkin. Barcha guruhlarga bir xil savol va topshirqlar yozilgan kartochkalar beriladi. G‘azalni sharhlash va poetik tahlil qilish uchun muayyan vaqt beriladi. Kartochkalardagi savol va topshiriqlar quydagicha bo‘lishi mumkin:

- g‘azalni ifodali o‘qing
- lug‘at tuzing
- badiiy sharh qiling
- obraz va timsollarni aniqlang
- radifini aniqlang
- qofiyadosh so‘zlarni aniqlang
- Raviy nima?
- Vaznini aniqlang
- Misra va baytlardagi she’riy san’atlarni topping.

Ajratilgan vaqt tugagandan keyin har bir guruhdan bitta talaba o‘z guruhining fikrlarini bayon qiladi. To‘rtta guruhning ham fikrlari tinglab bo‘lingach, o‘qituvchi guruhlarning fikrlarini umumlashtirib o‘z mushohadalarini bayon etadi va to‘g‘ri maslahatlar beradi.

Nazorat savollari:

1. *Temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy jarayon?*
2. *XIV–XV asrlarda adabiy tur va janrlar taraqqiyoti?*
3. *XIV–XV asrlarda tarjima adabiyoti rivoji?*
4. *Lutfiy haqida ma‘lumot beruvchi tarixiy manbalar?*
5. *Navoiy asarlarida Lutfiy ta’rifi?*

GLOSSARIY

ABSTRAKTSIYA – insondagi aqliy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, predmetning alohida xususiyatlari, tomonlari yoki holatini fikran ajratish, ularni mustaqil ko‘rib chiqish ob’ektiga aylantirish imkonini beradi.

ADAPTATSIYA – lot. Adaptation – tana va uning uzvlari (xususiyatlari, populyatsiyasi, turlari) qurilishi va funksiyalarining (jarayoni va natija sifatida) muhit sharoiti bilan moslashishi.

AKTSENTUATSIYA – (lot. Accentus – urg‘u) – tildagi tizim; urg‘ularning ifodalaniishi; urg‘u vositasida ajratish

ANALOGIYA – (yun. Analogia – mos kelish, o‘xhash bo‘lish, muvofiqlik) – predmetlar, hoidisalar, tushunchalar orasidagi biror jihatdan o‘xhashlik; predmetlar orasidagi biror yaqinlik yoki o‘xhashlik asosida ularning boshqa tomondan yaqinligi haqida xulosa chiqarishga asoslanadigan fikriy xulosa shakli.

Anketa – (fr. Enquete – tekshirish) – mazmuni va berildgan savol-larga javob usulini oldindan rejalashtiradigan hamda tadqiqotchi tomonidan odindan rejalashtirilgan maqsadga erishishni ko‘zda tutadigan savolnoma.

ADABIYOT – (arabcha **ادب** adab so‘zining ko‘pligi) – keng va tor ma’nolarda ishlataladi. Keng ma’noda fan va amaliyotning biror sohasi yutuqlarini umumlashtiruvchi asarlar majmuiga nisbatan qo’llaniladi: *texnikaviy adabiyot, qishloq xo‘jaligi adabiyoti, siyosiy adabiyot* kabi. Tor ma’noda inson va voqelikni badiiy so‘z orqali chizilgan obrazlar vositasida aks ettiruvchi san’at turini anglatadi, u *badiiy adabiyot* deb ham yuritiladi. Adabiyot avval og‘zaki shaklda mavjud bo‘lgan, yozuv paydo bo‘lgach, yozma shaklga o‘tgan. Adabiyot – so‘z orqali inson tuyg‘u va kechinmalarini, uni qurshab turgan ijtimoiy hayat va tabiatni butun murakkabligi bilan ifodalash imkoniyatiga egadir. Shuning uchun ham u san’atning boshqa turlariga qaraganda ommaviyroq hisoblanadi. Adabiyotning yetakchi uch turi – *epos, lirika va drama* mavjud bo‘lib, badiiy asarlar mana shu uch tur

asosidagi janrlarda yaratiladi. Keyingi paytlarda adabiyotshunoslikda paremik tur haqida ham mulohazalar bildirilmoqda

Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlari kabi *milliyligi, xalqchiligi va zamonaviyligi* bilan xarakterlanadi. Shunga ko‘ra adabiyot har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi sanaladi.

ADABIYOT NAZARIYASI – adabiyotshunoslik fanining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Badiiy adabiyot, uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati, yaratilish qonuniyatları, taraqqiyot bosqichlari, badiiy asarning tasviriy hamda ifoda vositalari, tarkibiy tuzilishi, adabiy tur va janrlarni, adabiy jarayon xususiyatlarini o‘rganadi. Adabiyot nazariyasi so‘z san’atining ijodiy tajribalariga tayangan holda ish ko‘radi, o‘z nazariy xulosalarini turli davrlarda yaratilgan eng sara badiiy javohirlar tahlilidan, tarixiy-adabiy jarayonni o‘rganishdan keltirib chiqaradi.

Adabiyot nazariyasi uzoq tarixga ega fanlardan biridir. Mazkur fan Sharqda asosan, uch yo‘nalishda rivojlangan. Bular – aruz ilmi, qofiya ilmi va balog‘a ilmi, ya‘ni she’riy san’atlar haqidagi yo‘nalishlardir. Muhammad bin Umar ar-Roduyoniyning «Tarjumon ul-balogs‘a», Rashididdin Vatvotning «Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she’r», Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyuning «Funun ul-balogs‘a», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», Boburning «Muxtasar», Husayn Voiz Koshifiyning «Badee’ ul afkor fi sanoe’ ul-ash’or», Atoullohu Husayniyning «Badoi’ us-sanoi’», Vohid Tabriziyuning «Jam‘i muxtasar» kabi asarlarida aruz she’riy tizimi, qofiya hamda uning turlari va she’riy san’atlar alohida-alohida o‘rganilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida tom ma’nodagi adabiyot nazariyası XX asrning 20-yillarda shakllandi. Bu davrda Fitrat tomonidan yaratilgan «Adabiyot qoidalari» kitobida badiiy adabiyotning o‘ziga xosligi, ijtimoiy tabiat, adabiy tur va janrlar, syujet, kompozitsiya, badiiy nutq va mahorat masalalari bo‘yicha yaxlit ma’lumotlar berildi. Keyinchalik Abdurahmon Sa’diy, Izzat Sulton, H.Yoqubov, M.Yunusov, M.Qo‘shtonov kabi olimlar tomonidan olib borilgan nazariy izlanishlar ushbu fan taraqqiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘sildi.

ADABIYOT TARIXI – adabiyotshunoslik fanining mustaqil tarkibiy qismi bo‘lib, unda biror xalqning adabiyoti, uning yuzaga kelishi, taraqqiyot bosqichlari, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Adabiyot tarixi tarix, tilshunoslik, xalqshunoslik, tarixiy geografiya fanlari bilan yaqin munosabatda bo‘ladi. Adabiyot tarixi shuningdek, adabiyot nazariyasi va folklorshunoslik bilan ham uzviy aloqadordir. Chunki har bir xalq adabiyoti zamirida og‘zaki ijod manbalari muhim omil sanaladi. Adabiyot tarixi ayni vaqtida janrlar va uslublar, ijodiy metodlar tarixi hamdir. Bu holat uning adabiyot nazariyasi bilan ham mushtarak soha ekanligini isbotlaydi.

ADABIYOTSHUNOSLIK – badiiy adabiyot va uning mazmun mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, paydo bo‘lish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy vazifalari, ijodiy jarayon qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir. Adabiyotshunoslik bir-biri bilan chambarchas bog‘langan – *adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi* va *adabiy tanqid* bo‘limlari dan tashkil topgan. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘otit-turk» asaridagi xalq og‘zaki ijodi namunalari haqidagi muayyan fikrlar, ilmiy-tekstologik qaydlar adabiyotshunoslikka mansub ilk qarashlar sanaladi.

Adabiyotshunoslik ilmiga oid kuzatuvlar hisoblanmish Abu Nosir Forobiyning «She’r san’ati» (X asr), Abdulqodir Jurjoniyning «Asror ul-balogs‘a fi ilmi bayon (Bayon ilmida balogs‘at sirlari)» (XI asr), Qays Roziyoning «Kitob ul mo‘jam fi maiori ul-ajam» (Ajam she’riyati me’yorlari qomusi) (XIII asr) asarlarida badiiy asar tabiat, tili, muallif mahorati kabi masalalar yoritiladi.

Adabiyotshunoslik tarixida Zamaxshariy (1075 – 1144), XII asrda yashagan shoir va adabiyotshunos Nizomiy Aruziy ibn Umar Samrqandiy, XIV asr ijodkorlari Atoulloh Husayniy, Xondamir, Vosifiy asarları muhim o‘rin egallaydi.

Milliy adabiyotshunoslik taraqqiyotida Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning «Funun ul-balogs‘a», buyuk so‘z ustasi Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Hamsat ul-mutahayyirin» singari asarlarida badiiylik san’ati, ijodkor va badiiy ijod, so‘z oldida mas’ullik, aruz she’riy tizimining nazariy va amaliy ma-

salalari qalamga olinadi. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning «Muxtasar», Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning «Aruz haqida risola» asarlari ham o‘zbek adabiyotshunosligidagi muhim manbalardir. O‘tmishda adabiyotshunoslikda she’rshunoslik katta nufuzga ega bo‘lgan, bu soha asosan uch yo‘nalish (ilmi aruz, ilmi bade’ va ilmi qofiya)dan tarkib topgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi matbaachilik tarqqiyoti o‘zbek adabiyotshunosligi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhamedov, Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy va Vadud Mahmud kabi mualliflarning turli janrga mansub tadqiqotlarida adabiyot va uning ijtimoiy funksiyasi masalasiga alohida urg‘u berildi.


Ijtimoiy ongning barcha sohalarida bo‘lganidek, XX asr, aniqrog‘i, sho‘rolar hukmronligi davridagi mafkuraviy zug‘um va ijtimoiy biqqlik adabiyotshunoslik fanida ham o‘z ifodasini topdi. Mumtoz adabiyotga munosabat, davr adabiyoti namunalari talqini, adabiy jarayonni baholash kabi masalalarda sinfiy va partiyaviy tamoyillar etakchilik qildi. Shunga qaramay, XX asrda adabiyotshunoslik ilmi mustaqil fan sifatida shakllandi, uning uchala bo‘limi – adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid sohalarida jiddiy yutuqlarga erishildi: turli mualliflar tomonidan monografiya, darslik, qo‘llanmava risolalar yaratildi.

Zamonaviy adabiyotshunoslik fani shakllanishi va takomilida Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa’diy, Ota-jon Hoshim, Vadud Mahmud, Oybek, Izzat Sulton, Natan Mallaev, G‘ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shtonov, Nuriddin Shukurov, Ummat To‘ychiev, Umarali Normatov, Anvar Ho-jahmedov, Begali Qosimov, Baxtiyor Nazarov, Bahodir Sarimsoqov, Najmiddin Komilov, Dilmurod Quronov singari olimlarning tarixiy, nazariy va amaliy xarkterdagi asarlari e’tirofga loyiqidir.


ADABIY ASAR – boshqa og‘zaki yoki yozma bitiklardan o‘zida muallifning badiiy mahorati belgilarini jamlagani bilan ajralib turuvchi ko‘rkam adabiyot mahsuloti. Mazmunan bir butunlik va tugallikka ega, muayyan g‘oyaviy-badiiy va estetik maqsadga yo‘naltirilgan adabiy asar ijodkor va kitobxon orasidagi hissiy-intellektual vositadir.

TAVSIYA ETILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI:

1. «FSMU»



2. Venn diagrammasi




3. «Arra» yoki «Zig-zag»

Navoiy Lutfiy Atoiy ...



4. Klaster




5. Toifali jadval

Qushlar	Hayvonlar	Ranglar	Lavozim va kas-hunar
Bulbul	Tuya	Qizil	Xoqon
G'oz	Kiyik	Oq	Dehqon
Oqqush	Ohu	Qora	Hunarmand
O'rdak	Bug'u	Ko'k	Shoir
...

6. «Nima uchun»




7. «Bahs – munozara»



8. «B/B/B»




9. «Davom ettir »



10. Sinkveyn

Tasavvuf



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абу Мансур ас-Саолибий. Йатимат-ад-даҳр. Тошкент: «Фан» нашриёти, 1976 й.
2. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар, Тошкент: «Фан», 1968 г.
3. Ал-Хорезми. Математические трактаты. Пер. Ю.Х.Копелевич, Б.А.Розенфельда, Ташкент. Фан. 1964
4. Булгаков П.Г., Розенфельд Б.А., Ахмедов А.А. Мухаммад ал-Хорезми. Москва: «Наука», 1983
5. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. Тошкент,Faфур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981 й.
6. Форобий. Шоирлар санъати қонунлари ҳақида.–«Аристотель. Поэтика» китобида. Тошкент: Faфур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980 й.
7. Ҳайтметов А. Темурийлар даври адабиёти. Тошкент: 1996 й.
8. Жамоа. Ўзбек адабиёт тарихи. 1 – 5 жилд. Т.: 1977–79 йй.
9. Караматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. Тошкент: 1993 й.
10. Комилов Н. Тасаввуф. 1- китоб. Тошкент: 1996 й.
11. Маҳмуд Қошғарий «Девону луготит турк» З томлик. Тошкент. Фан, 1960 – 1963 йй.
12. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. Тошкент: «Ўқитувчи», 1976 й.
13. Nehçul-feradis, II, metin, turk dil kurumı yayınları: 518, s. 2
14. Пўлотжон Домулло Қаюмов. Тазкирайи Қайюмий. Тошкент: 1998 й.
15. Қаюмов А.П. Қадимият обидалари. Тошкент: 1972 й.
16. Курбаниязов М. XIV аср ўзбек адабиётида ҳикоят жанри тараққиёти. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори

(PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.
Қарши: 2019 й.

17. Раҳмонов Н. Руҳиятдаги нур муроди. – Тошкент: 2002 й.
18. Rahmonov N. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. (1-jild) Toshkent: «Fan». 2005 y.
19. Rahmonov N. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. (2-jild) Toshkent: «Fan». 2007 y.
20. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари. – Тошкент: «Мумтоз сўз». – Т.: 2016 й.
21. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent.: «Sano-Standart», 2017 y.
22. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011 й.
23. Валихўжаев Б. Маликул-калом Мавлоно Лутфий. Самарқанд: 1999 й.
24. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 y.
25. Хаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. Тошкент: 1991 й.
26. Хаққулов И. Ирфон ва идрок. Тошкент: 1998 й.
27. Хўжанова Г. «Ҳибат ул-ҳақоқийқ» ҳақиқатлари. Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001 й.
28. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. Тошкент: «Фан»нашриёти, 1972 й.
29. Ўзбек адабиёти тарихи. I том, Тошкент: Фан нашриёти, 1977 й.
30. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 37 juz. “Sharq”. Toshkent 2012.
31. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ. Болтабоев талқинида. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008 й.

MUNDARIJA

Mumtoz adabiyotga kirish kursining maqsad va vazifalari	4
Mumtoz adabiyotning genezisi, shakllanishi va taraqqiyoti.....	12
Mumtoz she'r. Mumtoz adabiyotdagi an'anaviy mavzu va obrazlar	22
Mumtoz o'zbek adabiy tilidagi filologik asarlar va ularning badiiy adabiyotni o'rganishda muhim manbalar ekanligi.....	30
Islomgacha bo'lgan davr adabiyoti	39
Moniylik va buddaviylik adabiyoti.....	48
Yozma yodgorliklar.....	54
Islom madaniyatining shakllanishi va ilk musulmon uyg'onish davri	64
G'aznaviylar va qoraxoniylar davri adabiyotining asosiy xususiyatlari	75
Oltin O'rda o'zbek adabiyoti	90
Agiografik asarlar – badiiy nasr namunasi sifatida.....	109
Temuriylar davri adabiyoti.....	133
Glossariy	140
Tavsiya etiladigan ta'lim texnologiyalari.....	144
Foydalanilgan adabiyotlar:.....	149

H.D.ABDULLAEV

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

O'QUV QO'LLANMA

«O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi»
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2020

Nashr uchun mas'ul: **I.Ashurmatov**
Muhammarror: **A.Qobilov**
Badiiy muhammarror: **F.Sobirov**
Dizayner sahifalovchi: **L.Abdullayev**

Nashriyot litsenziya raqami AA № 0011. 06.05.2019 yil.
Bosmaxonaga 17.10.2020 yilda berildi.
Bichimi 60×84 %. Shartli b.t. 8,8. Nashr t. 9,0.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 41.
Bahosi shartnomaga asosida.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
nashriyot-matbaa birlashmasi bosmaxonasida chop etildi.
100011. Toshkent sh. A.Qodiriy, 11.

49440

633636



ISBN 978-9943-6529-1-0

9 789943 652910